

RESEARCH AND EDUCATION
Scientific Research Center

ISSN: 2181-3191

INTERNATIONAL CONFERENCE ON
EDUCATIONAL INNOVATIONS AND
APPLIED SCIENCES 2022/8

15 OCTOBER, 2022 YEAR

International Scientific Conference

RESEARCHEDU.ORG



PKP | INDEX



“RESEARCH AND EDUCATION” Scientific Research Center



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON EDUCATIONAL
INNOVATIONS AND APPLIED SCIENCES 2022/8”

www.researchedu.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ, точик, қарақалпақ

TASHKENT, UZBEKISTAN

2022/ OCTOBER 15

“БИР УМРГА ЎЛМАЙМАН...”

(Усмон Носир шеърлари реценцияси)

Абдулазиз Қосимов

Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),

German Sparkassenstiftung for International Cooperation (Германия), Давлат

идоралари билан муносабатлар бўйича эксперт

E-Mail: abdulaziz.qosimov@sparkassenstiftung.de

Аннотация: Жаҳон адабиётшунослигида шеърятни таҳлил қилишнинг бир қатор усуллари, ёндашувлари мавжуд. Шоирнинг фикрини тушуниш учун ижодкорнинг ҳаёт йўлини, яшаган даврини, муҳитини билиш талаб этилади. Ўқувчи ва ижодкор муносабати ҳозирги кунда илмий изланишларнинг объекти сифатида ўрганилмоқда. Хос ўқувчининг фикри билан яширин (имплицит) ўқувчи фикри ўртасидаги фарқ ёки ўхшашликлар ижодкорнинг қабул қилиниш даражасини белгилаб беради.

Калит сўзлар: реценция, ёзувчи-китобхон муносабати, рецептив эстетика, херменевтика, имплицит ўқувчи

"I WILL NEVER DIE..."

(Reception of Usman Nasir's poems)

Abdulaziz Qosimov

Doctor of Philosophy in Philology (PhD),

German Sparkassenstiftung for International Cooperation (Germany), expert on

relations with government agencies

E-Mail: abdulaziz.qosimov@sparkassenstiftung.de

Abstract: There are a number of methods and approaches to the analysis of poetry in world literary studies. In order to understand the poet's thoughts, it is necessary to know the artist's life path, the period in which he lived, and his environment. The relationship between the reader and the creator is currently being studied as an object of scientific research. Differences or similarities between the specific reader's opinion and the hidden (implicit) reader's opinion determine the level of acceptance of the creator.

Keywords: reception, writer-reader relationship, receptive aesthetics, hermeneutics, implicit reader

Жаҳон адабиётшунослигида херменевтика, рецептив эстетика каби илмий йўналишлар бир томондан асарнинг мазмун-моҳиятини, интерпретациясини очиб беришга ёрдам берса, бошқа тарафдан эса асар муаллифининг имкониятларини ҳам таҳлил қилади. Қараш ҳар хил, ёндашув турлича, муносабат ўзгача, тушуниш бошқача принципи асосида таҳлил қилинган асарлар ва уларнинг муаллифларини англашни, эътироф этишни осонлаштиради, ўқувчига яқинлаштиради.

Ўқувчи ва ижодкор ўртасидаги муносабат яна бир ўзига хос бўлган тармоқ ҳисобланади. Ёзувчи – ўқувчи (китобхон) муносабатини ҳеч ким олдиндан кафолатлай олмайди. Ёзувчининг асарлари қанчалик кўп ададда чоп этилган бўлса ҳам, адабиётшунослар уни кўкларга кўтариб мақтаган бўлсалар ҳам, ўша асарни китобхон ўзига сингдирмаса, ўзлаштира олмаса, ўзиники қила олмаса, барча қилинган меҳнат самарасиз кетади. Ижодкорнинг асарини тинчгина қабул қилиб, эътироз билдирмасдан мутолаа қиладиган яширин (имплицит) ўқувчи муаллифнинг ҳар бир айтмоқчи бўлган фикрини таҳлил қиладиган, ўрни келганда муаллиф фикрига қарши чиқи, ўз позициясини ҳимоя қилишга тайёр эксплицит (аниқ) ўқувчидан фарқ қилади.

Қайсидир ижодкор номини эшитсангиз, беихтиёр ижодкор яшаган тарихий давр, асарлари ёдингизга тушаверади. Қолаверса, ижодкор ҳақидаги фикрлар,

илмий қарашлар, таҳлилларга қизиқасиз. Ҳар сафар шоир Усмон Носир номини эшитганимда ёки ўқиганимда, “Юрак, сенсан менинг созим...” деб қўяман. Бу эса, онгимда шоир номини ўз-ўзидан унинг қаламига мансуб “Юрак” шеъри билан боғлайди. Ўз навбатида эса мен шоир номини жаҳон ҳамда ўзбек адабиётининг бир қатор вакиллари бўлган Абдулла Қодирий (1894-1938), Абдулҳамид Чўлпон (1897-1938), Франц Кафка (1883-1924) ва Сергей Есенин (1895-1925) томонга бураман. Буни эса улар яшаган макон ва замон билан асослаш мумкин.

Усмон Носир 1912 йил 13 ноябрда Наманган шаҳрида туғилган. Алишер Навоий номидаги Самарқанд педагогика академиясининг тил ва адабиёт факультетида таҳсил олади. Ёш бўлишига қарамай, дунёда содир бўлаётган кескин тарихий ўзгаришлардан хабардор бўлган. Жаҳон адабиётининг дурдона асарларини мунтазам равишда мутолаа қилган. Кўпгина интернет саҳифаларида Пушкиннинг **“Бокчасарой фонтани”** достонини ўзбек тилига ўтиргани ҳақидаги маълумот орқали Усмон Носир ажойиб бадиий таржимон эканлигини ҳам билиб олиш мумкин. Қолаверса, қатағон қурбонларини мукамал ўрганган олим, филология фанлари доктори, академик Наим Каримов “Жаҳон адабиёти” журналида (2017 йил 12-сон) **“Маълум ва номаълум “Эгмонт”**” мақоласи орқали Усмон Носирнинг таржимонлик маҳоратини юксак баҳолайди. Усмон Носир буюк немис шоири ва мутафаккири, жаҳон адабиётининг мумтоз намояндalари орасида Шарқ адабиётини, айниқса, форс шеъриятини чуқур ўрганган, Алишер Навоий, Шерозий ижодларидан баҳраманд бўлган ва Шарқ бадиий маданиятининг ихлосининг ифодаси сифатида “Шарқу Ғарб девони”ни яратган Йоханн Вольфганг Гётенинг (1749-1832) кўпчиликка унчалик таниш бўлмаган “Эгмонт” (1788) трагедияси таржимасига ҳам қўл уради.

25 ёшга тўлиб, тўлмаган вақтда, аниқроғи, 1937 йил 18 июлида ҳибсга олинган бўлса-да, Усмон Носир ўзбек адабиётида ўзининг муносиб ўрнини эгаллай олди. Таҳликали ва бешафқат тарихий даврда туғилган шоир кўркмасдан озодликни куйлади, мустақилликни орзиқиб кутди. Адиб Абдулла Қодирий бу

борадаги орзу-ниятларини “Ўткан кунлар”, “Меҳробдан чаён” романларида, Чўлпон эса “Кеча ва кундуз” романида, шунингдек, ўзининг шеърларида яширди, “кўмди”. 30 ёшида сирли равишда ўлдирилган Сергей Есениннинг дарди ўз ичида кетди. Жамиятнинг ноҳақликлари ва оиласида меҳр топмагани туфайли Франц Кафка тузалмас дардга мубтало бўлди. Масофа қанчалик узоқ бўлмасин, ижодкорлар бир-бирларини ғойибона таниган бўлсалар-да, қисматлари қайсидир маънода ўхшаш бўлди. Усмон Носирнинг тақдир йўли ҳам худди шундай бўлди. Шунга қарамасдан, тақдирини худди олдиндан кўргандек, ўз ўқувчиларининг муҳаббатини ҳис қила олди ва “**Боғим**” шеърида:

...Баргдек узилиб кетсам,
Унутмас мени боғим:
Ишимни ҳурмат қилур,
Гуллардан ҳайкал қурур.
Минг йиллардан кейин ҳам
Унутмас мени боғим!..
дейди.

Юқорида шоир Усмон Носирнинг таржимонлиги борасида фикрлар айтилди. Лекин шоир ўзини-ўзи таржима қилишга ҳаракат қилди. Шеърлари билан ўзига, юрагига, севгисига, шеърига мурожаат қилаверди. Аслида мажозий ҳисобланган ушбу деталлар орқали халқига, Ватанига юзланган эди.

Юрак, сенсан менинг созим,
Тилимни найга жўр этдинг.
Кўзимга ойни беркитдинг,
Юрак сенсан ишқибозим.
дейди шоир “Юрак” шеърида.
Сенга тор келди бу **кўкрак**,
Севинчинг тошди қирғоқдан,
Тилим чарчар, ажаб, гоҳи
Сени таржима қилмоқдан.

дея, шоир мажозий маънода “кўкрак” деб ўзи яшаётган муҳитни, даврни таърифлаган бўлса, ажаб эмас. торлик қилаётганидан, ҳаво етишмаётганидан, ҳатто ўзини-ўзи тушунмаётганидан, тушунтира-олмаётганидан чарчаганини таъкидлайди.

Сен эй, сен — ўйноқи дилбар,
Зафардан изла ёрингни.
Тўлиб қайна, тошиб ўйна,
Тирикман, куйла борингни!

Юрагига “ўйноқи дилбар” дея мурожаат қилиб, унга чин дўст, вафодор ёр тилайди, унинг тинмай куйлашини, тўлиб-тошишини истайди. Аслида эса, бу шоирнинг ўзига талаби, ўзининг ички иштиёқи ва истагидир.

Итоат эт!
Агар сендан
Ватан рози эмас бўлса,
Ёрил, чакмоққа айлан сен,
Ёрил! Майли, тамом ўлсам!

Ҳам юрагига, ҳам ўзига қўйилган юқоридаги юксак талабни Ватанининг ва халқининг розилиги йўлида садоқат билан гўзал уддалади.

“Яна шеъримга” сонетининг сарлавҳасини ўқиган ўқувчи биринчи навбатда нега “яна” сўзи борлигига қизиқади. 1935 йилда ёзилган “Яна шеъримга” сонети билан Усмон Носир ўз шеърига учинчи мартаба мурожаат қилаётгани боисидан. Аввалига 1933 йил Самарқандда “Шеърим” тўртлигини ёзади:

Сен, юрагимнинг чашма суви сен,
Сен, кўзларимнинг гавҳар нурлари.
Сенинг баҳонгни ким сўраса, де:
“Баҳом – умримнинг баҳосига тенг!”

Аввалига шеърларига меҳри-муҳаббати туфайли “...юрагимнинг чашма суви..” ёки “...кўзларимнинг гавҳар нурлари” деб “мулозамат” кўрсатган шоир, иккинчи шеърда:

Илҳомимнинг вақти йўқ селдай келади,

Жаллоддек раҳм этмай дилни тилади.

Аёндин: бир куни айлайди хароб...

Майлига. Меҳримни, гўёки шароб –

Шимирдим. Яшайман тилсин дилимни.

Бемехнат севмайман тирик тилимни.

деб, илҳомнинг селдай оқиб келишидан, сатрларга сиғмай кетаётганидан, дардларнинг туғён уриб дилини тилка-пора қилаётганидан шеърни жаллодга менгзайди.

Аммо учинчи сафар “Яна шеъримга” сонети орқали шеърларини “эркалаб” мадҳ этишни бошлайди. Сонетнинг ҳар сатрини ўқиган инсон шеърят боғининг гўзал гўшалари сари одимлайди:

Шеърим! Яна ўзинг яхшисан,

Боққа кирсанг, гуллар шарманда.

Бир мен эмас, ҳаёт шахсисан,

Жоним каби яшайсан манда.

Шеър юрак дардига, ишқнинг ўтига малҳам бўлгани боис, ундан воз кечиб бўлмаслигига ишора қилиб, шоир “...дардимсанки, шеърим яхшисан” дейди:

Юрагимнинг дарди — нақшисан,

Қилолмайман сени ҳеч канда!

Ўт бўлурми ишқи йўқ танда?

Дардимсанки, шеърим яхшисан.

Шеърят кўприги орқали Усмон Носир немис ва рус адабиёти билан ҳам ошно бўлганини, улардан кўмак олганини эътироф этади:

Сен орада кўприк бўлдинг-да,
Гейне билан ўртоқ тутиндим.
Лермонтовдан кўмак ўтиндим.
Бутун умрим сенинг бўйинингда.

Сонетнинг сўнггидаги эътироф ўқувчининг эътиборини яна бир марта ўзига тортади. Шеърятни, аниқроғи, шеърни ўзининг севгилиси сифатида тасвирлаган Усмон Носир барча дард-ситамларга чидашини, ҳаммасига рози эканлигини баралла айтади:

Саҳарда қон тупурсам, майли.
Мен — Мажнунман, шеърим, сен – Лайли!

“Монолог” шеърда Усмон Носир севги-муҳаббатнинг макон ва замон билмаслигини, ишққа боғланган кўнгилнинг неларга қодирлигини, ошиқликнинг гўзал, аммо дардли жиҳатларини куйлайди. “...Асрларни йиғлатган севги!” мисраси билан яқунланган биргина шеърда адабий даврларнинг кичик бир тарих солномаси акс этади. Биргина шеър Данте Алигъери (1265-1321), Франческо Петрарка (1304-1374), Уильям Шекспир (1564-1616) каби жаҳон адабиётининг буюк сўз санъаткорлари асарларининг митти таҳлили ҳисобланади. Қолаверса, бу шеъри орқали шоир Усмон Носир ўзининг шоирлик қисмати оғир бўлишини эҳтимол қилди:

...Қийналаман виждон билан ман –
Мумкин эмас қарши турмасдан
Ўз зиммамга катта иш олдим;
Эҳтимолки тамом қилмасдан –

Умрим тугар. Аммо бўлмайди
(Кўнглим ўрнига ҳеч тушмайди!)
Сенга қарши бош кўтармасдан,
Асрларни йиғлатган севги!

Шеърларини ардоқлаган, авайлаган шоир Усмон Носир ўзбек адабиётида порлаган юлдуз бўлди. Жаҳон адабиётининг шайдоси, билимдони бўлган шоирнинг шеърларидан уфуриб турган ифор кимнидир қувонч сарҳадларига, бошқа бировни дард-алам сўқмоқларига, яна бировни эса ёлғизлик кўчаларига бошлайди. Демакки, ўқувчи ўзи истаган маънавий озуқадан баҳраманд бўлаверади.

Шоир Ўроз Ҳайдар Усмон Носирни “Чакмоқ айланган шоир”, адабиётшунос олим Иброҳим Ғафуров шоирни “Қисматнинг овози” деб атади. Кўпчилик адабиётшунослар Усмон Носирни ўзбек Лермонтови ёки Пушкини дея эътироф этдилар.

Афсуски, шоир Усмон Носир ижодининг қайноқ нуқтасида мустабид тузумнинг тазйиқига учради. Шавкат Раҳмон таъбири билан айтганда, “Шоирни ўлдирмак – жиноят, гуноҳ...” бўлса-да, шоирнинг башарни эзгуликка, мустақилликка чорлашдан қўрққанлар уни панжара ортига отдилар. Усмон Носир 1937 йилнинг 14 июлида «халқ душмани» сифатида қамоққа олинди ва Тошкент, Магадан, Кемерово турмаларида ҳибсда тутилди. Қамоқда инсон боласи чидаши мумкин бўлмайдиган қийноқларга дучор бўлган шоир 1944 йилда Кемеровода ҳалок бўлди.

Бу йил 110 йиллиги нишонланаётган шоир Усмон Носир “Боғим” шеърида тилга олган фусункор боғ – бу шоирнинг шеърият боғи, Ватани, юрти, ишончи ва умидидир. Шоир ўзи танимаган, билмаган авлоддан умид қилади ва

..Ишимни ҳурмат қилур,
Гуллардан ҳайкал қурур.
дейди.

Дарҳақиқат, шоир ва таржимон Усмон Носир шубҳасиз ҳали бир неча асрлар оша ҳам шеърлари билан тарих зарварақларида сақланажак ва шоирнинг ўзи айтганидек,

Шеърларим янграб қолур –
Бир умрга ўлмайман!

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Борев.Ю.Б. Теория художественного восприятия и рецептивная эстетика, методология критики и герменевтика// Художественная рецепция и герменевтика/. – М.: Наука, 1985. Стр. 3-69.
2. Борев.Ю.Б. Эстетика/. – М.: Высш.шк., 2002. – 511 с.
3. Вольтер. Эстетика. Статьи. Письма. Предисл. и рассуждения. Сост., вступит, статья и ком мент. В. Я. Бахмутского. Пер. Л. Зониной и Н. Наумова /. – М.: «Искусство», 1974. – 392 с. с портр. (История эстетики в памятниках и документах). стр. 267-281.
4. Гадамер Х.-Г. Истина и метод: Основы филос. герменевтики: Пер. с нем./Общ. ред. и вступ. ст. Б. Н. Бессонова.— М.: Прогресс, 1988.-704 с
5. Карим, Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур./ – Т: Akademnashr, 2014. – 256 б.
6. Каримов, Наим. Маълум ва номаълум “Эгмонт”, мақола, «Жаҳон адабиёти» журналі, 2017 йил, 12-сон.

KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING UMUMKASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

G‘ofirov Muzaffar Jumayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi

Shukurova Sohiba Abdig‘ani qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti talabasi

Annotatsiya: Ta’lim sifati muammosini hal qilishda kompetentli yondashuvi tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda, bu ta’lim mazmuni sifatini baholashni asosiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish darajasiga yo‘naltiradi. Uni amalga oshirish oliy ta’limning bilim yo‘nalishlarini egallashga yordam beradi, ta’lim mazmuni, uning usullari va texnologiyalari to‘g‘risida yangi tasavvurga olib keladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, kompetentli yondashuv, ta’limning kompetentli modeli, modul, mo‘dul tarkibi, modullarni baholash materiallari, o‘quv materiallari.

Muhandislik tafakkurining xususiyatlari kasbiy ta’limni mazmunan qurish zarurligini isbotlagan, tayyor bilimlarni uzatishga emas, balki ushbu bilimlarni topishni va uni haqiqiy kasbiy vaziyatlarni simulyatsiya qiladigan vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganishga qaratilishi lozim.

Kasbiy ta’limni yangilashning asosiy yo‘nalishi bo‘lajak muhandisga o‘quv jarayonida faol yondashuvni shakllantirish, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli qurish tajribasini shakllantirishga, unda tizimli harakatlarga, yangi muammolar va vazifalarni hal qilishga hissa qo‘shish yo‘llarini topishdir.

Muhandislik ta’limi mazmunini qurishda yangicha yondashuv bitiruvchilarga kasbiy muhitdagi o‘zgarishlar dinamikasiga ham, tashqi mehnat bozori sharoitlariga ham tez moslashishga imkon beradi.

Ta'lim sifati muammosini hal qilishda kompetentli yondashuvi tobora ko'proq qo'llanilmoqda, bu ta'lim mazmuni sifatini baholashni asosiy kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasiga yo'naltiradi. Uni amalga oshirish oliy ta'limning bilim yo'nalishlarini egallashga yordam beradi, ta'lim mazmuni, uning usullari va texnologiyalari to'g'risida yangi tasavvurga olib keladi.

Konseptual asoslar:

- bo'lajak muhandisni kasbiy tayyorlashning asosiy modellari haqida g'oyalar;
- "bo'lajak muhandisning kasbiy kompetentligi" tushunchasining mohiyatini tushunish;
- kasbiy muhandislik ta'limi jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish mantig'i;
- kasbiy muhandislik ta'limida qo'llaniladigan kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ilmiy-metodologiyasini ishlab chiqish.

Ko'pincha, kompetensiya insonning murakkab madaniy o'xshash harakatlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida belgilanadi. Britaniyalik psixolog J.Raven kompetensiyani ma'lum bir mavzu sohasidagi aniq harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat va shu jumladan yuqori ixtisoslashgan bilimlar, maxsus turdagi ko'nikmalar, fikrlash usullari, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni tushunish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat sifatida talqin qilishni taklif qildi. J.Raven kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy sharti qadriyatlarni aniqlash jarayoni odamlarning allaqachon mavjud bo'lgan fikrlari va his-tuyg'ularini aniqlash, mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan rivojlanayotgan muhitni aniqladi. Kompetensiya faqat motivatsion muhitda rivojlanadi: agar u mazmunli bo'lmasa, bilimlarni baholash mantiqsiz hisoblanadi.

Kasbiy faoliyat jarayonidagi dialog (yoki unga taqlid qilish) nafaqat nazariy bilimlarni amaliyga o'tish uchun sharoit yaratadi, balki ko'proq malakani oshirish uchun zamin yaratadi. Kompetentlik paradigmasida nazariy bilimlar amaliy faoliyatni modellashtirish uchun birinchi o'ringa qo'yilishi kerakligini taklif qiladi. Jak Delors fikricha, kompetensiya-bu o'zingizni yaratish qobiliyatingizdir: bilishni o'rganing,

qilishni o‘rganing, birgalikda ishlashni o‘rganing, birgalikda yashashni o‘rganing deb ta’kidlaydi.

YE.Y.Ignatevning kompetentlik paradigmasida umumlashgan mazmun quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Bilimlar hajmi	faqat minimal va yetarli miqdordagi fundamental bilimlar belgilanadi, qolganlari ta’lim vazifalarining mohiyati bilan belgilanadi, shuning uchun u yo‘nalishlarda farq qilishi mumkin
Axborot-ta’lim jarayonining o‘rni	axborot-muammolarni hal qilish uchun intellektual faoliyat rivojlanadigan mavzu sohasi sifatida
O‘qituvchi-talaba, talaba-talaba o‘zaro ta’siri	birgalikdagi faoliyat o‘zaro ta’sirning subyekt-subyekt xususiyatini nazarda tutadi
Ijtimoiy-shaxsiy ta’lim	refleksiya asosida talabalar tomonidan qayd etiladigan ta’limning rejalashtirilgan natijasi
Subyektiv bilimlarni shakllantirish	faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va tashxislanadi; shaxsiy bilimlar faoliyatni amalga oshirish shartidir
Ta’lim sifatini baholash	mazmunli bilim, shaxsiy bilimni oshirish
Ta’lim natijalarini baholash	olingan va amaliy bilimlarning sifati, faoliyat natijalari
Ta’lim natijasi	kompetentli

Ta’limning kompetentli modeli uchun:

- birinchidan, ta’lim natijasini "shaxsning ma’lum bir vaziyatda yetarli harakatlarga tayyorligini aniqlash. Insonning kasbiy faoliyatga tayyorligi fenomeniga ushbu faoliyatni amalga oshirish qobiliyati va motivi, uni amalga oshirish istagi kiradi;
- ikkinchidan, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quv jarayonini tashkil etishning ma’nosi shunday shart-sharoitlarni yaratishdir, bunda yangi ma’lumotlar nafaqat rasmiy ravishda o‘zlashtiriladi, balki talabaning ichki resursining bir qismini

tashkil etadi, ya’ni. amaliyotning har xil turlarini o‘zlashtirish jarayonida faoliyat usullarini o‘zlashtirish mexanizmi ishlab chiqiladi;

•uchinchidan, talabalarning ilmiy yutuqlarini baholash aniq mezonlarga ega bo‘lgan oldindan belgilangan sifat standartiga asoslanadi.

Shunday qilib, ta’limda kompetentli yondashuv ta’lim natijalarini maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish va baholashning an’anaviy tizimlarini qayta qurishni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak.

1. Axborot jamiyatining zamonaviy tez o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida shaxsga qo‘yiladigan talablarga javob beradigan yangi ta’lim sifatiga erishish faoliyatning muayyan sohalarida kompetentlikka erishish bilan bog‘liq.

2. Kompetentlik insonning ajralmas xususiyati bo‘lib, uning bilim, ta’lim va hayotiy tajribadan, qadriyatlar va moyilliklardan foydalangan holda haqiqiy hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolar va tipik vazifalarni hal qilish qobiliyatini belgilaydi.

3. Bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan tayanch, asosiy va maxsus kompetensiyalar ma’lum bir ta’lim maydonidan foydalangan holda turli xil murakkablikdagi hayotiy kasbiy vazifalarni turli sharoitlarda hal qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. O‘quv jarayonini tashkil etish orqali uyg‘unlik ta’minlanadi.

4. Kasbiy vazifalarning sanab o‘tilgan guruhlarini hal qilish tajribasi bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini tashkil etish muammosini hal qilish uchun asosdir.

5. Kompetentlikni rivojlantirish darajasini baholashga imkon beradigan mezonlar o‘quv jarayonining o‘ziga singdirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. // – T.: 2020 y.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, TDPU, 2003.
3. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – Toshkent, Iqtisod-moliya, 2008.
4. Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzokova L., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta’limi uslubiyati. – Toshkent: Iqtisod moliya, 2006.
5. D.O.Himmataliyev, J.O.Hakimov, SH.S.Sharipova, M.F.To‘rayev, Z.Q.Murodova “ Formation of didaktik competence of students as a pedagogical problem” PSYCHOLOGY AND EDUCATION Scopus international journal № 1. 2021, yanvar.
6. M.J.G‘ofirov, “Integrated learning concept” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) № 1. 2021, yanvar.
7. M.J.G‘ofirov, “Requirements for general vocational training of engineering students” European multidisciplinary journal of modern science, Vol. 4, Published: 2022-03-08

ADABIYOTIMIZGA BO‘LGAN QIZIQISHNI OSHIRISHDA BERDAQ ASARLARINING O‘RNI

Abduhalimova Marjona Alisher qizi

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 2-kurs talabasi

Email: abduhalimovamarjona@icloud.com

Xatamova Nasiba Baxromjon qizi

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 2-kurs talabasi

Email: xn.tekna04@gmail.com

Annotatsiya: Badiy adabiyotimizda Berdaqning o‘ziga xosligi, Berdaqning ijodiy faolligi haqida fikr mulohaza yuritamiz.

Аннотация: В нашей литературе мы размышляем об уникальности Бердака и творческой деятельности Бердака.

Annotation: In our literature, we reflect on Berdak’s uniqueness and Berdak’s creative activity.

Kalit so‘zlar: Adabiy muhit, zamon va makonda adabiy muhit, Berdaqning Ahmoq podsho asari.

Ключевые слова: Литературная среда, литературная среда во времени и пространстве, Глупый король Бердаха.

Keywords: Literary environment, literary environment in time and space, Berdakh’s Foolish King.

Adabiy muhitning vujudga kelishi albatta yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog‘liqdir. Masalan (Lutfiy, Navoiy, Jomiy, va boshqalar), Qoraqalpoq adabiyotida yesa (Jiyan Jirav, Kunxo‘ja, Berdaq, Qulmurod, Gulmurod va b.) yirik shoirlar faoliyati, ijodiy ta’sirida yuzaga keladigan muhit adabiy muhit desak adashmagan bo‘lamiz. “Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”, Shavkat Mirziyoyev.

Qoraqalpoq xalqi adabiyoti tarixda juda murakkab jarayonni bosib o‘tgan adib Berdaq serqirra ijod qilgan vakillaridan hisoblanadi. Asosan, ko‘chmanchilik asosida chorvachilik bilan shug‘ullangan qoraqalpoqlar uzoq asrlik hayotini jabru-sitamlarni boshidan kechirdi. Ular goh Buxoro, goh Xiva xonliklari tarkibiga kirgan joylarda istiqomat qilgan. O‘zlarining milliy davlatlari faqat XX asrdagina vujudga keldi. Qoraqalpoq xalqining yozuviga asosan XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab ega bo‘lgan edi. Shuning uchun ularning adabiyoti tarixi asosan xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan bo‘lgan ertak, qo‘shiq va dostonlardan iboratdir. Adib Berdaq o‘z asarlarida xalq hayotining fojiiyali va kulguli tarizda sheriy va doston tariqasida gavdalantirishni oiladagi muxitni ochiq tarizda umumlashtirib xalq dardi deb nomlab Xalq uchun sheri orqali ifodalab bergan. Berdaq o‘sh oldiga so‘nggi muammoli Xonlik davrini sahnada gavdalantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Ko‘pincha Berdaq iqtidori, mahorati bir yoki bir necha adabiy tur va janrlarda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Berdaq dostonlari bilan bir katorida hikoyali sheърlar ham yozgan. Lekin u o‘zining eng asosiy ijodiy maqsadlarini nazmda, ya’ni she’r va poemalarda to‘liqroq yuzaga chiqargan hamda shu janrlarda eng katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Berdaq o‘zida she’riy ijod kilishga ko‘proq moyillik sezgan, hayotining oxirigacha mazkur adabiy she’riy va dostonlar yozib, xalq orasida jiddiy yutuqlarga erishgan. Berdaq ko‘plab she’r va dostonlarni bitgan bo‘lsada, uning iste’dodi dostonchilik sohasida yanada yorqinroq namoyon bo‘lgan, ulkan samaralar bergan. Berdaq ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari uning she’rlardagi adabiy tur va janrlarning o‘ziga xosligini yuzaga keltiradi. Biroq bu o‘ziga xoslik shoirning muayyan janr sohasida xalqning badiiy ijod xazinasida asrlar davomida mavjud bo‘lgan poetik tasvir vositalaridan ijodiy foydalanishiga to‘sqinlik qilmaydi. San’atning ko‘plab tarmoklarga va ayniqsa, baxshichilik va adabiyotning turlarga bo‘linishi uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida sodir bo‘lgan.

Badiiy ijod taraqqiyoti barcha xalkdarda bir xil izchillikda davom etmagan va shu tufayli xususiyati ham aynan bir xil bo‘lmagan. Alohida bir xalq adabiyotida adabiy tur va janrlarning tug‘ilishi hamda rivoji milliy va estetik taraqqiyoti ehtiyojlari bilan

bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Bunga misol tariqasida Berdaq yashab ijod qilgan davirni oladigan bo‘lsak berdaq ijod qilgan davirda faqatgina davlat amaldorlari saroy amaldorlari xonlarni matx etish ularning kamchiliklarini ham faqat yutiqlik sifatida sherlar bitgan. Berdaq bu uslubdan vos kechib Xalqning mashaqqatlarini ifoda etgan xolda sherlar dostonlar bitgan. U yo bu mamlakatdagi ijtimoiy taraqqiyotning milliy va tarixiy jihatdan o‘ziga xosligi adabiy tur va janrlar sohasida ham ko‘zga tashlanadi.

Shu o‘rinda Qoraqalpoq klassik adabiyotida o‘ziga xos bo‘lgan adib mumtoz adabiyoti taraqqiyotida ulkan demokrat-gumanist shoir “Berdimurod Berdaqning mavqei katta. Berdaq «Shajara», «Ernazar biy», «Oydo‘st biy» va «Ahmoq podsho» dostonlari bilan qoraqalpoq mumtoz poeziyasida dostonchilikning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shdi. «Ahmoq podsho» dostonida tasvirlanishicha, Ahmoq podsho farzand ko‘rmaydi, merosxo‘ri bo‘lmaganidan qayg‘uradi. Uning Gulim ismli xotini qiz ko‘radi. Buni xabar qilish uchun shoh saroyiga Zara nomli cho‘ri xotinni yuboradilar. Podsho bunday «yomon» xabarni, keltirgan cho‘ri xotinni kaltaklashni, qizini esa o‘ldirib, xotini o‘z qoshiga keltirishni buyuradi. Lekin sadoqatli cho‘ri Zara qiyinchiliklarni yengib, bu xabarni Gulimga yetkazadi. Gulim va uning qizini jallodlar changalidan saqlab qoladilar va ularni yer ostidagi bir qo‘rg‘onda tarbiyalaydilar. Oradan ko‘p vaqtlar o‘tadi. Bo‘yga yetgan shoh qizi Gulzor o‘z otasi bilan uchrashishni istaydi. Qizi Gulzor bilan uchrashgan Ahmoq podsho unga oshiq bo‘lib qoladi. Lekin qiz podsho taklifini rad etadi.

Shunda u qizni itlarga yem qilishga buyuradi. Itlar esa Gulzorga hamla qilish o‘rniga tilga kirib, Ahmoq podshoni qarg‘aydilar. Shundan so‘ng Gulzor zindonga tashlanadi. Keyinroq uni yashirin yo‘l bilan o‘rmonga olib ketib tarbiyalaydilar. Podshoning qilmishlaridan g‘azablangan Gulzor saroyga kirib kelib, o‘z qo‘li bilan Ahmoq podshoni o‘ldiradi. Dostonning qisqacha mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Berdaq bu asarida qarama-qarshiliklarni zo‘r mahorat bilan ochib bergan”. Berdaq o‘zining ushbu dostonida Ahmoq podsho singari zolim shohlarning zulmi va farosatsizligini qattiq tanqid qilgan. “1957-yildan beri Toshkentda bir necha bor o‘tkazilgan qoraqalpoq adabiyoti va san’ati dekadalarida qoraqalpoq adabiyoti va

san'atining shaklan milliy, mazmunan adabiyot bo'lib ravnaq topayotganligini isbot qilib berdi. Qoraqalpoq yozuvchilarining 20-30-yillarda endigina paydo bo'lib mustahkamlanayotgan qoraqalpoq matbuoti organlari atrofiga, jumladan, “Erkin Qoraqalpoq” ro'znomasi atrofiga uyushishlari ularning ijodiy kamolotga erishishlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi”. Adabiyotimizning ko'plab namoyondasi bo'lgan adiblar juda ko'p bo'lib adiblar turli zamon va makonda ijod qilgan. Shu zamon va makondan o'tib kelgan asarlar oltin merosimiz hisoblanadi.

Xulosa o'rnida quydagiya Berdaqning sheri bilan yakunlasak va bu sherga xulosani o'zingiz chiqarsangiz.

Berdimurot, izla, izla,
Har yo'lini to'g'ri ko'zla,
Ne so'zasang, yaxshi so'zla,
Haq diydorin izlar edim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi X.S.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti “Berdaq she'riyatidan” Mirtemir tarjimai. T.: 1977 y.
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
3. www.e-adabiyot.uz Qorqalpoq adabiyoti Qarshi davlat universitetining katta o'qituvchi A.Hamdamov
4. www.Vikipediya: Adabiy muxit. Maqolalar.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ O‘STIRISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

Professor, **Babayeva Dono Razzaqovna**
Magistrant, **Ochilova Xilola Sheraliyevna**
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedresi

Jahonda bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda ularning yoshiga xos bo‘lgan psixologik va pedagogik xususiyatlarning nazariy-metodologik jihatlarini tadqiq qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ota-onalar bilan tarbiyachilarning o‘zaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirish; bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda qo‘l keladigan usul va metodlarni aniqlash hamda nazariy-amaliy jihatlarini belgilash; nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida badiiy asarlar misolida bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish metodikasini yaratish; didaktik o‘yinlar va ularning bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdagi o‘rnini belgilash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish; maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda tarbiyachi kasbiy kompetentligining ahamiyati va bolalarning mustaqil fikrlash darajasini baholash mezonini ishlab chiqish muammolari bugungi kunda alohida dolzarflik kasb etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, tashkilotlarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan

islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishni, fikrlashi, shuningdek, MTT larda ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachilar uchun ona tiliga doir qo‘llanmalar, ta‘lim tashkilotlaridagi eng yaxshi ish tajribalari haqida maqolalar to‘plamlari muntazam ravishda chop etila boshlandi. Nutq rivojlanishi qonuniyatlari to‘g‘ri hisobga olingan taqdirda u barcha bolalar nutqining maqbul darajada rivojlantirilishini ta‘minlaydi. Bolalarning mustaqil ravishda egallab olishlari qiyin bo‘lgan hikoya qilib berish qobiliyatini shakllantirishga alohida ahamiyat beriladi. Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta‘minlash imkonini beruvchi bolalar o‘quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilnoqda.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. – Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. – Maktabgacha ta‘lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta‘minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta‘lim olishga tayyorlaydi. – Maktabgacha yoshdagi bola eshitadigan, ma‘nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo‘llaydigan so‘zlarni asta-sekin tevarakatrof bilan tanishish

jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o‘zining uncha ko‘p bo‘lmagan so‘z zaxirasiga tayanib bilib oladi. Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o‘zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari zarur. «Mustaqil fikrlash – inson oldiga qo‘yilgan har qanday masalani aniq maqsad va vazifalarini belgilagan holda o‘z bilimi, hayotiy tajribasi, imkoniyati doirasida turli yo‘l va usullardan foydalangan holda mustaqil ravishda hal qilishga yo‘naltirilgan aqliy va ruhiy faoliyatidir», deya ta’rif berish mumkin. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatining tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidiyligida o‘z aksini topadi . Bulardan biri tashabbuskorlik insonning o‘z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo‘ya bilishi, ularni amalga oshirish yo‘lidagi muammolar yechimini topa olishi, nihoyasiga yetkazish uchun zarur bo‘lgan usul hamda vositalarni qo‘llashidagi faoliyatida namoyon bo‘ladi. Uning pishiqligi vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo‘l keladigan usul va vositalardan oqilona foydalanish va yechimni tezkorlik bilan izlab topish, ularni farqlashda ko‘rinadi. Mazkur faoliyatning tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo‘ladi. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, inson tafakkuriga xos bo‘lgan tashabbuskorlik, pishiqlik va tanqidiylik sifatlarini aniqlashning o‘zi ham tarbiyachi-o‘qituvchilardan bilimdonlikni, aqliy zo‘riqishni, bugungi til bilan aytiladigan bo‘lsa, kompetentlikni talab qilishi ham haqiqatdan yiroq emas.

Adabiyotlar:

1. Mirjalilova S., R.To‘laganova. Talim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyonoma. –T., 2008.
2. Kayumova N.M. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. -T., Manaviyat-2017yil.
3. Nurkeldiyeva D.A. va boshq. Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar. –T., 2007

FALSAFA OLAMIDA IMANUIL KANT VA UNING FALSAFIY G‘OYALARI, NAZARIYALARI O‘RNI

Bahramova Zamira Shamsiddin qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Falsafa ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada falsafa fani rivojlanishida buyuk faylasuf olim sanalmish Imanuel Kantning beqiyos o‘rni, uning fanga qo‘shgan ulkan hissasi, falsafiy qarashlari, g‘oya va nazariyalari keng ma‘noda ochib berilgan, mushohada qilingan. Kant bilan bir yo‘nalishda fikr yuritgan hamda unga qarama-qarshi yo‘nalishda faoliyat olib borgan olimlar ijodi o‘rganilib, taqqoslab chiqilgan. Zamonaviy falsafada Kant qarashlari qay darajada muhim ekanligi namunalar orqali yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Antik dunyo, filosofiya, zamonaviy falsafa, dialektika, Gegel, obyektiv idealizm, antik dunyo, kategoriya, ontologiya, metafizika, tafakkur, kategorial sintez, appersepsiya, determenizm, senergetika, Fixte ta‘limoti.

ABSTRACT

In this article, the incomparable role of the great philosopher and scientist Immanuel Kant in the development of the science of philosophy, his great contribution to the science, his philosophical views, ideas and theories are revealed and observed in a broad sense. The works of scientists who thought in the same direction as Kant and worked in the opposite direction were studied and compared. How important Kant’s views are in modern philosophy is illustrated by examples.

Key words: Ancient world, philosophy, modern philosophy, dialectic, Hegel, objective idealism, ancient world, category, ontology, metaphysics, thinking, categorical synthesis, apperception, determinism, synergistics, Fichte’s teaching.

Kirish:

Immanuil Kant - nemis faylasufi, nemis klassik falsafasiga asos solgan, ma'rifat va romantizm davrida yashagan, buyuk faylasuflardan biridir. Kantning buyuk nazariyalarining yaratilishi asosida uning oilaviy hayoti, turmush tarsi, bolaligi va shunga o'xshash bo'lgan ko'pgina hayotiy jarayonlarning yig'ilishi sababchi bo'lgan va aynan, hayotiy qarashlar evaziga hosil bo'lganligi uchun ham uning g'oyalari haqqoniy va hayotiy mazmunga ega desak mubolag'a bo'lmaydi. Immanuel Kantning ona shahri - Koenigsberg. U 1724-yil 22-aprelda tug'ilgan va o'limigacha butun umri shu yerda yashagan. Bo'lajak falsafa yoritgichining otasi Iogann Georg Kant edi, u egar yasagan. Onasi Anna Regina oilasiga g'amxo'rlik qildi va o'n ikki bolani tarbiyaladi. Immanuil to'rtinchi farzand bo'lib, uning ko'plab aka-uka va opa-singillari go'dakligidayoq vafot etadilar. Uch opa va ikki aka-uka omon qolgan. Immanuilning bolaligi 18-asrda yong'inda butunlay yonib ketgan kichkinagina bir uyda o'tdi. Kant o'zining yoshlik yillarini Kenigsberg chekkasida istiqomat qiluvchi oddiy hunarmandlar va ishchilar orasida o'tkazdi. Tarixchilar buyuk faylasufning millatiga ko'ra kim bo'lganligini aniqlay olmadilar. Ba'zilar ota-bobolarini Shotlandiyada yashagan deb da'vo qilishdi, ammo bu ma'lumot rasman tasdiqlanmagan. Onasining qarindoshlari Germaniyaning Nyurnberg shahrida yashagan. Bolaning ota-onasi o'g'lining ma'naviy tarbiyasi uchun asos solgan, ular o'zlari chuqur dindor odamlar bo'lgan va lyuteran cherkoviga, aniqrog'i, uning o'ziga xos yo'nalishi - pietizmga tegishli edi. Ta'limot shundan iboratki, inson doimo Robbiyning ko'z o'ngida bo'ladi, shuning uchun u shaxsiy taqvodorlikka rioya qilishi kerak. Kantning oilasida farzandlariga din asoslarini singdirgan, ularni tevarak-atrofdagi olamning go'zalligi bilan tanishtirgan ham aynan uning onasi edi.

Adabiyotlar tahlili:

Kant o'zining "Tirik kuchlarni chinakam baholash haqidagi fikrlar" deb nomlangan birinchi inshosini universitetda o'qiyotganda yozgan. O'qituvchi Knutzen bu vaqtda unga katta ta'sir ko'rsatdi. Rixter amakining sa'y-harakatlari va moliyaviy yordami tufayli asar faqat 1749-yilda nashr etilgan. Immanuel universitet diplomini

olmagan. 1746-yilda otasi vafot etdi, oilaning moddiy farovonligi haqida qayg‘urish uning yelkasiga tushdi. Kant uy o‘qituvchisi sifatida ish topadi va uzoq o‘n yil davomida badavlat oilalar farzandlariga dars beradi. Yigit butun bo‘sh vaqtini falsafiy asarlar yozishga bag‘ishladi, bu esa keyinchalik uning ta‘limotiga asos bo‘ldi. 1755-yilda faylasuf o‘z ona universitetiga qaytib keldi. Uning maqsadi “Olovda” dissertatsiyasini himoya qilish va magistrlik darajasini olishdir. O‘sha yilning kuzida u "Metafizik bilimlarning birinchi tamoyillarining yangi yoritilishi" nomli yangi asarini taqdim etdi va fan doktori unvonini oldi. Endi u universitetda dars berish huquqiga ega va darhol bu imkoniyatdan foydalandi. U talabalarga mantiq va metafizikadan saboq bergan. Mana shu qisqa va shu bilan birga qiyinchiliklarga to‘la bo‘lgan hayoti davomida u o‘ziga xos bo‘lgan ta‘limotlarini shakllantira boshladi. Ammo, bu vaqtda ham faylasufning hayoti to‘laqonli ravishda osuda o‘tmadi. Bu yillarda u axloq, estetika, gnoseologiyani chuqur o‘rgandi, jahon ta‘limotiga asos bo‘lgan eng ajoyib asarlarini yozdi. 1781-yilda faylasufning ilmiy tarjimayi holi "Sof aqlning tanqidi" deb nomlangan eng fundamental asar bilan kengaytirildi, unda u kategorik imperativ nima ekanligini tushuntirib berdi.

Natijalar:

Immanuil Kant o‘zining metafizikasi - Sof sababning tanqidiy mavzusi va uning axloqiy metafizikasiga va praktik asosning tanqidiga asoslangan o‘zining axloqiy falsafasi uchun ham tanilgan. Kantning axloqiy falsafasini tushunish uchun, avvalambor, vaqtning boshqa mutafakkirlari singari muammoni tushunishga harakat qilib ko‘rish kerak. U yashagan vaqtlarda odamlarning axloqiy e‘tiqodi va amallari dinga asoslangan edi. Injil yoki Qur‘on kabi muqaddas bitiklar Xudo tomonidan berilgan deb hisoblangan. Bundan tashqari, qoidalarga itoat qilgan har bir kishi moddiy jihatdan rag‘batlantirilgan. Shunday qilib, har qanday aqlli kishi din ta‘limotining axloqiy qoidalariga rioya qilar edi. Bunday davrda insonlarga dunyoviy ta‘limot to‘g‘risida, nazariyalar, qoidalar to‘g‘risida tushuncha berish juda tahlikali bo‘lgan. O‘sha vaqtlarda yashagan faylasuf Alisdir Machintri bu "aql-idrok muammosi" deb atadi. Muammo dunyoviy, ya‘ni diniy bo‘lmagan axloqiy axloqni va nima uchun

axloqiy bo‘lishi kerakligini anglatadi. Ya’ni xalqni faqatgina dunyiy bilimlar bilan cheklamaslik darkorligi eslatishga urinadi.

Muhokama:

Kant ta’limoti to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, u borliqni tushunchalarda aks ettiradigan narsa bu- tafakkur deya aytib o‘tadi. U kategoriyalarni faqat tafakkurning mantiqiy tushunchalarida deb hisoblaydi, har qanday universal kategoriyalar makon, zamon, sababiyat tushunchalaridan ko‘ra muhimroq aytib o‘tadi. Kant falsafasi quyidagi 4 ta rivojlanish bosqichini bosib o‘tdi:

1. Tabiiy-ilmiy bosqich bu davrda «Osmonning umumiy tabiiy tarixi va nazariyasi» (1755) asarini yozdi, bunda u o‘zining kosmogonik nazariyasini olga surdi.

2. Metafizik bosqichda u Volf nazariyasidan voq kelgan holatda, unga qarama-qarshi yo‘nalishda nazariyalarini asosladi.

3. Tanqidiy bosqich bu davrda Kant ko‘proq bilish muammolari bilan shug‘ullandi. «Sof aqlning tanqidi» (1781), «Amaliy aqlning tanqidi» (1789), «Mulohaza qobiliyatining tanqidi» (1790) asarlari shu davrda yozilgan. Kant bilish nazariyasida agnostitsizmga tayanadi. Kant bilish jarayonida «narsa o‘zida» bilan «biz uchun narsa»ni bir-biridan farq qiladi. «Narsa o‘zida»- o‘zicha mavjud bo‘lgan ob‘yektdir. «Biz uchun narsa»- ob‘yektning inson idrok qilgan qismidir. Uning fikricha, inson «narsa o‘zida» mohiyatni bilishga qodir emas, u faqat «biz uchun narsa»ni, ya’ni hodisalarni bilishi mumkin. Kant agnostitsizmi inson bilimi aniq tarixiy xarakterga ega ekanligi bilan chegaralanganligiga, inson hech vaqt hamma narsani oxirigacha bilib ololmasligiga asoslangan. Borliqning barcha qismlari bilish ob‘yekti bo‘la olmasligi ham bu yerda muhim ahamiyatga kasb etadi.

4. Tanqidiydan keyingi bosqichda Kant mantiq, pedagogika, tabiiy geografiya va pragmatik antropologiya (ya’ni xarakterologiya)ga oid ma’ruzalarini nashr ettirdi. Kant fikricha, inson tajriba va amaliyot bilan har qanday bilimga ega bo‘lavermaydi. Insonda aprior (tajribagacha) bilimlar ham bo‘ladi. Bular tug‘ma bilimlardir (masalan, matematika, falsafa). Ilmiy bilishning ishonchliligi va haqiqiyliigi uning eng

umumiyligi va zaruriyligi bilan belgilanadi. Kant o‘z falsafasida bilish nazariyasini birinchi bo‘lib falsafiy muammo sifatida atroflicha ishlab chiqishga harakat qildi.¹

Muammoning yechimi:

Kant o‘zining “ Sof aql tanqidi” nomli asarida insonga falsafiy bilimlarning mohiyatini 3 savol bilan murojaat etish orqali namoyon qiladi:

- men nimani bila olaman?
- men nima qilishim kerak?
- nimaga umid qilishim, ishonishim kerak?

Insoniyat necha yillardan buyon ushbu savollarga javob topishga harakat qilib kelgan. Bundan tashqari Kantning asarlarida jamiyat murakkab tuzilishga ega ekanligi ta’kidlanib, jamiyatni Kant doim o‘sib boruvchi organizm sifatida tavsiflab o‘tadi.

Xulosa:

Kant insonga ta’rif berganda uch muhim jihatga e’tibor qaratish lozim ekanligini ta’kidladi:

- 1.Tirik mavjudot sifatida insonda hayvoniy alomatlar borligi .
- 2.Tirik va aqlli mavjudot sifatida unda insoniylik alomatlarining borligi.

3.Aqlli mavjudot va shunday bilan birga unda fikr - mulohazalarni singdirish xususiyati mavjud bo‘lgan shaxs alomatlari borligi. Kant o‘z diqqatini inson faoliyatini, uning qobiliyatlarini, malakalarini o‘rganishga qaratdi. U doimo ongli insonlar bilan murakkab jamiyat yaratish mumkin ekanligini asarlarida ifodalab o‘tdi. Kant orzu qilgan ideal jamiyat - bu , jamiyat a’zolari o‘rtasidagi tinch - totuvlik , hamkorlik , ham jihatlikdir . Ideal jamiyatda erkinlik muhim o‘ringa ega. Siyosiy erkinlik huquqi sharti - bu , jamiyat a’zolarining qonun oldidagi tengligidir. Kant tenglik deganda mutlaq tenglikni nazardan tutmadi. Nasl - nasabga aloqador imtiyozlarni barataraf etish lozimligi haqida fikr yuritadi. Uningcha, kishilarni mutlaq tenglikda saqlashga urinish ijtimoiy adolatsizlikdan boshqa narsa emas. Barcha insonlar qonunan va ma’nan teng bo‘lishi kerakligi, sofdil jamiyat qoidalari to‘g‘risidagi ijobiy fikrlari bugungi kunda ham rivojlangan davlatlar jamiyati qurilishining asosi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Balki aynan shundayin fikrlari

sababli ham olimning ijodi hali hamon buyuk holda e'tirof etib kelinmoqda. Nima bo'lganida ham buyuk faylasuf ijodi yoshlar uchun hali hanuz beminnat xizmat qilmoqda, asos bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кант “Соч в томах 6 “- Т.3-С30
2. www.ziyounet.uz
3. Nils Gelye “ Falsafa tarixi”- Toshkent sharq,2002,413-bet
4. Асмус В,Ф. Избранные философские труды-М, 1971,Т2,С99.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Yakubova Zilola Zikirovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Universiteti o'qituvchisi

E-mail: zilolaykubva79@mail.ru

Bahromova Fotima Baxtiyorovna

TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Har bir shaxsning yetuk kadr bo'lib jamiyatda o'z o'rnini topishida Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rnini va roli juda katta. Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda olib borilayotgan tizimli ishlar, yutuqlar va kamchiliklar, tarbiyalanuvchilarga interfaol metodlar asosida ta'limiy faoliyat tashkil etish, shuningdek takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, texnologiya, metodlar, maktabgacha ta'lim tashkiloti, bolalar psixologiyasi.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract: The place and role of preschool education organizations is very big for each person to find his place in the society as a mature person. This article describes the systematic work, achievements and shortcomings of pre-school education organizations, organization of educational activities for students based on interactive methods, as well as suggestions.

Key words: interactive, technology, methods, organization of preschool education, child psychology.

Bolalar hayotidagi dastlabki bir nechtasi ularning ijtimoiy, jismoniy, intellektual, ijodiy va hissiy rivojlanishi nuqtai nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘sha yillarda aqliy va jismoniy qobiliyatlarning o‘shishi hayratlanarli darajada rivojlanadi. Aslida, odamlar uchun o‘rganishning juda katta qismi dastlabki yillarda sodir bo‘ladi. Insonning o‘rganish qobiliyati butun umri davomida davom etadi. maktabgacha yoshdagi davrda namoyon bo‘ladigan intensivlikda emas. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar yuqori sifatli shaxsiy parvarishga muhtoj bo‘lgan davrdir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti davridagi ta’lim o‘ziga xosdir, chunki bolalar o‘yinga asoslangan mashg‘ulotlar orqali samaraliroq o‘rganadilar va ko‘proq bilim oladilar. Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma’lum faoliyat bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Katta odamlar boshqa odamlar uchun kerak bo‘ladigan ijtimoiy foydali narsalar ishlab chiqarish faoliyati bilan band bo‘lsalar, bolalar faoliyatining asosiy maqsadi bilib olish, o‘rganishda asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatlari - o‘yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, applikatsiya, qurish-yasash va shu kabilardan iborat bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni bolalarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, bolalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini yuzaga chiqarish tarbiyachidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- hodimlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- bolalarga tushunarli bo‘lishi;
- bolalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;

- bolalarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;

- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarning ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Interfaol o‘rganish, shubha yo‘qki, pedagogikaning qiziqarli, ijodiy, istiqbolli yo‘nalishidir. Bu ularning psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Interaktiv texnologiyalardan foydalanish butun dunyo bo‘ylab dunyodagi bolalar haqidagi bilim va taqdimotni boyitishga imkon beradi, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar haqida bolalarni ijtimoiy munosabatlar tizimida faol munosabatda bo‘lishga undaydi. Pedagogika sohasida bir nechta o‘quv modellari farq qiladi:

- 1) Passiv - bola mashg‘ulotning "ob'ekt" sifatida ishlaydi (tinglash va tomosha qilish)
- 2) faol - bola mashg‘ulotning "mavzusi" sifatida ishlaydi (mustaqil ish, ijodiy vazifalar)
- 3) Interfaol - bola va o‘qituvchining o‘zaro ishlashi.

“FIKRIY HUJUM” METODI

Mazkur metod bolalarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta‘minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

"ZANJIR" METODI

Ushbu texnologiyaning asosi bitta vazifaga har bir ishtirokchining izchil yechimi qidirishi hisoblanadi. Umumiy maqsadning mavjudligi, va o‘zaro bir-birlariga yordam ko‘rsatish muhitini bir-birlari bilan qamrab olishga, vazifani hal qilish imkoniyatlarini taqdim etadi, bolalarda jamoada ishlash imkoniyatini shakllantiradi.

"BILIM DARAXTI" METODI

Bu bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, muzokaralar olib boorish va vazifalarni hal qilishda mas'uliyat his qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Interfaol mashg'ulotlar faol o'quv usulining navlaridan biridir. Interfaol o'quv o'zaro ta'siri nafaqat tarbiyachi va maktabgacha yoshdgi bolajonlar o'rtasida amalga oshiriladi, bu holda barcha ko'plab tinglovchilar birgalikda ishlaydi (yoki guruhlarda ishlaydilar). Interfaol o'rganish usullari har doim o'zaro ta'sir, hamkorlik, qidirish, mulqot, odamlar yoki inson va axborot muhiti o'rtasidagi o'yindir. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mashg'ulotlar interfaol texnologiyalar va o'quv usullariga asosan qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari uchun o'yin - bu asosiy faoliyat va u orqali bolaning yoshida zarur bo'lgan hamma narsani o'rgatishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol texnologiyalar muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi: kattalar va bolalar bilan bepul aloqa o'rnatish; bolalarning og'zaki nutqining barcha tarkibiy qismlarini ishlab chiqish; nutq standartlari o'quvchilari amaliy mahoratiga hissa qo'shish, dunyoning turli institutlari tomonidan o'qitilgan boshqa turli xil uslublar mavjud. Yondashuv jihatidan har xil bo'lishiga qaramay, har doim ham ushbu metodlarni o'qitishning aniq usullariga ajratish mumkin emas. Ko'p marta turli xil yondashuvlar ma'lum darajada mos kelishi mumkin, shuningdek, turli xil bolalar ehtiyojiga bog'liq. Biroq, ushbu turli xil usullarni aks ettiradigan narsa - bu bolaning ehtiyojlarini qondirish uchun muassasa tomonidan qilingan harakatdir. Ushbu usullar, shuningdek, bola uchun maktabgacha ta'lim muassasasi bilan faol aloqada bo'lish zarurligini aks ettiradi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. - Toshkent. «O'qituvchi» - 1882.
2. A.V. Petrovskiy va boshqalar. Umumiy psixologiya. - T.: «O'qituvchi». –
3. Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent –2012

MEDICAL-BIOLOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEMS PHYSICAL CULTURE AND SPORTS

Boymatov Mexrojiddin Xafizovich

Uzbek State University of

Physical Culture and Sports Master

Annotation. In this article it is considered about problems of health of athletes, arising at their diligent trainings. Also that preservation of health and maintenance of high performance of athletes possibly only when performing physical and psychoemotional activities and that good results in sport can achieve only with certain abilities.

Keywords: sports skill, massive sport, prepathological and pathological changes in an organism, organism, health.

Every year, a huge number of physically gifted young men and women reach significant peaks in sportsmanship, becoming professional athletes. The level of sports achievements in professional sports is currently so high that not every athlete with high results can become a professional.

The effectiveness of the training of highly qualified athletes and the growth of results in sports largely depend on the quality of the organization and methods of the training process, the progress of technical equipment, the timely and effective rehabilitation of athletes, the mass character of sports and the correctness of sports selection. The quality of professional selection and sports orientation is largely due to the talent of the coach-teacher, his experience and intuition. Sports orientation comes from an assessment of the capabilities of a particular person, on the basis of which the choice of the most suitable sports activity for him is made.

The problem of selection in professional sports, sports of the highest achievements is complex. Its main aspects are pedagogical, psychological and biomedical.

Medico-biological methods, as a rule, on the basis of a medical and physical education dispensary, determine the state of health of people involved in sports. At the same time, the morphological and functional features of their organism, general physical performance, coordination mechanisms of motor activity, the state and capabilities of analyzer systems are analyzed. The main task of sports medicine in this case is to study the effect of the training process on the body and ensure constant medical monitoring of people actively involved in sports.

It is known that maintaining the health and maintaining high performance of athletes is possible only when performing physical and psycho-emotional loads that correspond to their adaptive capabilities. Loads below the optimal level do not give the desired training effect, above the optimal - they become excessive and can cause various pre-pathological and pathological changes in the body from overstrain, both physical and psycho-emotional.

In general, the basis of serious sports is the constant desire to improve sportsmanship in order to achieve ever higher sports results. It's no secret that in elite sports, in professional sports, there is a concept of "victory at any cost." And the price in such a case is most often the health of the athlete. Lest it turn out to be too expensive, high athletic performance should always be the result of increased levels of physical ability and excellent health. Therefore, without a doubt, only absolutely healthy people should be engaged in professional sports, sports of the highest achievements.

Unfortunately, during medical examinations of people involved in active sports activities, they still make the diagnosis "practically healthy". This creates the prerequisites for the appearance among young men and women involved in sports of the highest achievements, persons with health problems as a result of overstrain of organs and systems due to increased physical and psycho-emotional stress.

Currently, there are few criteria for assessing the prospects of an athlete in terms of achieving high results. High results in sports can be achieved only with certain abilities, but so far no absolute scientific criteria have been identified that can be used to determine natural talent in a particular sport, scientific criteria for selecting promising athletes for professional sports, sports of the highest achievements.

The level of adaptive capabilities of an athlete can be indirectly judged by his resistance to fatigue with the help of functional tests that allow assessing the activity of the cardiovascular and nervous systems under extreme loads.

The human body in conditions of sports activities is constantly experiencing stress. Under conditions of stress (including from increased physical and psycho-emotional stress), the most important metabolic processes are significantly rebuilt: the metabolism of carbohydrates, proteins, amino acids, and others, which ultimately contributes to the adaptation of the central nervous system to activities in extreme conditions. According to this provision, the athlete's body must be considered as a dynamic system that continuously adapts to certain conditions of activity by changing the level of functioning of individual systems and the corresponding tension of regulatory mechanisms.

From the above, I would like to highlight one thing, health is above all. Yes, although they say go in for sports, for health, but do not overdo yourself. If you are not suitable for the Olympic Games due to health reasons, there is nothing wrong with that, it is already good that you are involved in mass sports. If you have reached your limit and go even further, you work on yourself, you are in the gym for hours, not for awards, not for statuses, then you are above it. There are people who cannot do this and assure you that you will not succeed, but you set a goal for yourself and prove the opposite to them, this is already a victory, a victory over yourself.

ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИЯДА ШАХС МУАММОСИ

Қўчқорова Дилноза Шербобоевна

Бабаева Камола Атахановна

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети,

Амалий психология йўналиши 3-курс талабалари

email: kamolaboboeva6@gmail.com

Аннотация: Мақолада шахс ва индивид тушунчаси, ижтимоий психологияда шахслараро муносабатлар, бу борада чет давлатлар ва республикамизда олиб борилган илмий изланишлар натижалари, шахслараро муносабатлардан келиб чиқадиган муаммоларнинг сабаблари, муаммоларнинг ички ва ташқи омиллари ҳамда ечими ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, шахснинг индивидуал-психологик хусусиятларини ўрганишда психодиагностик тестлардан ва методлардан фойдаланиш зарурияти, гуруҳ, жамоа ва оиладаги шахслараро муносабатларни ўрганиш методикаларидан бири социометрик методика ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: ижтимоий муҳит, шахс, индивид, шахслараро муносабат, моҳият, психологик ёндошув, инсоннинг рухий ҳолати, муаммо, ечим, психодиагностика, социометрик методика.

PERSONALITY PROBLEM IN SOCIAL PSYCHOLOGY

Kochkarova Dilnoza SHerboboevna

Babaeva Kamola Ataxanovna

National University of Uzbekistan

3rd year students Practical Psychology

email: kamolaboboeva6@gmail.com

Abstract: The article discusses the concept of person and individual, interpersonal relationships in social psychology, the results of scientific research in foreign countries and in our country, the causes of problems arising from interpersonal relationships, internal and external factors and solutions to problems. There is also information about the need to use psychodiagnostic tests and methods in the study of individual psychological characteristics of individual, one of the methods of studying interpersonal relationships in the group, community and family, the sociometrist method.

Keywords: Social environment, personality, individual, interpersonal relationships, essence, psychological approach, human mental state, problem solving, psychodiagnostics, sociometric methodology.

Биз турли хил жамиятда яшар эканмиз, инсонлар турли хил психологик хусусиятлар ва уларнинг мажмуига эга бўлади, шу аснода шахс деган тушунча пайдо бўлади.

Замонавий психологияда инсон омили, шахсни ўрганишнинг жуда кўплаб воситалари мавжуд. Шахс тушунчаси психологияда энг кўп қўлланадиган тушунчалар сирасига киради. Психология ўрганадиган барча ҳодисалар моҳиятан айнан шу тушунча атрофида келтириб ўтилади. Шу ўринда айтиб ўтишимиз жоизки, Психологияда **шахс** ва **индивид** тушунчаси мавжуддир. Шахс ва индивид тушунчаларини фарқлаш шахсни таҳлил қилиш учун имконият яратади. Индивид тушунчасида биологик турга мансублик, насл-насаб ҳам мужассамлашган. Шахсни ўзига хос хусусиятлари индивиддан кескин фарқланади. Баъзан шахс алоҳида индивид деб қаралади. Шунга кўра баъзи ҳолатларда иккаласи алоҳида тушунча сифатида кўрилиши ҳам мумкин. Шахснинг алоҳида сифатлари шундаки: тўлақонли ўзини англаб етган, яъни онгли, жамиятда ўз ўрнига эга бўлиш учун ҳаракат қилувчи, салоҳиятли ҳамда руҳий ҳолати етук бўлган, психологик жиҳатдан ўзини бошқара олиш хусусиятига эга инсон сифатида қаралади.

Ҳар бир индивидда руҳий ҳолатнинг ўзи бир тизим бўлиб, биологик ва физиологик жиҳатлар асосида вужудга келади. Демакки, шахс индивиддан устун бўлган ҳолатда идрок этиш ҳамда фикр юритиш (тафаккур қилиш)га эга бўлади.

Инсон руҳий олами қонуниятлари билан қизиққан ҳар қандай олим ёки тадқиқотчи ҳам шахснинг ижтимоийлашуви ва айнан жамият билан бўлган алоқаси масаласини четлаб ўтолмаган.

Шахсни ўрганиш нафақат психология, балки фалсафа, юридик, педагогика, социология, криминология, медицина ва бошқа фанлар томонидан ҳам ўрганилади. Шу боис шахс ўзини англаб етган инсон сифатида ўз муаммоларини ўзи тушуниб етиши, гуруҳлараро муносабатларда ўзига ва ўзгаларга қандай муомала қилиш кераклигини англаб етиши лозим. Шу ўринда эслатиш жоизки, ижтимоий ҳаётда шахслараро муносабатларда айрим ҳолларда низолар, ўзаро келишмовчиликлар бўлиб туриши муқаррардир. Низоларни қандай бартараф этиш ижтимоий ҳолатларда ўзига хос усулларда ёндоша олиши бу муаммоларни қай тарзда кескин тус олиши ёки олмаслигига боғлиқ. Шунинг учун баъзи олимлар низоларнинг нафақат салбий, балки ижобий томонлари ҳам бўлиши мумкинлигини эътироф этадилар. Шахс назарияси илмий тадқиқотлар асосида кўпгина олимлару мутафаккирларимиз томонидан кенг қамровли жиҳатдан ўрганилган. Хусусан, Абу Наср Фаробий, Алишер Навоий, Ибн Сино, Беруний каби юзлаб шарқ алломалари фалсафий ва ижтимоий сирларни очишга ўзларининг энг дурдона асарларини бағишлаганлар. Бу борада рус, инглиз, немис ва бошқа миллатдаги олимлар ҳам ўзига хос ёндошганлар. Шу жумладан, Карл Рэнсом Роджерснинг фикрича, шахснинг асосий хусусиятлари бу - шахснинг ҳаёт ҳақидаги ўз концепцияларидир. Бу концепция одамнинг ташқи муҳит билан муносабат жараёнида шаклланади. К. Роджерснинг назариясига кўра қуйидагилар муҳим аҳамиятга эга:

шахслараро муносабат тенгликка асосланиши;

бир киши иккинчисига тайзиқ ўтказмаслиги;

ҳар бир кишининг мавқеи ҳурмат қилиниши лозим.

Дархақиқат, ростан ҳам К.Роджерс айтганидек, ҳар бир инсон тенглик ҳуқуқига эгадир. Чунки, инсоннинг ҳақ-ҳуқуқлари, унинг кадр-қиймати паймол қилинмаслиги даркор. Негаки, инсон ўзига нисбатан бериладиган баҳога катта эътибор қаратади. Шу аснода К.Роджерснинг яна бир фикрига эътибор қаратишимиз лозимдир; - шахснинг ўзлигини ўзи ҳақидаги баҳоси ташкил қилади. Бу баҳо ташқи муҳит билан ўзаро муносабатлар жараёнида шаклланади.

Умумий психология ва психологиянинг бошқа тармоқларида ўтказилган илмий изланишлар натижасида, асосан, қандай шахсни ижобий шахс деб аташ мумкин деган саволга қисман жавоб топилган. А.В.Петровский ана шундай сифатларнинг бир ярим мингга яқинини аниқлаган, лекин ўша сифатларнинг шаклланишига замин бўладиган гуруҳлар ҳақида аниқ маълумотлар йўқ. Ижтимоий психологияда ана шу масала кичик гуруҳлар доирасида қисман ҳал қилинган. Я.Л.Коломинский ҳар бир гуруҳнинг ўз қиёфаси бўлиб, у шахс тараққиётига таъсир кўрсатади деган ғояни илгари суради. В.С.Мерлин ҳам шахслараро муносабатлар шу гуруҳ аъзоларида, шу гуруҳга хос бўлган фазилатларни тарбиялайди деб ёзган. Карл Густав Юнг психоанализ асосчиларидан бири, интроверсия ва экстраверсия, ҳамда 4 та психологик функция (фикрлаш, сезги, интуиция, ҳис қилиш) асосида психологик типлар бўйича изланишлар олиб борган. Курт Левин томонидан шахснинг гуруҳдаги ўрни, мавқеи, лидерлик феномени, оммавий тренинглари ўтказиш ғояси ўрганилган. Америкалик олимлар (У.Томмас, Ф.Знанетский, Г.Олпарт, Лаппер ва бошқалар) эса, ижтимоий установка муаммоси шахснинг аввалги ҳаётий тажрибасига, ундаги ижтимоий тасаввурларга боғлиқлигини ўрганиб, шахс ҳулқ-атворини турли шароитларда бошқарувчи механизм эканлигини исбот қилдилар. Илмий тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, ҳар бир шахсни ўрганишда кўпгина олимлар назариясида ўзига хос ёндошувни кўришимиз мумкин: улар шахснинг турли хил психологик жиҳатларини ўрганишган, ҳиссиёт, ҳолат, онг ости, онг усти, мантиқий фикрлаш, тафаккур қилиш, маълумотларни тақдим

этиш ва қарор қабул қилиш, муаммоларни ечиш каби характер ва хусусиятлар нуқтаи назардан ҳам илмий тадқиқотлар олиб боришган.

Бизга маълумки, муаммоларга инсоният яралгандан бери то ҳозирги кунга қадар юз бериши мумкин бўлган ҳодиса сифатида қаралади. Албатта бу табиийдир, бу борада ўз фикримизни келтириб ўтадиган бўлсак, халқ тили билан айтганда, биздан олдин ҳам бу муаммолар бўлган, афсуски, ҳозир ҳам бор ва бўлади. Шахс муаммоси нафақат гуруҳларда, жамоаларда, балки оилавий шароитларда, шахслараро муносабатларда, ўзаро низолар келиб чиқиши муқаррар. Жумладан, ота-она ёки фарзанд ўртасида, ака-ука ёки опа-сингиллар ўртасида, ёхуд қайнона-келин ўртасидаги низоларни келтиришимиз мумкин. Ушбу муаммоларни келиб чиқиш сабаблари ўрганилганда, асос сифатида таъкидлашимиз жоизки, психологик нуқтаи назардан бир шахс бошқа бир шахснинг ёки гуруҳнинг устидан ҳукмронлик қилиши, уларга нисбатан ўта оғир босим ўтказиши натижасида уларнинг соғлигига жиддий путур етиши кузатилади. Ушбу ҳолатлар юзасидан Америкалик олимлар томонидан бир қатор илмий тадқиқотлар олиб борилган. Эксперимент учун катта тажрибага эга раҳбар ходимлар танлаб олинган ва уларнинг устидан ҳукмронлик қилиниши натижасида уларнинг руҳий ҳолатларига ноҳўя таъсир қиладиган ҳатти-ҳаракатлар юзага келган, натижада бу тажриба охиригача олиб борилмаган. Шахслараро муносабатлардан келиб чиқадиган муаммоларнинг сабабларидан яна бири ташқи таъсирлар туфайли оилаларга кириб қолиши мумкин бўлган омиллардир. Ушбу сабаблар туфайли баъзи ҳолларда ҳаттоки ажралишлар даражасига келиб қолганларини билмай қолишади, ўз ҳаётларини ижтимоий тармоқларсиз тасаввур қила олмайдиган бўлиб қоладилар. Ушбу ижтимоий тармоқлар уларнинг ҳаётларида ижобий таъсир қилиш билан бир қаторда салбий таъсир қиляётганларини аксарият ҳолларда сезмайдилар. Интернет туфайли хусусан эр-хотин ўртасидаги баъзи можоролар ва шу сабаб бу низолар жуда катта муаммони келтириб чиқараётгани ҳеч кимга сир эмас. Шу жиҳатдан олиб қаралганда инсон ҳаётида рўй берадиган воқеа ёки ходисалардан келиб

чиқадиган айрим муаммоларнинг асосий сабабчиси бу инсоннинг ўзи. Дарҳақиқат, Яратувчи бу дунёда мавжудотлар ичида инсонни онгли қилиб яратган, шундай экан, ҳар бир инсон ўз ҳаётида келиб чиқадиган турли хил муаммолар қаршисида чорасиз эмас. Ҳар нарсанинг бир ечими бор деганларидек, муаммоларни ва уларга ечим топиш учун ҳар бир инсон маънавий ва психологик жиҳатдан ўзини тарбиялаб бориши керак. Инсон шуни англаши керакки, ҳар кимса ўзини ҳурмат қилсагина, сўнгра ўзгани ҳурмат қила олади. Бунинг учун албатта инсонлар бир-бирига нисбатан ҳурмат, ўзаро тушуниш, ширинсўз, хушмуомала бўлсаларгина барча муаммоларга ҳеч қандай қийинчиликларсиз ечим топа олиши мумкин, яъни шахслар бир бири билан мулоқот қилиш жараёнида ўзларидаги эгоизмни четга суриб қўйишлари лозим. Мақсади бевосита шахсни тарбиялаш ва шакллантириш муаммоларини ўрганиш билан боғлиқ бўлган психологияда ҳозирги вақтда психодиагностик, дидактик тестлар ва бошқа методикалардан фойдаланиш кенг йўлга қўйилган. Шахснинг индивидуал-психологик хусусиятларини ўрганиш учун психодиагностик тестлардан фойдаланиш зарур бўлади. Психологик ва дидактик тестларнинг бир-биридан фарқи шундаки, дидактик тестларда саволларнинг тўғри ва нотўғри жавоб вариантлари берилган бўлади, психологик тестларда эса саволлар чалғитувчи, аксарият ҳолларда бир-бирига мантиқан боғланмагандек берилиши, тўғри ёки нотўғри жавоб эмас, балки самимий ва норасмий жавоблар бўлиши мумкин. Шахслараро муносабатларни аниқлашга мўлжалланган методикаларга Кеттелнинг 16 омилли шахсни ўрганиш тестлари, Г.Ю.Айзенкнинг интеллукуал тестлари, Д.Векслер тестлари, ММРІ, FРІ, Дж.Ровен “Прогрессив матрицалари” тести, “Тематик апперцепция” тести (ТАТ), Люшер тести, Лири тести, “амалий интеллект”, “визуал интеллект” тести, Роршахнинг “Сиёҳ доғлари” тести, социометрия, К.Н.Томаснинг “Шахс сўровномаси”, Т.Д.Дубовицкаянинг “Ўқув мотивациясининг йўналганлигини ташхис қилиш” методикаси, Саул Розенцвейгнинг расмли ассоциациялари (фрустрация) “RF-study” методикаси, Б.Р.Қодировнинг “Қизиқишлар харитаси” методикаси,

оиланинг кинетик расми методикаси ва бошқа жуда кўплаб методикалар киради. Шунинг билан айтишимиз мумкинки, бундай тестлардан республикамиздаги кўплаб психолог тадқиқотчилар Б.Р.Қодиров, Р.И.Суннатова, Н.С.Сафаев, З.Т.Нишонова, К.Б.Қодиров, А.Расулов ва бошқалар ўз тадқиқотларида самарали фойдаланишган. Кейинги йилларда замонавий психологияда шахс ва индивидуал-психологик хусусиятлари, интеллект хусусиятлари, ривожланиш динамикасини ўрганишда ушбу методлар ҳам қўлланилмоқда. Ҳар қандай психодиагностик методика ўз-ўзидан юзага келмайди; ўзи ўрганадиган назария замида вужудга келади ва ривожланади. Ҳар бир психодиагностик методика айна вақтда ўзи боғлиқ бўлган у ёки бу назария билан бойитилган ва чегараланган бўлади. Психодиагностик методикаларни қўллаш тартиб, талаблари, қоидаларини билиш жуда ҳам муҳим. Бу тартибларга амал қилиш ишончли натижаларни олиш имкониятини берса, уларни бузиш жиддий ҳатоларга олиб келади. Оқорида келтирилган методикалардан амалиётда кенг қўлланилиб келатган социометрик метод (йўналиш) ҳақида бироз тўхталиб ўтсак. Социометрия сўзи ўлчаш, ўрганиш (социо-жамоа, метрия - ўлчаш) деган маънони англатади. Социометрик методнинг асосчиси - америкалик микросоциолог олим Джон Морендир. Ижтимоий турмушдаги кичик гуруҳ (ишлаб чиқариш, жамоа, оила) аъзолари ўртасидаги бевосита эмоционал муносабатларни ўрганиш ва уларнинг даражаларини ўлчашда қўлланилади. Бу метод ёрдамида гуруҳнинг норасмий таркиби ва ундаги психологик муҳитни ҳам аниқлаш мумкин. Мақсад: гуруҳдаги шахслараро муносабатларда симпатия яъни ёқиш ва антипатия (ёқмаслик), норасмий муносабатларни тадқиқ этишга мўлжалланган. Жамоа ёки гуруҳни ўрганиш учун гуруҳ аъзоларига савол берилади. Бу савол социометрик мезон деб аталади. Социометрик мезон гуруҳ ҳаёти учун муҳим бўлиши, гуруҳ ҳаётини акс эттириши керак. Олинган маълумотлар матрица, график, схема, жадвал шаклида ифодаланади. Улардаги микдор кўрсаткичлари гуруҳдаги кишиларнинг шахслараро муносабатлари тўғрисида тасаввур ҳосил қилади. Масалан: гуруҳдаки жипслик ёки тарқоқликни

аниқлаш, гуруҳ аъзолари орасида симпатия ва антипатияни аниқлаш, гуруҳдаги норасмий ва расмий лидерларни ва яккаланиб қолганларни аниқлаш, гуруҳ аъзоларини ўзаро муносабатларда мавқеини, яъни статусларини аниқлаш. Амалда социометрик методдан меҳнат жамоаларининг ижтимоий ривожланишини бошқаришда, тарбиявий ишларда ва ҳ.к.да кенг қўлланилиб келинмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Myers Sushant “Psychology”,2012, Хел коллежи нашриёти
2. Андреева Г.М. “Социальная психология”,2006, Учебник для вузов
3. Ғозиев Э. “Умумий психология”,Тошкент, 2011.
4. “Социальная психология” Под.ред. А.Н.Сухова, А.А. Деркача, Москва, 2001.
5. Тамотсу-Шибутани “Социальная психология”, АСТ,Феникс, 1999.
6. Шихирев П.Н. “Современная социальная психология”, Деловая книга, Институт психологии РАН, 2000.
7. Каримова В.М. “Оила психологияси”,Тошкент, 2007.
8. Qomus.info онлайн энциклопедия.
9. Умаров Б.М., Рустамова Н.Х. Шахсни ўрганишнинг психодиагностик воситалари ва унга қўйиладиган психологик талаблар. “ Замонавий таълим”, 2015, 9.

NUTQI TO‘LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARGA UNLI TOVUSHLARNI O‘RGATISH

Eshboyeva Zilola Furqatovna

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Defektologiya - Logopediya
yo‘nalishi II - kurs magistranti

Annotatsiya: To‘g‘ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to‘g‘ri va lug‘ati boy bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo‘ladi, atrof – olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o‘z tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabati to‘liq va mazmunli bo‘ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi. Ushbu maqolada nutqida kamchiligi bor bolalarga nutq tovushlarini o‘rgatish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Korreksion, Nutqiy taqlidni faollashtirish, Nutqni tushunishini rivojlantirish, "Issiq - sovuq" o‘yini.

Annotation: The right talk is an important condition for the child’s comprehensive development. The more the child is right, and the dictionary is so rich, it is so easy to express his thoughts to him, the opportunity to understand the world is expanded, the attitude of adults and his peers. It will also be full and meaningful, and its psychic development is also actively implemented.

Keywords: activation of correction, speech imitation, developing the understanding of speech, "hot - cold" game.

Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur, qudratli elning farzandlari sog‘lom bo‘lur. Istiqloq yillarining shioriga aylanib ulgurgan ushbu hikmatli ibora har bir yurtdoshimizning qon qoniga singib ketgan. Aytish joizki, o‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, umuman olganda aholi salomatligini mustahkamlash masalalariga jiddiy e‘tibor qaratib kelinmoqda.

Mamlakatimizda nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan pedagogik va tarbiyaviy ishlarga katta e'tibor berilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarini o'z vaqtida oldini olish nerv psixik kasalliklarni oldini olishdan boshlanadi. Odam nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolarining harakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining nogironlarga nisbatan olib boriladigan davlat siyosati “O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyalaniishi to'g'risida”gi Qonun (1991-yil) bilan belgilanadi. Bu qonun aholining mazkur guruhiga boshqa fuqorolar bilan teng asosda to'laqonli hayot kechirish, jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek, o'zining fuqorolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlar tizimini ko'zda tutadi.

Yozish va o'qishga o'rgatishda til tizimining birligi sifatida so'z - bola ongi uchun o'zining moddiyligi va sezuvchanligini egallaydi va uning ong predmetiga aylanadi. Yozma nutqni o'zlashtirish uchun o'z nutqini tushunish va uni o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, ushbu ikki shartlarni rivojlantirmasdan turib yozma nutq haqida gapirish ham mumkin emas. Og'zaki nutqdagi kabi, yozma nutqda ham bola birinchi marta “Vatan” degan so'zni yozganida, bu so'zda “v-a-t-a-n” harflari borligini tushunadi, ya'ni o'z tovush faoliyatini farqlaydi va tovush tuzulishining har bir elementini mustaqil talaffuz qiladi.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligini R.Ye.Levina uch daraja bilan belgilaydi: nutqiy aloqa vositalarining umuman yo'q bo'lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlik elementlariga ega bo'lgan mukammal nutq buzilishigacha.

Korreksion – tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsionalirodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakatdir. Logopedik mashg'ulot jarayonida bolaga ta'sir

ko'rsatishning asosiy vazifasi istalgan tovushning namoyin bo'lishi shaklida bolalarning taqlidiy nutqini faoliyatini hosil qilish, nutqni tushunish hajmini kengaytirishdan iborat. Bu bosqich gapirmaydigan bolalar bilan olib boriluvchi logopedik ish uchun mo'ljallangan. Bunday bolalarning faol nutqi alohida so'zlardan iborat: bolaga yaqin tanish kishilarni nomlash, tovush taqlidi, so'z qismlardan iborat (da yoki dada, bo yoki bobo, bi-bi yoki moshina va hokazolar). Gapirmaydigan bolalarda qoidaga ko'ra kattalar so'ziga taqlid qilish ehtiyoji hali bo'lmaydi. Agar nutqiy taqlid faolyati mavjud bo'lsa u holda bu jarayon 2-3 ta to'g'ri artikulyatsiyalanuvchi tovushlardan tuzilgan bo'g'in komplekslari orqali amalga oshiriladi: undosh+unli yoki aksincha unli+undosh.

Gapirmaydigan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishga umumiy tavsiyalar. Mashg'ulotni imkon qadar kichik guruhlarda (3 kishidan oshmagan) o'tkazish lozim. Yetakchi mashg'ulot shakli o'yindir. Mashg'ulotlar ayniqsa ishning dastlabki bosqishlarida noan'anaviy topshiriqlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Logopedik ta'sirda aynan bir so'z materialni ko'p marotaba takrorlash va gapirmaydigan bola bilan bevosita hissiy aloqa o'rnatish zaruriy sharoit hisoblanadi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusov, M. (2021). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/711>
2. Yunusov, M. (2021). ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1190>
3. Yunusov, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISH QOBILIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TALAFFUZINI KORREKSIYALASHDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4599>

G‘ALLA EKINZORLARIGA ZARAR YETKAZADIGAN ZARARLI XASVANING BIOLOGIYASI, TARQALISHI VA ZARARI

O‘rishaliyeva Nazokatoy Ikromjon qizi,

Adxamjonova Mushtariybonu O‘ktambek qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligining eng asosiy ozuqa ekini hisoblangan bug‘doy va uning ashaddiy zararkunandasi haqida so‘z boradi. Hozirgi kunda g‘alla ekinlariga 50 dan ortiq turli zararkunanda hasharotlar zarar yetkazayotgani aniqlangan. Shuningdek maqolada zararli xasvaning biologik xususiyatlari, yashash sharoiti, tarqalishi va zarar yetkazishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, shu asosida zararli xasvaga qarshi agrotexnik kurash chora-tadbirlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: G‘alla ekinlari, bug‘doy, zararli xasva, zararkunanda.

TO GRAIN FARMERS. BIOLOGY, DISTRIBUTION AND DAMAGE OF A HARMFUL PEST

ABSTRACT

This article talks about wheat, which is considered the main food crop of agriculture, and its worst pest. Today, more than 50 different insect pests have been found to damage grain crops. Also, the article describes the biological characteristics of harmful insects, living conditions, information on its spread and damage is given, and on the basis of this, agrotechnical control measures against harmful insects are described.

Key words: Cereal crops, wheat, harmful weed, pest.

Kirish: Yer yuzida iqlim o‘zgarishi, turli ofatlar, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi xolatlar yildan-yilga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qiyinlashtirmoqda. So‘ngi yillarda axoli sonining jadal o‘sib borayotgani esa vaziyatni yanada keskinlashtirmoqda. Shu sababli boshqoli don mahsulotlariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Yurtimizda 2022-yilda boshqoli don ekinlari yetishtirishda yuqori hosildorlikka erishish borasidagi ilmiy asoslangan ishlar olib borildi. Quyida mamlakatimizda boshqoli don ekinlarini turli zararkunanda va kasalliklardan ximoya qilish borasida olib borilayotgan ishlar haqida so‘z boradi. Hozirgi kunda eng dolzarb muammo dunyo axolisini oziq ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hisoblanadi.

Biologiyasi: Zararli xasva (*Eurygaster integriceps* Put) Qandalalar (Hemiptera) turkumi vakili hisoblanadi. Zararli hasvaning bo‘yi 10-12 mm bo‘lib, tanasining rangi sariq yoki sarg‘ish-kulrang sirti marmarsimon naqshli. Qalqonining tubida ikkita oqish dog‘i bor. Tuxumlari bochkasimon bo‘lib yashilroq rangda, kattaligi 1.0-1.1 mm keladi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar deyarli yarim yumaloq shaklda, sarg‘ish-qo‘ng‘ir tusda bo‘ladi, ammo kattalashgan sari bo‘yiga cho‘zilib, rangi biroz oqaradi. Ikkinchi yoshdan boshlab lichinkalarda sassiq xid chiqarish bezlari rivojlana boshlaydi. Beshinchi yoshni o‘tagandan so‘ng yetuk hasharotga aylanadi. Xasva qandalalarining tuxum qo‘yishi aprel oyida boshlanadi. Tuxumlarini odatda 7 donadan ikki qator qilib joylashtiradi. U tuxumlarini barg bandiga va poyaning o‘shish konusiga yaqinroq joyga qo‘yadi. Bitta urg‘ochi xasva o‘rtacha 35-40 xatto 150 tagacha tuxum qo‘yadi.

Tarqalishi: Zararli xasva g‘alla ekiladigan barcha mamlakatlarda jumladan Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina, Xitoy, AQSH, Hindiston, Kanada va boshqa davlatlardagi katta maydonlarga zarar yetkazib kelgan va kelmoqda. Internet malumotlariga ko‘ra Rossiya dunyodagi eng yirik bug‘doy eksport qiluvchi mamlakat hisoblanadi. Ukraina esa bu borada beshinchi o‘rinda turadi. Uning jahon bug‘doy eksportidagi ulushi 30% ni tashkil etadi. Hindiston kuchli qurg‘oqchilik tufayli eksportni to‘xtatganini elon qilganidan keyin narx yana 6% ga ko‘tarildi.

Zarari: Xasva voyaga yetgan va lichinkalik davrida o‘simlikning barg, poya va boshloqlari shirasini so‘rib zararlaydi. Zararlangan don burushib, to‘liq yetilmay, puch bo‘lib qoladi va hosildorlik kamayib ketadi. Zararli xasva voyaga yetgan holda asosan dala atrofidagi uvatlarda yoki o‘simliklar qoldiqlari ostida to‘planib qishlab chiqadi. Mart-aprel oylarida o‘rtacha harorat 15-20 °C ga yetganda qishlov joylaridan chiqib g‘alla maydonlariga uchib o‘ta boshlaydi, bu g‘allaning tuplanish davriga to‘g‘ri keladi. Qandalalar asosan don-dukakli o‘simliklarni zararlaydi. Zararli hasva so‘ruvchi zararkunanda hasharot bo‘lib o‘simlik rivojlanishining erta fazalarida zararlasa poya qiyshayib, barglari sarg‘ayib ketadi. Agar boshloq asosini zararlasa boshloq rivojlanishdan to‘xtab qisman yoki butunlay oqarib qoladi. O‘simliklarning xasva bilan zararlangan joyida oqish dog‘ hosil bo‘ladi. Xasva kuchli zararlangan maydonlarda hosildorlik 50 foizgacha kamayib ketishi mumkin. Zararli hasva aniqlangan maydonlarda agar, 1m² da o‘rtacha yetuk qandala 2 dona yoki yangi tuxumdan chiqqan lichinkalari o‘rtacha 7-8 donadan ko‘proq bo‘lsa kimyoviy ishlov o‘tkazish zarur bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xo‘jaev SH.T. Entomologiya, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 355 b.
2. Xo‘jaev SH.T., Sattarov N., YUsupova M., YUldashev F., Mamatov K.SH. Pestitsid va foydali hasharotlar //O‘simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda ilg‘or tajriba (maqolalar to‘plami). – Toshkent, 2008. – B. 55-57.
3. Olimjonov R.A. “Entomologiya”-Toshkent: O‘qituvchi-1977.
4. Murodov S.A. “Umumiy entomologiya kursi”.-Toshkent: “Mehnat” -1986
5. Kimsanboyev.X.X., O‘lmasbayeva R.SH., Xalilov Q.X.-“Umumiy va qishloq xo‘jalik entomologiyasi”.Toshkent: O‘qituvchi-2002.
6. Dadayev S., Saporov S. “Zoologiya”Toshkent -2010.
7. Yaxontov V.V. “O‘rta Osiyo Qishloq xo‘jaligi zararkunandalari”.Toshkent-1962.

УДК. 581.5

ЎЗБЕКИСТОН ФЛОРАСИДА ТАРҚАЛГАН *LONICERA L TURKUM* TURLARI

Олимжонова Машхура Валижон қизи

Муродов Анваржон Адихамжон ўғли

Ўзбекистон Миллий университети магистрантлари

murodov.anarjon@mail.ru


Кириш. *Lonicera L* туркуми *Caprifoliaceae* Juss. Оиласининг кенг тарқалган туркумларидан бири бўлиб, биринчи марта 1753 йилда Карл Линнейнинг “Species plantarum” [7] номли классик асарида эълон қилинган. Туркум вакиллари асосан шимолий ярим шарда жойлашган ўсимликларнинг катта гуруҳини ташкил қилади. Уларнинг кўп турлари Европа, Осиё, Америка ва Шимолий Африкада ўсади, баъзилари Жануби-Шарқий Осиёдаги тропик ўрмонларда учрайди. Туркумнинг хозирги кунда дунё миқёсида 159 та [10], Ўрта осиеда 17 та [1], Ўзбекистонда 12 та [11] та тури учрайди.

Туркум вакиллари устида хозирги кунгача кўплаб тадқиқотлар олиб борилган, хусусан уларнинг систематикаси билан машҳур Ботаник олимлар К. Линней, А.П. Декандоли ва А. Редерлар (1735) шуғулланишган. Учқатларнинг систематикасида тузатишлар ва такомиллаштиришлар совет олимлари А.И. Пояркова, Г.Н. Зайтцев (1957), Н.В. Рябова (1980) томонидан киритилган. Ўсимликнинг ботаник таснифи устида олиб борилган тадқиқотлар И.А. Коротки, А.Н. Рассчепкин, Н.М. Бочкарникова (1975), С.П. Погиба (1987), К. Келт, К. Каст (1999), Р.Н. Корешева (1987), М.Т. Мазуренко (1967), Н.Л. Мехтиева (1990), В.В. Лукиша (1990), А.М. Мушегян (1966), ўсимликнинг интродукцияси устида олиб борилган тадқиқотлар М.А. Авена (1969), Г.Н. Косолапова, С.В. Фирсова (2001), Д.Р. Костирко (1976), А.Г. Куклина (1990), А.А. Юнатов (1964) ўсимликнинг систематикаси устида олиб борилган тадқиқотлар Л.Н. Ворошилов (1992), В.С. Илин ҳамда Н.А. Илина (1989), З.И. Лучник (1966), И.А. Пояркова (1958),

Ўсимликнинг тарқалиш ареаллари устида И.К. Гидзюк (1981) ларнинг ишлари амалий аҳамиятга эга.

Тадқиқот методлари. Тадқиқотларимиз Ўзбекистон миллий гербарийси (TASH) фонди ва Ўзбекистоннинг турли ботаник-географик районларида олиб борилди. *Lonicera* L. туркуми каталоги А.Л.Тахтаджан [2] системасига мувофиқ тузилди. Туркум ва турларнинг номлари “Определитель растений Средней Азии” [1] асари ва International Plants Names Index [6] халқаро электрон маълумотлар базаси асосида, таксонларнинг муаллифлари R.K.Brummit, С.Е.Powell [5] бўйича келтирилди. Гербарий намуналари нинг географик координаталари *Google Earth* дастури ва www.loadmap.net [9] сайти бўйича аниқланди. Мавжуд гербарий намуналарининг ботаник-географик районлар бўйича таҳлилини акс эттирувчи ГАТ хариталари ArcGIS 10.6.1 дастуридан фойдаланган ҳолда таёрланди.


Натижалар ва уларнинг таҳлили. Ўзбекистон Миллий гербарийси (TASH) фондида сақланаётган *Lonicera* L. туркумининг гербарий намуналари таҳлиliga кўра 10 та турга мансуб 250 га яқин гербарий намуналари йиғилганлиги қайд этилди (1-расм).



1-расм. TASH фондида сақланаётган гербарий намуналари таҳлили

Миллий гербарий фондида сақланаётган намуналар тахлили шуни кўрсатадики *Lonicera altmannii*, *Lonicera korolkowii*, *Lonicera bracteolaris* турларининг намуналари сон жихатидан кўпчиликни ташкил этади, *Lonicera paradoxa*, *Lonicera humilis*, *Lonicera olgae* турларида эса намуналар сони камлиги билан фарқланади бунинг сабаби ушбу турларнинг тарқалиш ареали қисқа ва популяциялар сонининг камлиги билан изоҳланади.

TASH фондида сақланаётган намуналарнинг тахлили асосида *Lonicera L* туркум турларининг Ўзбекистон ботаник-географик районлари [3] бўйича тарқалиш хариталари яратилди (2-расм).



2-расм тадқиқот олиб борилган ҳудуд

Тадқиқотлар давомида флорамизда учровчи *Lonicera* турларининг Ўзбекистон ботаник-географик районларида тарқалиши, ҳаётий шакллари ва хўжаликдаги аҳамияти таҳлил қилинди. Таҳлил натижаларига кўра *Lonicera nummulariifolia*, *Lonicera microphylla* турларининг тарқалиш ареали кенг бўлиб Ўзбекистоннинг 8 та ботаник –географик районида тарқалган. *Lonicera paradoxa* тури эса тарқалиш ареали камлиги кузатилди мазкур тур Ўзбекистон республикасининг Қизил китоби [4] га киритилган (1-жадвал).

1-жадвал *Lonicera* L. туркуми турларининг Ўзбекистон БҲР тарқалиши

№	Турнинг илмий номи	Турнинг маҳаллий номи	Хаётий шакли	Тарқалган БҲР	Хўжалик аҳамияти
1	<i>Lonicera altamanii</i>	Альтман учқати	Бута	Угом-Пскем, Ғарбий-Чотқоль, Қурама, Шимолий-Туркистон, Ургут, Қашқадарё, Бойсун	Манзарали, Асалширари
2	<i>Lonicera bracteolaris</i>	Гулёнбаргчал и учқат	Бута	Шарқий-Олой, Нурота, Шимолий-Туркистон, Қашқадарё, Бойсун	Манзарали, Асалширари
3	<i>Lonicera caerulea</i>	Яши учқат	Бута	Угом-Пскем, Бойсун	Манзарали, Асалширари
4	<i>Lonicera humilis</i>	Пастак учқат	Бута	Угом-Пскем, Ғарбий-Чотқоль, Арашан	Доривор, Манзарали, Асалширари
5	<i>Lonicera korolkowii</i>	Корольков учқати	Бута	Угом-Пскем, Қурама, Жанубий Чотқол, Шарқий-Олой	Манзарали, Асалширари
6	<i>Lonicera microphylla</i>	Майдабарг учқат	Бута	Угом-Пскем, Ғарбий-Чотқоль, Қурама, Чоркесар, Шарқий-Олой, Шимолий-Туркистон	Доривор, Манзарали, Асалширари
7	<i>Lonicera nummulariifolia</i>	Тангабарг учқат	Бута	Угом-Пскем, Ғарбий - Чотқоль, Шимолий-Туркистон, Ургут, Қашқадарё, Торқапчигаи, Бойсун, Кугитанг	Доривор, Манзарали, Асалширари
8	<i>Lonicera olgae</i>	Ольга учқати	Бута	Ғарбий-Чотқоль, Шимолий-Туркистон	Манзарали, Асалширари
9	<i>Lonicera paradoxa</i>	Ғалати учқат	Бута	Шарқий-Олой, Шимолий-Туркистон	Манзарали, Асалширари
10	<i>Lonicera simulatrix</i>	Тақлидчи учқат	Бута	Шимолий-Туркистон, Мольгузар, Қашқадарё	Доривор, Манзарали, Асалширари
11	<i>Lonicera webbiana</i>	Веббен учқат	Бута	Ғарбий-Чотқоль, Арашан, Шарқий-Олой	Манзарали, Асалширари
12	<i>Lonicera zerafschanica</i>	Зарафшон учқати	Бута	Шимолий-Туркистон, Мольгузар, Қашқадарё	Манзарали, Асалширари

Хулоса. Тадқиқотлар давомида Ўзбекистон флорасида учровчи *Lonicera* L. туркум турларининг тарқалиши, хўжалик ахамияти ва ботаник-географик районлар бўйича тахлили амалга оширилди. Олинган натижалар келгусида мазкур турларнинг мониторинги ва худудуларнинг ўсимликлар кадастрини юритишда фойдаланилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Определитель растений Средней Азии: Критический конспект флоры. Т. XI: справочник. – Ташкент: Фан, 2015. – 456 с.
2. Тахтаджян А. Л. Система магнолиофитов. — Л.: Наука, 1987. — 439 с.
3. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана. Ботанический журнал Т. 101. 2016. №10. – С. 1114-1117.
4. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, I жилд: Ўсимликлар. – Тошкент: Chinor ENK, 2019. – 356 б.
5. Brummitt RK, Powell CE. 1992. Authors of plant names. Kew, Royal Botanic Gardens. – 732 p.
6. International Plant Names Index. www.ipni.org (accessed June 2020).
7. Linnaeus C. Species plantarum, exhibentes plantas ritecognitas, ad genera relatas, cum differentiis specificis, nominibus trivialibus, synonymis selectis, locis natalibus secundum systema sexuale digestas. Stockholm: L. Salvius. Holmiae, 1753. – Vol. 2. – P. 306.
8. www.floruz.uz .
9. www.loadmap.net
10. <https://powo.science.kew.org/>
11. Флора Узбекистана \\ *Caprifoliaceae* \\ Сенников А.Н., Тожибаев К.Ш., Каримов Ф.И. \ Т. 3.-2019. с. 47–96
- Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, I жилд: Ўсимликлар. – Тошкент: Chinor ENK, 2019. – 356 б.
12. Зайцев Г.Н. К вопросу о времени введения в культуру некоторых видов *Lonicera* L. - Бот. журн., 1957, т. 42, N 2, 292-293с.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURLARINING O'RNI

Qodirova Mahliyo Abdusattor qizi

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti

"Oliy Jurnalistika kurslari" yo'nalishi 1- bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda zamon talabi bo'lib kelayotgan chet tili fanlarini o'qitishda ommaviy axborot vositalarini o'zni juda ahamiyatlidir. Ahamiyatlisi internet tarmoqlarida ommalashib kelayotgan elektron darsliklar ko'payib bormoqda. Shu jumladan ingliz tili fanini o'rganishda yoshlarga ancha qulayliklar yaratilib berilyapti.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, internet saytlari, elektron darsliklar, axborot resurslari, ingliz tili.

THE ROLE OF ELECTRONIC INFORMATION LEARNING RESOURCES IN TEACHING ENGLISH

Qodirova Makhliyo Abdusattor qizi

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

In direction "Higher Journalism Courses" 1st year master's degree

ANNOTATION

The role of the media in the teaching of foreign languages, which is in demand today, is very important. Significantly, e-textbooks are gaining popularity on the Internet. In particular, many opportunities are created for young people to study English

Keywords: mass media, websites, electronic textbooks, information resources, english.

O‘zbekiston Respublikasida internet rivoji bevosita mamlakat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘lanadi. U o‘zida zamonaviy davlat va aholi turmush tarziga xos barcha bosqichlarni aks ettiradi. O‘zbekistonda Internet rivojini quyidagi asosiy davrlarga bo‘lish mumkin: 1990-yillar boshi. UUCP ma’lumotlar uzatish tizimida elektron pochta orqali ma’lumot almashish imkoni paydo bo‘ldi. Xorijiy tillarni o‘rganayotganda, Internet taqdim etgan imkoniyatlardan foydalanmaslik juda aqlsizlik bo‘lardi. Hatto 10-15 yil oldin ham filmlarni asl nusxada tomosha qilish yoki xorijiy so‘zlarni talqin qilish uchun bir tilli lug‘at topish muammo edi, ammo hozir buni qilish osonroq, Internetda yaxshi til amaliyotini ta’minlaydigan ko‘plab manbalar mavjud. Quyida Internet sizga chet tilini o‘rganishda qanday yordam berishi mumkinligi haqidagi variantlar ro‘yxati keltirilgan. Men, maqola muallifi, ingliz tiliga ixtisoslashganim sababli, manbalar ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun ko‘rsatilgan.

1) Bir tilli va ikki tilli lug‘atlar. Makmillan yoki Longman kabi bir tilli lug‘atlar alohida qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek, siz Collins veb-saytiga kirishingiz yoki boshqa onlayn lug‘atlarni qidirishingiz mumkin.

2) Siz o‘rganayotgan tilda sizni qiziqtirgan deyarli har qanday mavzu bo‘yicha materiallarning ko‘pligi bebahodir. Men hozircha hech qanday havolalar bermayman, matnlarni qiziqishlaringizga ko‘ra o‘zingiz toping. Internetda joylashtirilgan ma’lumotlarning katta qismi ingliz tilida, shuning uchun siz o‘qish uchun qiziqarli narsalarni topish qiyin bo‘lmaydi deb o‘ylayman.

3) Ta’lim resurslari mavjud. Ular bepul yoki pullik bo‘lishi mumkin. Bepullaridan men shunchaki bizning saytimizni tavsiya qilishim kerak:. Til bo‘yicha bilimingizni oshirishga imkon beradigan juda ko‘p qiziqarli materiallar. Shareware resurslari mavjud, ular, masalan, birinchi xatboshida ko‘rsatilgan saytlarning materiallarini o‘z ichiga oladi. U erda siz bir nechta darslar yoki so‘zli mini-o‘yinlarni topishingiz mumkin, ammo oxirida ular sizdan o‘z darsliklarini sotib olishingizni va kursdan 100% foydalanishingizni kutishadi. Bundan tashqari, to‘lov evaziga ingliz tilini onlayn o‘rganishni taklif qiladigan katta saytlar guruhi mavjud. Ularni topish qiyin emas,

shunchaki qidiruv tizimida ingliz tilini onlayn yozing va sizga uzun ro‘yxat taqdim etiladi.

4. Hozirgi kunda internet tezlashuvi jadallab bormoqda. Vaholanki, bu hodisa yoshlarimizni be‘etibor qoldirmayapti. Natijada Respublikamizda ta‘lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llashga doir keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta‘lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda. Malumki, ushbu yo‘nalishni amalga oshirishda eng birinchi chet tilini o‘rganishda qaratildi. Chet tilini ayniqsa ingliz tilini o‘rganishda axborot vositalarni qo‘llash undagi dasturlarni ishlab chiqarish ham talablarni amalga oshirish o‘zini natijalarini bermoqda. Albatta bularni barchasi zamonaviy dasturlar bo‘lib o‘quv jarayonida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan qulayliklar majmuasiga aytiladi. Zamonaviy o‘quv elektron nashrlarni tahlil etish ularning murakkab tuzilishga ega bo‘lib, klassifikatsiyaga muxtojligini ko‘rsatdi. Elektron o‘quv nashrlar klassifikatsiyasi asosida ham o‘quv, ham elektron hamda dasturiy vositalar klassifikatsiyalarining umumiy metodlari yotadi. Hozirgi paytda bilimlarni nazorat qilishning barcha turlarini elektron o‘quv nashrlari yordamida maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari asosida amalga oshirish mumkin. Ayniqsa, elektron o‘quv nashrlaridan joriy va oraliq nazorat tizimida foydalanishning samarasi yuqoridir. Kompyuter test dasturlari o‘rganuvchilar uchun o‘z-o‘zini nazorat vositasigina bo‘lib qolmay, joriy va oraliq nazoratning vazifasini o‘z ustiga oladi. Bunday test dasturi o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan mustaqil programma bo‘lishi yoki o‘qituvchi tomonidan to‘ldirib, modifikatsiyalandigan qoboq dastur ham bo‘lishi mumkin.. Kompyuter dasturlari yordamida arxiologik qazilmalarga, O‘quv elektron vositalari qatorida O‘quv-uslubiy majmualar muhim o‘rin tutadi. O‘UM lar nazariy material bilan birga amaliy vazifalar, testlar , ilovalar va boshqalarni saqlaydi. O‘UM lar strukturalangan mantiqan bog‘langan didaktik elamantalardan tashkil topgan raqamli va analog shakldagi multimedia kurslari sifatida

taqdim etilishi mumkin. Zamonaviy o‘quv multimedia kursi – video va audio materiallar bilan boyitilgan matnli interaktiv materialgina bo‘lmay, undagi o‘quv materiallari turli shakl va turli axborot tashuvchilarda joylashtirilishi kerak. Multimedia kurs ta‘lim oluvchiga illustrativ, ma‘lumotli, trenajerli va nazorat qiluvchi qismlari yordamida kompleks ta‘sir o‘tkazish vositasi hisoblanadi.

Elektron darslik nazariy materialni mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lib, unung gipermatnli tuzilishi individual ta‘lim traektoriyasi bilan ishlash imkoniyatini beradi. Elektron xrestomatiya – darslik mazmunini to‘ldiruvchi matnlar to‘plamidir. Xrestomatiya tarkibiga xujjatlar, badiiy asarlar va ulardan parchalar kiritilishi mumkin. Xrestomatiyaga kiritilgan matnlarning xususiyatlari yoritilgan metodik ko‘rsatmalar o‘quvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko‘rsatmalar matn bilan o‘quv materiali orasidagi bog‘lanishni amalga oshiruvchi hamda o‘quvchi-talabalarning seminar ba amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanishida yo‘naltiruvchi vosita hisoblanadi. Elektron ma‘lumotnoma foydalanuvchiga zarur vaqtda kerakli axborotni kompakt shaklda tezkor olish imkoniyatini beradi.

REFERENCES

1. Jurnalistika 10 tomlik to‘plam. O‘zbekiston nashriyoti - T.:2019
2. Bosma OAVda mediabiznesni yuritish asoslari. Toshkent: Norma. 2008
3. Albarran.A . Historical trends and patterns in media management research // Handbook of Media Management and Economics/ed.by A.Albarran, S.Chan-Olmsted M Wirth .Marwah NJ:Lawrence Erlbaum Associates,2006
4. Albarran A. Management of electronic media .Belmont :ALbany ;Wadsworth

PROFESSIONAL TA'LIMNING UMUMTA'LIM MAKTABLARI VA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Abduqodirov Nuriddin Akram o'g'li, 2-kurs magistr

Abduqodirova Shohista Abdumalik qizi, 2-kurs magistr

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Professional ta'limning umum ta'lim va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorligini rivojlantirish. Maktab o'quvchilarini oliy ta'lim muassasalariga tayyorlash.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim, umum ta'lim, oliy ta'lim, ta'lim-tarbiya, intellektual, iqtidorli, qiziqish, yuksak malakali, o'qtuvchi, o'quvchi, talaba.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston tub o'zgarishlar va islohotlar davrini boshidan kechirmoqda. O'zbekistonning ravnaqi, gullab-yashnashi uchun, avvalo, fidoyi, intellektual jihatdan rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish dolzarb masalalardan biridir. Mustaqillikning o'tgan o'ttiz yili davomida jamiyat ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy yuksalish, yangilanish sari yuz tutdi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohot natijalari xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy, milliy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analimizning saqlanishi, madaniyat, san'at, fan va ta'lim ravnaqi bilan uzviy bog'liqdir. Mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Ta'lim-tarbiyaga munosabat tubdan o'zgardi. Jamiyatda ta'lim-tarbiyani yuksaltirish davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada

amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, —... ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlar, ular to‘plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniyma’rifiy salohiyatini yanada ko‘tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan. Shu boisdan ham istiqbolimizning ilk qadamlaridan boshlab, mamlakatimizda yangi avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bunda eng muhimi, ta’lim-tarbiya tizimida sobiq tuzumdan qolgan eskicha qoliplardan tezroq voz kechish, ta’limga doir eng ilg‘or, zamonaviy, xalqimizga xos milliy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga hamohang usullarni topish va amaliyotga joriy etish, sharqda qadimdan amalda bo‘lgan prinsip ta’lim-tarbiyani bir-biridan ajratmaslik va ularning o‘zaro mutanosibligiga erishish g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sqinlik qilmoqda.

Professional ta’lim tizimini ilg’or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida:

1. 2020/2021 o’quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etilsin.

Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang’ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari ro‘yxati

Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida o’rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari ro‘yxati.

Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida oliy ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan o’rta maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta’lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta’lim muassasalari ro‘yxati.

Kasbga o‘qitish markazlarini tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimiga o‘tkaziladigan kasb-hunar kollejlari ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq;

Oliy ta’lim muassasalari quvvatlarini oshirish, istiqbolda xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarini tashkil etish uchun beriladigan kasb-hunar kollejlari ro‘yxati

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.gov.uz
2. www.infocom.uz
3. www.pedagog.uz

MILLIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA SALOHIYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MOHIYATI VA JOZIBADORLIGI

Iskandarov Sanjarbek Tursunbekovich, i.f.f.d. dotsent

Dehqonova Sevarahon Fatxitdin qizi

Agrobiznes va investition faoliyat mutaxassisligi magistranti

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

E-mail: safida23@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiyotning asosiy rivojlantiruvchi omili bo'lgan investitsiyalar salohiyatini oshirish masalalari tahlil etilgan hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, Harakatlar strategiyasi, ijtimoiy infratuzilma, investitsiya siyosati, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, bandlik, ishlab chikaruvchi kuchlar, yalpi ichki mahsulot, moliyaviy institutlar, bozor iqtisodiyoti, Xorijiy investitsiya.

Abstract: In this article, the issues of increasing the potential of investments, which are the main development factor of the economy in the conditions of digitalization of the economy, are analyzed and the issues of attracting foreign investments are studied.

Key words: investment, action strategy, social infrastructure, investment policy, expanded reproduction, employment, productive forces, gross domestic product, financial institutions, market economy, foreign investment..

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, uning samarali tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsiya faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra, investitsiya faoliyati milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim omili

hisoblanadi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan aktiv investitsiya siyosatini olib borishda iqtisodiy tarmoqlararo investitsiyalar yo‘nalishini va taqsimlanishini ekonometrik modellashtirish uslubiyotini takomillashtirish, investitsiya samaradorligi, xatarlilik va tavakkalchilik darajalarini aniqlash modellarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi¹. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, iqtisodiyotni faol rivojlantirish uchun keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb qilishni talab qiladi.

Investitsiya faoliyati asosidagi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish fan-texnika taraqqiyotining o‘shish sur‘atlari va ko‘lamiga faol ta’sir ko‘rsatadi, ishchi kuchi bandligini ta’minlashga shart-sharoit yaratadi. SHuningdek, mazkur faoliyat iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, mamlakatdagi ishlab chikaruvchi kuchlarning oqilona joylashtirilishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Jahonda pandemiya koronavirusi bilan bog‘liq iqtisodiy inqiroz hukm surayotgan hozirgi sharoitda dunyo iqtisodiyotining o‘shishi taxminan 2,5-3 foizga qisqardi. Mamlakatimizda esa yalpi ichki mahsulotning o‘shishi kuzatildi va bu o‘shish 2019 yildagiga nisbatan 2020 yilda 4,3 foizni tashkil etdi. Nufuzli halqaro moliya tashkilotlari va iqtisodiy institutlar, jumladan, Halqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiya taraqqiyot banki va dunyo miqyosidagi boshqa yetakchi moliyaviy institutlar ham e’tirof etayotgan bu kabi yutuqlar avvalo, hukumatimiz tomonidan 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan pandemiya sabab inqirozga qarshi choralar dasturi qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatda birgina 2019 yilning o‘zida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 17,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bu 2018 yildagiga nisbatan 24,8 foiz ko‘p, demakdir. SHuningdek, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 68 foizga

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-Фармонининг 1-илоvasи “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. // Lex.uz.

oshdi. eng muhimi, ularning asosiy qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi. Kelgusida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini yanada oshirish rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari bo‘lgan neft-gaz va neft-kimyo sohalarida, mashinasozlik sohasida, aviatsiya, logistika sohasida, oziq-ovqat va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida, kimyo sohasida, to‘qimachilik va yengil sanoat sohalarida, bank-moliya sektorida bugungi kunda Respublika hududida xorijiy investorlar bilan birgalikda faoliyat olib borayotgan qo‘shma korxonalarining soni 6 mingdan oshdi.

Keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish maqsadlarida xalqaro moliyaviy institutlar bilan faol hamkorlik, xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar doirasi izchil kengaytirilib borilishi ancha murakkab bo‘lgan o‘tgan yilda ham, 2022 yilda ham O‘zbekistonda iqtisodiy yuksalishni kamida 5,6 foiz darajasida belgilash va unga erishish imkoniyatini beradi. Bunday maqsadlarning asosli ekanligi eng obro‘li halqaro moliyaviy institutlar tomonidan ham qayd qilingan.

Investitsiya faoliyati har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki shu faoliyat orqali mamlakat ishlab chiqarish quvvatining yuqori darajada o‘sishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va sifatining ortishi, moddiy va ma‘naviy ehtiyoj qondirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma sohasining rivojlanishini ta‘minlash mumkin. Hozirgi zamonda investitsiya faoliyati iqtisodiy tuzilmani o‘zgartirishni amalga oshiruvchi asosiy dastak bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini zamonaviylashtirish, tabiiy resurs va hududlarni o‘zlashtirish, aholini ish bilan ta‘minlash, fan-texnikani rivojlantirish, ekologik muammolarni bartaraf etish sohasidagi muammolarni hal etishga qaratilishi kerak. Mamlakatda investitsiya siyosatini amalga oshirish va samarali boshqarish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bular eng avvalo, respublikada tadbirkorlikni himoya qiladigan qonunlar bazasi yaratilganligi, qulay geografik joylashuv, boy mineral xom-ashyo resurslari hamda katta hajmdagi sotish bozori kabi omillarni mavjudligida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Investitsiya faoliyati hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyotining milliy va jahon darajasisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Xorijiy investitsiyalardan foydalanish mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va tadbirkorlikning erkin tarmoqlariga kapitalning oqib o‘tishi tizimi bilan bevosita bog‘liq ob‘ektiv zarurat hisoblanadi. Yana shuni alohida qayd etish muhimki, investitsiya siyosiy, iqtisodiy huquqiy kafolatlangan sharoitdagina samarali natija berishi mumkin. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda davlat investitsiya jarayonining bosh tashkilotchisi bo‘lishi va uning asosiy funksiyasi bo‘lgan ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan bosh investor sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

Jahon amaliyotida investitsiya jarayonlarining bir nechta modellari mavjud. Bunday modellarning har biri ma’lum bir maqsad va sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Har bir model mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining turli bosqichlari va tashqi iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Tanlangan va amalga oshirilayotgan investitsiya modeli muayyan bir davrda iqtisodiyotning istiqboldagi rivojini ta’minlashi va samaradorligini oshirishga ko‘maklashishi, shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy maqsadlaridan kelib chiqib qo‘yilgan, bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarini hal etishi lozim. N.V. Igoshin investitsiya jarayonlarining: iqtisodiyotni to‘liq erkinlashtirish sharoitida davlat himoyasidagi proteksionistik; iqtisodiyotni to‘liq erkinlashtirish sharoitida investitsiya jarayonlari va ochiq dunyo bozori; zarur holatlarda investitsiyalarni chetdan jalb etish; investitsiya jarayonlarining rejali-taqsimot; aralash iqtisodiyot uchun investitsiya jarayonlari modellarini ko‘rsatib o‘tadi².

Iqtisodiyotni to‘liq erkinlashtirish sharoitida davlat himoyasidagi proteksionistik investitsiya jarayonlari modelidan bu jarayon iqtisodiyotni to‘liq erkinlashtirish sharoitida davlat tomonidan himoyalangan proteksionistik tartibda olib boriladi. Bunday model ichki investitsiya resurslariga ega bo‘lgan va ayni vaqtda bozor

² Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: Учебник для вузов. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – с.91–106.

munosabatlari qonun ustuvorligi asosida tartibga solingan mamalakatlarda foydalaniladi. Raqobat kurashida unga dosh bera olmagan ishlab chiqaruvchilar va investorlar mag‘lubiyatga uchraydi va jamiyatda kattagina moliyaviy mablag‘lar o‘z qo‘lida to‘planib qolgan, tor qatlamdagi «g‘oliblar» sinfi yuzaga keladi. Natijada erkin raqobat o‘z o‘rnini monopoliyaga bo‘shatib beradi. Bu esa o‘z navbatida monopollar o‘rtasida zo‘ravonlikni keltirib chiqaradi va pirovardida ularni o‘zaro kelishishga majbur qiladi. Tor qatlamdagi «g‘oliblar»ning kapitallari tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni yana ham kengaytirish hisobiga ko‘payib boradi. Natijada, o‘ta boy kishilar tor qatlami qo‘lida pul massasining katta qismi to‘planishi va aholi katta qismining to‘lov qobiliyati yo‘qolishiga olib keladi. Raqobatga dosh beraolmagan ishchi kuchining bir qismi ishlab chiqarishdan siqib chiqariladi va ishsiz bo‘lib qoladi.

Uzoq muddatli investitsiya loyihalari, asosan, yer osti boyliklarini o‘zlashtirishni, ustuvor ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash kabi sohalarni xususiy sektor korxonalarini mustaqil ravishda o‘zlari eplay olmaydi. Bunday investitsiya loyihalari davlat buyurtmasi asosida byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish hisobiga amalga oshirish mumkin. Bu esa, iqtisodiyotni erkinlashtirish emas, balki ishlab chiqarish va bozorni davlat tomonidan tartibga solishga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-Farmonining 1-ilovasi “
2. Igoshin N.V. Investitsii. Organizatsiya upravleniya i finansirovaniye: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd., pererab. i dop. –M.: YUNITI-DANA, 2001. – s.91–106.
3. S. Iskandarov investitsiya nazariyasi
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘rnitasining statistik ma’lumotlari.
5. G‘ozibekov D. G‘. Nosirov E.I. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish Risola T.: “Iqtisod Moliya”, 2007

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO'RSATISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI

Yakubova Zilola Zikirovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Universiteti o'qituvchisi

E-mail: zilolaykubva79@mail.ru

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan, farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga odilona rahbarlik qiladigan ota - onalar ijobiy o'rnak bo'ladigan kishilardir. Professional tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, oila va mahalla hamkorligida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Professionalizm, professional tarbiyachi, ijtimoiylashuvi usullari, ta'lim va tarbiya sohasi, hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

COOPERATION WITH THE FAMILY, NEIGHBORHOOD AND SCHOOL IN PROVIDING PROFESSIONAL SUPPORT FOR THE CHILD'S DEVELOPMENT AND EDUCATION IN THE ORGANIZATION

Abstract: The preschool organization needs to establish a partnership with its parent company. The content of the work with parents is diverse, and in the process of such upbringing, children who are interested in life and lead them fairly, who are accompanied by the development of labor and social activity, are the ones who emerge as parents. The role of both the family and the community in the individual upbringing of the child in partnership with the family and the community is extremely high, with the establishment of professional care facilities.

Key words: Professionalism, professional educator, methods of socialization, education and upbringing, scientific basis of cooperation.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jixatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish, chunki bularsiz tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Oila, mahalla, Maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamkorligida quyidagi tamoillarga va bosqichlarga amal qilganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi.

- Ta‘lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtrokchilari harakatlarning ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;
- hamkorlik jarayoni sub‘ektlarning teng xuquqligi va yuksak ma‘suliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat maanfatlari ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi;

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining maqsadi: bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo‘ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilarli amalga oshiruvchi ta‘lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti maktabgacha ta‘lim ustaviga muvofiq bo‘lgan zarur shart-sharoitlarni ta‘minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog‘lig‘ini mustahkamlashga doimo g‘amxo‘rlik qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta‘limi bo‘ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so‘z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkuri rivojlantiriladi. Professional tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo‘lgan va muhim bo‘lmagan tomonlarini ajratishga o‘rgatishi lozim.

Shunchaki, professionallarga o‘z sohasi bo‘yicha yuksak cho‘qqiga chiqishiga yo‘l qo‘ying, to‘sqinlik va o‘z ishini mahorat bilan bajargani uchun keraksiz tanqid qilmang!

Professional tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo‘lgan savollarga o‘z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga

yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi. Bolalarni o'z navbatida tarbiyalab boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalarni birgalikda muhokama qilishni taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;

- maktabgacha tarbiya tashkilotining yillik ish rejasi to'g'risida;

- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Professional tarbiyachi bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog'laydi.

Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida "Maktabgacha ta'lim", "Oila" va "Jamiyat" nuqtai- nazarida shakllanib boradi. Biz oilani "Davlat ichra kichik davlat"- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi. Shu sababli ota - onalar farzandning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota - onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Farzand tarbiyasini ota - onalar o'z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak.

Aslida bola tarbiyasi ota - onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas'uliyati hamda qarindosh - urug'lar oldidagi javobgarligidir. Shuning uchun ham ota - ona obro'si farzand tarbiyasida ma'naviy ozuqa bo'ladi. Bu ma'naviy ozuqa bola tarbiyasida "ufq" ni ko'zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan, farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga odilona rahbarlik qiladigan ota - onalar ijobiy o'rnak bo'ladigan kishilardir, ya'ni obro'li ota - onalardir.

Bunday odamlar o‘z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, maxallada ham, maktabgacha ta’limda ham e’tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oilalar a’zolari bo‘ladi.

Mahalladagi pedagog-tarbiyachiga 30 yoshgacha bo‘lgan, jismonan baquvvat, kamida 5 yildan kam bo‘lmagan pedagogik stajga ega bo‘lgan, sport va biznesni yaxshi tushunadigan, mahalladagi yoshlarni yoki tarbiyasi og‘ir bolalarni, voyaga yetmaganlarni o‘z orqasidan ergashtirib, ular bilan shug‘ullanadigan shaxs bo‘lishi lozim. Bu ishlarni amalga oshirishda “Mahalla” jamg‘armalari, yoshlarning “Kamolot” ijtimoiy harakati, sport qo‘mitalari o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, “Bir bolaga yetti mahalla-ota ona” degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalashda kichik Vatan bo‘lmish oila va mahallaning o‘rni beqiyosdir.

Toshkent shahrida XIX asrdan boshlab mahalla mavjud. Ularning tashkil topishi va faoliyat yuritishi bir tomondan milliy- psixologik xususiyatlari, boshqa tomondan esa aholiga yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarga g‘arq bo‘lishlariga imkon yaratish bilan bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, mahalla mikrotizim bo‘lib, unda axloqiy tamoyil va qoidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshqa turlarida ishtirok etish orqali shaxsning yanada kattaroq hamjamiyatda ijtimoiylashuvi usullari shakllanadi.

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo‘lishini ko‘zda tutadi, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham ko‘zda tutadi. Shu borada mahalla ijtimoiylashuvining unikal mexanizmi hisoblanadi. Chunki unda:

- har bir inson amal qilishi kerak bo‘lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;
- muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;
- hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi, kattalarga hurmat, bolalar haqida g‘amxo‘rlik;
- axloq va jamoatchilikning tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;
- ommaviy ong qadriyatlarini mahalladan oila va shaxsga uzaytiriladi;

- alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Bolalarni maktabga tayyorlash bosqichida Maktabgacha ta'lim tashkiloti va otalar o'zaro hamkorligi – Maktabgacha ta'lim tashkiloti «Ilk qadam» Davlat o'quv dasturining muhim yo'nalishlaridan biridir. Aksariyat otalarda bolani maktabga tayyorligi uning o'qish, yozish va sanash ko'nikmalarini shakllanganligi, xotirasi yaxshiligi bilan yakunlanadi degan noto'g'ri fikr mavjud. «Maktabga tayyorlash» tushunchasi – bu kompleks, uzoq muddatli va tizimli bog'cha va oila sharoitida bolani maktabgacha tayyorlash jarayonidir.

Maktabga tayyorlik o'z ichiga o'quv faoliyatiga oid ko'nikmalarni egallash shakllanganligi: ish bajarishda bolani qoidalar tizimiga rioya etishi, kattalarni tinglash va ularning yo'l - yo'riqlarini bajarish, namunaga qarab ishlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Aynan maktabga tayyorgarlikning shu tomonlari ko'plab otalar uchun notanish bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim bola rivojlanishining, uning shaxs sifatida madaniyati shakllanishining asosi ekanligini otalar bilishlari kerak. Maktab – bo'lajak kattalarni tayyorlash maskani emas, balki bolani o'rab turgan dunyoda yashashni o'rgatadigan, boshqalar bilan ishlash va zarur bilimlar olish maskanidir. Aksariyat otalar bolani maktabga tayyorlashga, uni bilim olishga ijobiy munosabatini shakllantirishga ongli tarzda va mas'uliyat bilan yondashishga tayyor emas, bu esa o'z navbatida bolani maktabga moslashishidagi qiyinchiliklar va bilimlarni yaxshi o'zlashtira olmasligiga sabab bo'ladi.

Bolaning maktabga tayyor emasligi sabablari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- bola diqqatini jamlay olmaydi, tez chalg'iydi, guruhning umumiy ish rejimiga qo'shila olmaydi;
- nutqi va aqliy qobiliyati kuchsiz rivojlangan bo'ladi, savol berishni, predmetlarni taqqoslashni, asosiy ajratishni bilmaydi;
- kam tashabbus ko'rsatadi, namunaga qarab harakat va xulosalarga intiladi, kattalar va o'rtoqlari bilan o'zaro munosabatlarda muammolarga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – ota-onalarni bolaning maktabga tayyorlanishida farzandini qo’llash va unga hamrox bo’lishga o’rgatishdir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari tomonidan olib boriladigan maslahatlar o’z mazmunida bolaning dunyoni ko’rgazmali-obrazli ko’rish qobiliyatlarini oshirish, bilish jarayonida modellashtirish, tasavvurni mahsuldorligi, ko’plab pedagogik ta’sirlarga senzitivligi (barqarorlik), rahm-shavqat, muruvvatga o’rgatishni saqlashi lozim.

Ota-onalar yig’ilishi va maslahatlar mavzulari xilma-xil bo’lib, ularga pedagogik va psixologik yordam ko’rsatish, masalan «Bolaning maktabda o’qishida kommunikativ tayyorligini shakllantirishda o’yinlarning ta’siri», «Birinchi sinf o’quvchilarining ota-onalari nimani bilishlari kerak?», «Maktab ta’limiga bolaning intellektual tayyorgarligi», «Bolada shaxsiy g’urur va o’zini o’zi hurmat qilishni qanday qo’llab – quvvatlash kerak?», «Turli bilishga doir mavzularda oiladagi o’yinlar» mavzularida suhbatlar olib boriladi.

Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o’z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko’rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta’lim, Oila va Jamiyatning ham birdek xissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta’lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta’limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o’yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. N.M. Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika.// Дарслик. Т.: 2014й.
2. SH.A.Sadiqova. Maktabgacha pedagogika // Дарслик. Т.: 2018 й.
3. Azizxo’jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Т.: 2003

UDK – 625.71.8.05

**ASFALTOBETON QORISHMALARINI TAYYORLASHDA
MINERAL KUKUNLARNI O‘RNI**

Urishbayev Elbek Elmurod o‘g‘li

Jizzax politexnika instituti

Yo‘l muhandisligi kafedrasida assistenti

elbek.uzb.1990@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются влияние минеральных порошков добавленные в различных количествах, на физико-механические свойства асфальтобетонных смесей в соответствии с действующими стандартами.

ABSTRACT

In this article the physical and mechanical properties of the asphalt concrete mixes according to the current standards the mineral powder added to the mixture at certain percentages and information on the results of the influence of the asphalt mix on the technical parameters.

Avtomobil yo‘llari qanchalik ravon va te-kis bo‘lsa, undagi harakat tezligi yuqori bo‘lsa va yuk tashish tan narxi shunchalik past bo‘lsa va shundagina yuk va yo‘lovchilarni manzilga tez va soz yetkazishimiz mumkin. Buning uchun avva-lom bor, avtomobil yo‘lining texnik dara-jasini va foydalanuv holatini yaxshilashimiz va yo‘lining transport-foydalanish sifatlarini oshirishimizni talab etiladi.. Mavjud sharoitdan kelib chiqib, avtomobil yo‘llari holatini talab darajasida bo‘lishligini ta‘minlash va yo‘lining transport-foydalanish sifatlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi [1].

Bugungi kunda Respublikamizda ko‘plab as-faltobeton zavodlari faoliyat ko‘rsatmoqda va bu zavodlarda mineral kukun sifatida ko‘p hollarda syement ishlatilmoqda. Bu material-ning qimmatligi va tanqisligi sababli aksa-riyat hollarda qorishma tayyorlashda mineral kukundan kam foydalanilayapti. Buning natijasida ishlab chiqarilayotgan asfaltobe-ton qorishmalarini sifati pasayib bormoqda. Ma’lumki avtomobil yo‘llarini transport-foydalanish sifatlari, ishlash muddati, mustahkamligi, qoplamalarni qurishda ishlatiladigan asfaltobetonlarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlariga va ularning ta’mirlesh usullariga bog‘liq bo‘ladi [2].

Asfaltobeton qorishmalarni tayyorlashda ishlatiladigan mineral kukunlar ohaktosh, dolomit, slanes va boshqa karbonat jinslarni maydalab, kukunga aylantirish yo‘li bilan olinadi. Mineral kukunlar tayyorlanayotgan qorishma materiallarning mayda-mayda g‘ovak-lariga kirib, organik bog‘lovchi materiallar-ning o‘zaro yaxshi birikishiga va mustahkam qorishma olishga katta yordam beradi. Shuning uchun ham mineral kukun bilan bitumning qorishmasini umumlashtirib, asfaltbog‘lovchi material deb ta’riflash mumkin. Mineral kukunning asosiy xususiyatlari va uning sifatini o‘rganish yuzasidan juda ko‘p izlanishlar olib borilgan bo‘lib, uni ishlab chiqarish texnologiyasi esa tabiiy va sun’iy tosh materiallarni maydalash texnologiyasi kabidir. Bu materiallar syement, kramika va o‘tga chidamli materiallar qatori ishlab chiqarish sanoatida keng miqyosda ishlatiladi. Mineral kukunlar ishlab chiqaruvchi korxonalar asfalt qorishmalar tayyorlash qurilmalaridan uzoq joylashganligi uchun kukun talab qilinadigan yerlarga maxsus qoplarga joylanib vagon, avtomashinalarda yuboriladi [3].

Institutining qurilish mahsulotlarini sinash ilmiy laboratoriyasida mustahkam as-faltobeton qorishmalari olishda mineral kukuni ta’siri o‘rganib chiqildi. Asfaltobetonning mineral qismini 1-jadvalda ko‘rsatilgan GOST 9128-2009 talablari bo‘yicha tanlab olindi. Tanlab olingan mineral qismiga 5 % miqdorda qovushqoq bitum qo‘shib, asfaltobe-tonning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari tajriba qilinib natijalari olindi.

1-жадвал

Б турдаги I марка-ли иссиқ асфальто-бетон	Доналар ўлчами, мм, ушбулардан майдарок:									
	20	15	10	5	2,5	1,25	0,63	0,315	0,16	0,071
	90-100	80-100	70-100	50-60	38-48	28-37	20-28	14-22	10-16	6-12
Битум микдори, %	5									

2-жадвал

Олинган намуна-ни натижалари (битум микдори 5%)	Ўрта-ча зичли-ги	Сувга тўйиниши		Сиқилишга му-стаҳкамлиги, 50 ⁰ С		Сиқилишга му-стаҳкамлиги, 20 ⁰ С		Сувга бардошлилик коэффиценти	
		ГОСТ 9128 бўйича	наму-на	ГОСТ 9128 бўйича	намуна	ГОСТ 9128 бўйича	намуна	ГОСТ 9128 бўйича	намуна
		2,06	1,5-4,0	3,8	камида 1,1	1,15	камида 2,5	2,5	камида 0,85

3-жадвал

Қўшилган минерал кукун микдори	Ўртача зичлиги	Сувга тўйиниши		Сиқилишга му-стаҳкамлиги, 50 ⁰ С		Сиқилишга му-стаҳкамлиги, 20 ⁰ С		Сувга бардошли-лик коэффиценти	
		ГОСТ 9128 бўйича	намуна	ГОСТ 9128 бўйича	намуна	ГОСТ 9128 бўйича	намуна	ГОСТ 9128 бўйича	намуна
		1,5-4,0	3,5	камида 1,1	1,2	камида 2,5	3,7	камида 0,85	0,90
2,87	1,4		3,9		0,88				
2,97	1,7		4,2		0,90				
3,54	1,6		4,0		0,91				

1-жадвалда келтирилган асфалтобетоннинг минерал қисмининг донадорлик қисмига Zomin tumani tog‘ jinsi slanesdan olingan mineral kukunidan 3%, 5%, 7% va 10% miqdorda qo‘shib tajriba o‘tkazildi. 3-жадвалда олинган натижаларнинг о‘rtachasini olib, GOST talab-lari bilan solishtirib ko‘ramiz. Demak, 2 va 3 jadvaldan ko‘rinib turibdi-ki, mineral kukun asfалтобетонning fizik-mexanik ko‘rsatkichlariga katta ta’sir ko‘rsa-tib, asfалтобетонning suvga bardoshliligi, suvga to‘yinishi, 20⁰S va 50⁰S da siqilishga mustahkamlik chegarasi mineral kukunsiz namunanikidan ancha yuqori ekanligini ko‘ri-shimiz mumkin. Bu o‘z navbatida asfалтобето-ning uzoqqa chidamliligini va yo‘lning transport foydalanish ko‘rsatkichlarini yaxshilanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ГОСТ 9128-2013 “Смеси асфальтобетонные, полимерасфальтобетон, асфальтобетон, полимерасфальтобетон для автомобильных дорог и аэродромов”
Технические условия.

2. Уришбаев Э. Э. У. МЕТОДИКА УЛУЧШЕНИЯ СВОЙСТВ ДОРОЖНОГО БИТУМА С ПРИМЕНЕНИЕМ МИНЕРАЛЬНОГО ПОРОШКА ИЗ ПРИРОДНОГО СЛАНЦА //Academy. – 2020. – №. 12 (63).

3. Olmos Z., Elbek U. MAIN PARAMETERS OF PHYSICAL PROPERTIES OF SALINE SOILS ALONG HIGHWAYS //Problems of Architecture and Construction. – 2020. – Т. 2. – №. 4. – С. 150-151.

4. Уришбаев Э. Э. Ў., Махамматов Ш. Д. Ў., Равшанов М. З. Ў. Республикамизда ишлаб чиқарилаётган боғловчи битум материалларининг хусусиятлари //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 382-388.

5. Urishbayev E. E. O. G. L. Effect of mineral powder extracted from mountain ash on asphalt concrete mixtures //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 230-235.

6. Urishbayev E. E. O. G. L. Direct effects on roads in the process of development of transport logistics in Uzbekistan //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 271-275.7. Уришбаев Э. Э. Ў. Иқлим таъсирида қопламада юзага келадиган нўқсонлар //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1178-1185.

MUHANDISLIK YO‘NALISHI TALABALARINING UMUMKASBIY TAYYORGARLIGIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

G‘ofirov Muzaffar Jumayevich, katta o‘qituvchi

Bolibekov Sunnatillo Shamsiddin o‘g‘li, talaba

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Annotatsiya: Mutaxassis nafaqat katta hajmdagi texnik bilimlarga ega bo‘lishi, texnologik jihatdan yaxshi tayyorlangan, ijodiy ishlarga qodir bo‘lishi kerak. Bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish nafaqat o‘qitishning uzluksizligi, integratsiyasi nuqtai nazaridan, balki kengroq doirada ham ko‘rib chiqilishi kerak.

Kalit so‘zlar: Muhandis, dialektika, modul, tizimli yondashuv, o‘qitish usullari, algoritmlashtirish, kasbiy faoliyat, pedagogik texnologiya, o‘quv kursi, operativ modul, modulli tizim, abstrakt bilim.

Zamonaviy ijtimoiy hayot dialektikasi muhandis tayyorlashga yangi talablarni qo‘yadi. Zamonaviy mutaxassis nafaqat katta hajmdagi texnik bilimlarga ega bo‘lishi, texnologik jihatdan yaxshi tayyorlangan, ijodiy ishlarga qodir bo‘lishi kerak. U metodologik savodli, keng madaniy dunyoqarashga, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni muvaffaqiyatli boshqarishga imkon beradigan, ijtimoiy ishlab chiqarishning yangi tizimiga mos keladigan, kasbiy bilimlari va ijodiy qobiliyatlarini to‘liq anglaydigan ijtimoiy bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish nafaqat o‘qitishning uzluksizligi, integratsiyasi nuqtai nazaridan, balki kengroq doirada ham ko‘rib chiqilishi kerak.

Muhandislik ta‘limiga tizimli yondashuv-bu obektni tizim sifatida nazariy namoyish etish va takrorlash usulidir. Tizimli yondashuv tadqiqotni obektning

yaxlitligini va uni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni ochib berishga, murakkab obektning turli xil turlarini aniqlashga va ularni yagona nazariy manzaraga keltirishga qaratadi. Tizimli yondashuv tushunchalari va tamoyillari ushbu fanlarning tarkibiy va tipologik xususiyatlarini belgilab, yangi o‘quv mavzularini yaratishga, shu bilan birga konstruktiv tadqiqot dasturlarini shakllantirishga yordam beradi. Tizimli yondashuvi nazariyalari Y.K.Babanskiy, V.V.Krayevskiy, I.Y.Lerner, M.N.Skatkin va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Muhandislik faoliyati turli xil epistemik birliklar (bilimlar) bilan bog‘liq: hisoblash usullari, diagrammalar, chizmalar, faktlar yig‘indisidir. Metodologik faoliyatli yondashuv muhandisning malakasi, ya’ni uning kasbiy faoliyatini o‘zlashtirish darajasi uning ma’lum bir epistemik birliklarga egalik qilishi bilan emas, balki ushbu birliklarni o‘zi qabul qilishi, ularning tuzilishini tushunishi va ularga tanqidiy baho bera olishi bilan ajralib turishini ta’kidlashga imkon beradi. Metodologik faoliyatli yondashuv ta’lim jarayonining mazmunini talabalarning reflektiv qobiliyatini rivojlantirish lozimligiga qaratadi, bu esa talabada umumkasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishni bashorat qilishga imkon beradi. Biz V.V.Nikitayevning: "Refleksiyasiz hech qanday obektga egalik qilish mumkin emas" degan fikriga qo‘shilamiz.

Mazmunli yondashuv umumkasbiy fanlarni o‘qitish amaliyotining metodologik yo‘nalishi sifatida o‘qitish samaradorligini belgilaydigan quyidagi pedagogik funksiyalarni amalga oshirishga imkon beradi: kasbiy faoliyat g‘oyasini shakllantirish; bo‘lajak mutaxassislar tomonidan mavzuga xos kasbiy va ijtimoiy tajribani egallash; kasbiy nazariy va amaliy fikrlashni rivojlantirish; kognitiv motivatsiyadan professionalga o‘tish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash. Mazmunli yondashuv mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatining predmeti va ijtimoiy mazmunini modellashtirishga va ushbu faoliyatga doir abstrakt bilimlarni o‘zlashtirishga asoslangan.

Zamonaviy jamiyat faol mehnat bozoriga tez moslashuvi qodir yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirish uchun samarali tizimi izlaydi, oliy ta’limda ma’lum bir

yo‘nalish doirasida mutaxassisligi o‘zgarishi, uzluksiz o‘z-o‘zini ta’lim faoliyati va kasbiy ijod uchun tayyorgarlikni talab qiladi. Bu o‘quvchining individual xususiyatlariga javob beradigan va kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan ta’lim muhitining mazmuni, usullari, vositalari, tashkiliy shakllarida sezilarli o‘zgarishlarni talab qiladi. Ta’lim va tarbiya sohasida B.S.Gershunskiy, V.A.Yermolenko, V.M.Monaxov, A.M.Novikov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Zamonaviy jamiyat faol mehnat bozoriga tez moslashuvi qodir yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirish uchun samarali tizimi izlaydi, oliy ta’limda ma’lum bir yo‘nalish doirasida mutaxassisligi o‘zgarishi, uzluksiz o‘z-o‘zini ta’lim faoliyati va kasbiy ijod uchun tayyorgarlikni talab qiladi. Bu o‘quvchining individual xususiyatlariga javob beradigan va kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan ta’lim muhitining mazmuni, usullari, vositalari, tashkiliy shakllarida sezilarli o‘zgarishlarni talab qiladi. Ta’lim va tarbiya sohasida B.S.Gershunskiy, V.A.Yermolenko, V.M.Monaxov, A.M.Novikov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Oliy muhandislik ta’limi mamlakat mintaqasidagi iqtisodiy o‘sish manbalaridan biridir.

- birinchidan, bu har bir kishining ishini yanada samarali qiladi.

- ikkinchidan, yuqori malakali kadrlar yangi ilmiy g‘oyalarni, texnik vositalarni va ishlab chiqarish va boshqarish usullarini idrok etish va ulardan amalda foydalanish qobiliyatiga ega, ya’ni ular nafaqat murakkab mehnat vositalaridan foydalangan holda samaraliroq ishlaydi, balki mavjud resurslarni yaxshiroq boshqaradi.

- uchinchidan, yangi g‘oyalarni ishlab chiqaradigan va ularni amalda amalga oshiradigan yuqori malakali muhandis xodimlarsiz fan va texnologiyalarni rivojlantirish mumkin emas.

Shunday qilib, oliy muhandislik ta’limi ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirish va ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish omillaridan biri sifatida zarur element bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda bo‘lajak muhandislarni umumkasbiy tayyorgarligi muhandis faoliyatining butun faoliyati davomida o‘zgarishi va zamonaviy muhandisga qo‘yiladigan talablarga muvofiq rivojlanadi.

Muhandislik faoliyati paydo bo‘lishi bilan va aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajratish amalga oshirildi. Shuning uchun qadim zamonlardan hozirgi kungacha muhandisning eksklyuziv vazifasi uskunalarni yaratish jarayonini intellektual qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Shu asosda maxsus muhandislik ta‘limi ushbu kasbning muhim xususiyati sifatida qaralishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak.

1. Muhandislik faoliyati ilmiy, texnik va sanoat bilimlarining kuchli integratsiyasi, ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan ilmiy ma‘lumotlarning yuqori o‘zgarishi bilan tavsiflanadi.

2. Muhandislik faoliyati muhandislik va texnologiya, texnik tizimlarni ishlab chiqish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratish, ularning ishlashi va boshqaruvi bilan chambarchas bog‘liq.

3. Muhandislik tafakkurining o‘ziga xos xususiyati muhandislik bilimlari bir vaqtning o‘zida turli xil bilim sohalarini sintez qilish vazifasini bajarishi bilan izohlanadi. Bu xususiyat bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayonining shakllanishiga ham ta‘sir qiladi.

4. Bo‘lajak muhandislarni tayyorlash tizimi ma‘lum bilimlar to‘plamini olishga emas, balki bilish usullarini o‘zlashtirishga, bu bilimlarni topishga va uni haqiqiy kasbiy vaziyatlarni simulyatsiya qiladigan vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. // – T.: 2020 y.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, TDPU, 2003.
3. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – Toshkent, Iqtisod-moliya, 2008.
4. Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzokova L., Axmedjonov M., Jalolova D. Kasb ta’limi uslubiyati. – Toshkent: Iqtisod moliya, 2006.
5. D.O.Himmataliyev, J.O.Hakimov, SH.S.Sharipova, M.F.To‘rayev, Z.Q.Murodova “ Formation of didaktik competence of students as a pedagogical problem” PSYCHOLOGY AND EDUCATION Scopus international journal № 1. 2021, yanvar.
6. M.J.G‘ofirov, “Integrated learning concept” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) № 1. 2021, yanvar.
7. M.J.G‘ofirov, “Requirements for general vocational training of engineering students” European multidisciplinary journal of modern science, Vol. 4, Published: 2022-03-08

QIYOSIY ADABIYOTNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nishonova Difuza Xomidovna

Tashkent institute of textile and light industry

E-mailnishonovadilfuza8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qiyosiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari va adabiyotshunoslikda xalqaro adabiy aloqalar va munosabatlarni, adabiy-badiiy ta’sir vositalarini, xalqaro turli milliy adabiy hodisalarning o‘xshash yoki mushtarak jihatlarini va uning ta’sirida vujudga kelgan o‘ziga xos tomonlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyot, adabiy aloqalar, uslub, tendentsiya, komparativizm, tipologik o‘xshashlik, syujet, metodologiya.

Abstract: This article analyzes the specific features of comparative literature and international literary relations and relations in literary studies, the means of literary and artistic influence, the similar or common aspects of international and national literary phenomena, and the specific aspects that have arisen under its influence.

Key words: literary studies, comparative literature, literary relations, style, trend, comparativism, typological similarity, plot, methodology.

Qiyosiy adabiyot jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar tarkibi masalalarini o‘zaro bog‘liqlikda, tarixiy – genetik tahlil usuliga tayangan holda o‘rganadi va u, asosan, dunyo adabiyotida mavjud bo‘lgan adabiy jarayonlar, turli oqimlar va maktablar, shuningdek xalqaro adabiy aloqalar va munosabatlarni, adabiy-badiiy ta’sir vositalarini, xalqaro turli milliy adabiy hodisalarning o‘xshash yoki mushtarak jihatlarini yohud mazkur mushtaraklik ta’sirida vujudga kelgan o‘ziga xos tomonlarini, badiiy tarjima muammolarini tadqiq etib, umumlashtirib, nazariy xulosalar beradi.

Qiyosiy adabiyotning tekshiruv obyekti, jahon adabiyoti yohud milliy adabiyotlarga oid ta’kidlangan masalalardan tashqari, milliy adabiyotlarning alohida

olingan yirik vakillari ijodlari yoki, (ular ijodi na'munasi bo'lgan) alohida bir asar ham bo'lishi mumkin. Hatto alohida bir adabiy janr yoki muayyan adabiy uslub, adabiy yo'nalish, yoki adabiy tur ham qiyosiy adabiyotshunoslikning tahlil obyektiga kiritilishi mumkin.

Dunyoda mavjud bo'lgan turli adabiyotlar boshdan kechirgan ijtimoiy- tarixiy jarayonlarning o'zaro o'xshashligi o'sha milliy adabiyotlarda paydo bo'lgan adabiy hodisalarning ham o'xshashligini ta'min etgan. Shuning uchun qiyosiy adabiyot milliy adabiy hodisalarni millatlarning ijtimoiy – ma'daniy taraqqiyoti fonida va ular orasidagi ma'daniy – adabiy aloqalar bilan bog'liq holda tekshiradi. Ayni shu jihatdan, ayrim hollarda, qiyosiy adabiyot “Qiyosiy tarixiy adabiyotshunoslik” deb ham yuritiladi va u jahon adabiyoti tarixi fanining tarkibiy qismi hisoblanadi (N.I. Konrad). Bundan tashqari, u xalqaro maydonda ko'proq “komparativizm”, yoki “komparativistika” deb ham ataladi. Tabiiyki, ko'plab qarashlar “Qiyosiy adabiyotshunoslik”ning fan sifatida shakllanishi tarixi qanday kechganligini bilishga undaydi.

Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikning dastlabki belgilari nemis olimlari I.G.Gerder, J.Benfey, ingliz olimi J.Denlon va rus olimi F.I.Buslayev asarlarida namoyon bo'lgan bo'lsada, uning asosiy printsiplari yevropalik X.M.Poznett va rossiyalik A.N.Veselovskiy asarlarida to'laqonli ta'rif - tavsifga ega bo'ladi. Chunonchi, qiyosiy adabiyotshunoslik, asosan, fan sifatida XIX asrda Rossiyada paydo bo'lgan bo'lib, unga, asosan, Sankt – Peterburg universiteti professori, akademik Aleksandr Nikolayevich Veselovskiy (1838) asos solgan. Veselovskiy o'zining 1870 – 1906 yillarda yaratgan “ Tarixiy poetika” degan yirik asari bilan jahon adabiyotshunosligi tarixida “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining asoschisi degan faxrli maqomga erishgan olimdir. Nemis idealistik falsafasi ta'sirida shakllangan.

A.N. Veselovskiy bu sohada o'zidan juda katta ilmiy me'ros qoldirdi. Zotan, uning qalamiga 26 jildlik kitoblar va 280 ta ilmiy maqolalar jahon qiyosiy adabiyotshunosligining asl g'oyasi, o'zak tomiri va tamal asosini tashkil etdi. Veselovskiyning ta'sirida 1914 – 1918 yillarga kelib, G'arbiy

Yevropada xalqaro adabi aloqalar va munosabatlar muammolarini o‘rganishga nisbatan katta qiziqish tug‘ildi. Natijada, fransuz olimlari F. Baldansperje, hamda Pol van Tigemlarning ilmiy faoliyati, sai – harakatlari bu ulkan mintaqada ham maxsus fan sifatida “Qiyosiy adabiyotshunoslik” ning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu ikkala fransuz olimi tashabbusi bilan 1921- yildan e’tiboran “Revue de literature compararee” (“Qiyosiy adabiyotshunoslikka oid jurnal”) deb nomlangan ilmiy nashr joriy etilib, unga ilova tarzida ko‘plab monografiyalar ham nashr etildi va bular natijasi o‘laroq G‘arbiy Yevropa komparativizmining keyingi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shdi. Keyinchalik 1939 – 45- yillarga kelib esa, AQSH adabiyotlarini qiyosiy o‘rganishning yirik markaziga aylandi. V. Fridrix, R. Uellek va boshqalar tashabbusi bilan adabiyotlarni qiyosiy o‘rganadigan yirik nufuzli ikkita ko‘p seryali “Qiyosiy adabiyot” va “Adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish” degan jurnallar tashkil etildi va ularda bu soha taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan jiddiy tadqiqotlar e’lon etila boshlandi.

1963-yildan boshlab qiyosiy adabiyotshunoslikning jugrofiyasi yana ham kengayib, endilikda bu jabhada Germaniya, Qanada, hamda Fransiya peshqadamlik qila boshladi. Shu davrlarda K. Vays boshchiligida bir qancha nemis olimlari ham yirik tadqiqotlar yaratdilar. 1966-yildan boshlab esa, bu sohadagi ishlarni ommalashtirishga ixtisoslashtirilgan va Germaniyada chop etila boshlagan “Arkadiya” jurnali adabiyotshunoslikning bu jabhasi rivojida katta rol o‘ynadi. Dunyo olimlari tashabbusi bilan 1955- yildan boshlab Xalqaro Qiyosiy Adabiyotshunoslik Assotsiatsiasi tashkil etildi va Parij uning markazi qilib belgilandi. Xuddi shuningdek, ilmning bu jabhasida venger olimlari I.Sheter, T. Klanitsam, G. Vayda kabi olimlar-ning ilmiy izlanishlari ham muayyan ahamiyat kasb etdi.

Rossiyada o‘tgan asrning 50-60- yillari qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida bu tarmoq tarixida qoladigan katta izlanishlar vujudga keldi. XX asr rus adabiyotshunoslaridan N.I.Konrad, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Propp, I.G. Neupokoyeva va boshqalar, G‘arbiy Yevropa va Amerika kompara-tivistlaridan farqli ravishda, adabiyotlar va folklorni qiyosiy o‘rganishda o‘xshashliklarni nafaqat syujet yoki motivlarning oddiy ko‘chishi sifatida, balki tipologik hodisalar sifatida

izohlaydilar. Ular yaratgan nazariy umumlashmalar asosida metodologik jihatdan yangilanish jarayoniga yuz burib, endilikda jahon qiyosiy adabiyotshunosligi o‘zining asosiy mavzu yo‘nalishi va dolzarb muammolari had – hududini mintaqaviy muammolar mundariyasi doirasida belgilash tamoilini to‘la – to‘kis qabul etdi. Lo‘nda qilib aytganda, N.I. Konrad va V.M. Jirmunskiylar qiyosiy adabiyot-shunoslik olamida xalqaro adabiy munosabatlar jarayonida “mafkuraviy import va eksport ehtiyoji muqarrarligi” qonuniyatni yaratdilar.

O‘zbek olimlaridan F.Sulaymonova, B.Sarimsoqov, K.Imomov, H.Homidiy, M.Jo‘rayev va boshqalarlarning asarlarida u yoki bu darajada qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik unsurlari uchraydi. Shuni aytish kerakki, adabiy voqea-hodisalarning o‘xshashligi, bir tomondan, xalqlarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi o‘xshashlikka, ikkinchi tomondan esa, ular o‘rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarga asoslanadi; shunga muvofiq ravishda adabiy jarayonning tipologik o‘xshashliklari hamda adabiy aloqalar va ta’sirlari farqlanadi. Qiyosiy adabiyotshunoslik turli milliy adabiyotlarni bir-biriga qiyoslab o‘rganadi, umumiy qonuniyatlarni ochadi. Adabiyotning millati bo‘lmaydi, milliy xususiyati bo‘ladi.

Xullas, qiyosiy adabiyotshunoslik ikki va undan ortiq xalq va mamlakat adabiyotini solishtirib o‘rganish orqali ular o‘rtasidagi farq va mutanosiblik, shuningdek, ulardan har birining jahon madaniyati xazinasiga qo‘shgan hissasi aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sotimov U. Qiyosiy adabiyotshunosligi haqida ayrim mulohazalar. Roman – German filologiyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik va tilshunoslikning zamonaviy muammolari Respublika ilmiy – amaliy anjumani. Urganch, “Til gulshani” to‘plami, 2010, 72- bet.
2. Аникин Г. В. История английской литературы. М.: Наука, 1975. 260 с.
3. Boboyev .T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: O‘zbekiston, 2002. 277 b.

MODERN MEASURING METHODS AND EQUIPMENTS

Yusufjonov Otabek G‘ayratjon o‘g‘li

assistant of “Applied Mechanics” department, Fergana Polytechnic Institute.

Ruzaliyev Xojiakbar Shermaxammad o‘g‘li

assistant of “Applied Mechanics” department, Fergana Polytechnic Institute.

Abstract. In order to increase the functional, useable, spatial, and aesthetic values of architectural items by valorisation—the act of quantifying and modeling them—the author tackles the subject in this article. Above all, the laser scanning method, which yields results in the form of a point cloud, enables the user to obtain a very detailed, three-dimensional computer image of the measured objects and to conduct a number of analyses and expert investigations, such as those into the technical condition (deformation of construction elements) and the spatial management of the surrounding environment, all the while the measurements are being taken and processed.

Keywords: 3D scanner, signals, measuring machines, coordinate measuring machines.

СОВРЕМЕННЫЕ ИЗМЕРИТЕЛЬНЫЕ МЕТОДЫ И ОБОРУДОВАНИЕ

Аннотация. Чтобы повысить функциональную, полезную, пространственную и эстетическую ценность архитектурных объектов путем повышения их ценности — акта их количественной оценки и моделирования — автор решает эту тему в этой статье. Прежде всего, метод лазерного сканирования, дающий результаты в виде облака точек, позволяет пользователю получить очень детальное трехмерное компьютерное изображение измеряемых объектов и провести ряд анализов и экспертных исследований, таких как в техническое состояние (деформация элементов конструкции) и пространственное управление окружающей средой, в то время как измерения проводятся и обрабатываются.

Ключевые слова: 3D-сканер, сигналы, измерительные машины, координатно-измерительные машины.

One of the most cutting-edge measurement techniques is used because a 3D scanner is used in many areas of the building industry, geodesy, and other industries. A 3D scanner-assisted measurement session produces a large number of points, allowing us to precisely represent the scanned object. Using a Leica ScanStation C10, which was employed in this work, which can register up to 500 000 points per second, this technology may provide scans very quickly that are incredibly accurate. A three-dimensional model of an object is created using a point cloud, which is an accurate representation of the scanned space and can be freely manipulated.

The results of the scanner are visually attractive and easily processed, hence the variety of their use in different spheres of life. Only in civil engineering and architecture, scanners are a universal tool useful for inventory, as well as plans and projects of buildings, preservation of historical buildings or analysis of deformations of building structures. Three-dimensional scanning can modernize and accelerate construction processes, in which it meets the expectations of the modern construction market.

Laser scanning is a cutting-edge measuring technology, which is still developing rapidly. This technology has an almost unlimited range of applications in many domains of contemporary engineering, where precision and high quality of performed work is of the utmost importance. Architecture and urban space studies are worth being distinguished among these disciplines, as they shape the space and ambient environment occupied by people, thereby having an immediate effect on their lives. Making measurements with a laser scanner is a more complex undertaking than with more traditional measurement implements, like a laser rangefinder or a measuring tape, and must adhere to a specific procedure, the aim of which is to obtain three-dimensional coordinates of buildings in their surrounding space. Accuracy, rapidness, safety and non-invasiveness are the principal advantages of this technology which appeal to

attract building engineers, who use 3D laser scanner in practice, for both historic and contemporary architecture. Using laser scanning is particularly fitted for large-scale engineering objects, where application of traditional techniques would be much more cumbersome as well as time- and labour-consuming due to the presence of some hardly accessible areas and the geometric complexity.

Coordinate measuring machine (CMM) - a device for measuring the geometric dimensions of an object.

The machine can be controlled manually by an operator or automated by a computer. Measurements of the coordinates of the surface of an object are carried out by means of a sensor (probe) mounted on the moving part of the machine.

Measuring sensors differ in principle of operation (electro-contact, inductive, optical, capacitive, piezometric, tensometric), output signal (analog, discrete), measurement method (contact, non-contact), type of measurement (scanning, trigger) and others.

The classic model of a control and measuring machine (CMM) is represented by three axes - X, Y, Z. The axes are perpendicular to each other and form a typical three-dimensional coordinate system. The operator or computer instructs the coordinate measuring machine to read data from the sensor. Next, the machine determines the X, Y, Z coordinates of each of the given points. Based on the data of these points, all further calculations are made. [1].

Works performed with the help of a control and measuring machine:

- Measurements of geometric dimensions of parts;
- Measurements of the profile of parts;
- Measurement of deviations from the technical requirements of the drawing.

The quality manager has a responsible task: to check the quality and ensure that the manufactured parts meet customer requirements, specifications and tolerances. To do this, experts mainly rely on coordinate measuring machines (CMMs), which are the most accurate and reliable metrological equipment.

Today, there are several alternatives in the metrology market that allow quality control professionals to offload CMMs and make accurate measurements in the manufacturing process directly on the shop floor - handheld 3D scanners and portable CMMs. In practice, the measurements made using these alternative solutions are insensitive to external interference and, most importantly, very accurate. [2].

In recent decades, market interest in high quality products has grown significantly. Manufacturers have to produce higher performance products to meet these expectations. To guarantee high consumer properties and product quality, it is necessary to check the quality of a larger number of parameters and do it better. Accordingly, technical control departments need more metrological equipment and, accordingly, more metrologists-operators.

The new tools in the metrology suite offer two important benefits:

1. The load on the CMM is reduced to an acceptable

This is relevant in cases where bottlenecks at the stage of control using CMM arose so often that important criteria had to be sacrificed - the representativeness of the sample and the frequency of inspections. Since adding the alternative of a handheld 3D scanner to your metrology toolbox offloads the CMM, you can return to the same quality control standards.

2. Working with 3D equipment does not require high qualifications

Portable solutions can be used by less skilled non-metrologists. This will greatly facilitate the task of QCD managers, since experienced metrology specialists are often hard to find. New employees will learn the ins and outs of the job faster, which reduces the risk associated with employee turnover, especially in large companies. Training new employees will be faster and easier. Experienced metrologists will be able to devote themselves to equipment that requires more experience, such as CMMs. [3].

Coordinate measuring machines will always be at the forefront of metrology laboratories. This is by far the best and most accurate metrological equipment. That is why it should only be used for specific, important and precise inspections such as first product geometry inspection and final inspection of parts with tight tolerances. For

such tasks, the CMM is the optimal measurement tool that cannot be replaced by another technology.

However, consideration should be given to reducing the load on CMMs by adding alternative solutions to the metrology kit - portable 3D scanners and CMMs. Since these technologies are specifically designed to eliminate external interference (they use optical components to do this), it is possible to increase the number of inspections in production areas. In addition, these gauges are easy to use and set up, and therefore accessible to less skilled workers. [4].

Finally, not only can quality control standards be restored, but more inspections can be carried out, which makes it possible to improve the process, increase productivity and obtain better quality products.

REFERENCES

1. Pereira, P. H., and R. J. Hocken. "Characterization and compensation of dynamic errors of a scanning coordinate measuring machine." *Precision Engineering* 31.1 (2007): 22-32.
2. Umetsu, Kenta, et al. "Geometric calibration of a coordinate measuring machine using a laser tracking system." *Measurement science and technology* 16.12 (2005): 2466.
3. Чапала, Олеся Викторовна. "Координатно-измерительные машины и их применение." *NovaInfo. Ru* 4.57 (2016): 82-85.
4. Джунковский, АНДРЕИ ВЛАДИМИРОВИЧ. "Повышение точности измерений и совершенствование программного обеспечения координатно-измерительных машин." *Москва* 3 (2007): 3-5.
5. Mamadjonov, A. M., & Ruzaliyev, X. S. O. G. L. (2021). SIEMENS NX 12.0 DASTURI YORDAMIDA RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN DASTGOHLAR UCHUN TEXNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASH. *Scientific progress*, 1(6), 397-401.

6. Mamadjonov, A. M., & Ruzaliyev, X. S. O. G. L. (2021). RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN DASTGOHLAR UCHUN DETALLARGA ISHLOV BERISH DASTURINI ISHLAB CHIQISH. *Scientific progress*, 2(1), 11-17.
7. Юсуфжонов, Отабек Ғайратжон Ўғли, Рўзалиев, Хожиакбар Шермахамад Ўғли, & Турғунбеков, Ахмадбек Махмудбек Ўғли (2022). ОБЗОР И АНАЛИЗ РЕГЕНИРАЦИИ АСФАЛЬТОБЕТОНА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (4), 528-540.
8. Ruzaliyev, Khojiakbar Shermakhamad Ugli (2022). ANALYSIS OF RESEARCH ON THE TREATMENT OF DETAILS ON THE INNER CYLINDRICAL SURFACE LAYER. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (4), 281-290.
9. Yusufjonov Otabek, Ro‘Zaliyev Xojiakbar, & Turgunbeqov Axmadbek (2022). EXPERIMENTAL STUDIES OF THE TECHNOLOGICAL PROCESS OF PROCESSING CONCAVE SURFACES OF COMPLEX SHAPES. *Universum: технические науки*, (5-10 (98)), 48-50.
10. Ruzaliyev, X. S. (2022). Analysis of the Methods of Covering the Working Surfaces of the Parts with Vacuum Ion-Plasmas and the Change of Surface Layers. *Eurasian Scientific Herald*, 9, 27-32.
11. Сардорбек Маъруфович Юсупов, Жасурбек Ғайратжон Ўғли Ғайратов, Асилбек Ғайратжон Ўғли Назаров, Отабек Ғайратжон Ўғли Юсуфжонов КОМПАЗИЦИОН МАТЕРИАЛЛАРНИ БОРЛАШ // *Scientific progress*. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kompazitsion-materiallarni-borlash> (дата обращения: 13.10.2022).
12. О. Ғ. Юсуфжонов, Ж. Ғ. Ғайратов ШТАМПЛАШ ЖАРАЁНИДА ИШЧИ ЮЗАЛАРНИ ЕЙИЛИШГА БАРДОШЛИЛИГИНИ ОШИРИШДА МОЙЛАШНИ АҲАМИЯТИ // *Scientific progress*. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shtamplash-zharayonida-ishchi-yuzalarni-eyilishga-bardoshliligini-oshirishda-moylashni-a-amiyati> (дата обращения: 13.10.2022).

13. Djurayev, A., & Yuldashev, K. (2020). Dynamics of the Screw Conveyor for Transportation and Cleaning of Fiber Material. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 8557-8566.
14. 12. Юсупов, С. М., Файратов, Ж. Ф. Ў., Назаров, А. Ф. Ў., & Юсуфжонов, О. Ф. Ў.(2021). КОМПАЗИЦИОН МАТЕРИАЛЛАРНИ БОРЛАШ. *Scientific progress*, 1(4).
15. Otabek G‘Ayratjon O‘G‘Li Yusufjonov SHTAMPLARNI TA‘MIRLASH USULLARI TAHLILI // *Scientific progress*. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shtamplarni-ta-mirlash-usullari-tahlili> (дата обращения: 13.10.2022).

INVESTITSIYALARNI TO‘G‘RI YO‘NALTIRISH HUDUDLAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI

Otajonova Charosxon Polvonquli qizi

“Xosiyatli qorako‘l nuri paxtachilik va g‘allachilik klaster”

MCHJ hisobchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston iqtisoiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar holati va ularning yaqin yillardagi iqtisodiy o‘shish bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Shuningdek asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning huddudlar bo‘yicha taqsimlanishi bo‘yicha tahlillar amalga oshirilgan hamda takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yalpi ichki mahsulot, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar, iqtisodiy o‘shish, moliya-kredit tizimi, makroiqtisodiy muvozanat, biznesga yo‘naltirilgan investitsiyalar, uy xo‘jaligi investitsiyalari, tovar moddiy zaxiralariga investitsiyalar.

O‘zbekiston mustaqil davlat maqomiga erishgan so‘ng mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishning turli xil xususiyatlarini hisobga olib o‘zining yo‘nalishini belgilab oldi hamda ushbu yo‘l bo‘ylab o‘zining iqtisodiy rivojida davom etmoqda.

Hozirgi kunda rivojlangan va takomillashtirilayotgan investitsion faoliyatning yo‘lga qo‘yilishida davlatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosatining natijalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda nutqlarida – “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali

mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Shu munosabat bilan 2019-yilga “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nomlaganlari³ ham bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning yaqqol natijasi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabrdagi – “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qayta tahrirdagi qonunida investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berib o‘tilgan ya‘ni: Investitsiyalar – qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlarga hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalardir”⁴ deyiladi. Shunday qilib, "Investitsiya" deyilganda kelajakda samarali natija olish yoki ijtimoiy foydaga erishish uchun qonuniy tartibda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoyadorlar yoki davlat tomonidan kiritiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushunilishi mumkin. Ushbu boyliklarning barchasi investitsiyalarni shakllantirishda muhim hisoblanib, ularning umumiy holatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazib turadi. Boyliklarning shakllanishi esa mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasini ko‘rsatib turadi va ularning natijalarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar quyidagicha xarakterlanishi mumkin:

- kapitalni ko‘paytirish uchun mablag‘larni tadbirkorlikning deyarli barcha obyektlariga jalb qilish, yo‘naltirish va kiritish hisoblanadi;

- loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsion faoliyat ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar sifatida ham ko‘rish mumkin.

G‘arb adabiyotlarida investitsiya termini haqida so‘z borganda birinchi e‘tibor fond bozorlari va birjalarga qaratiladi, chunki yetakchi rivojlangan mamlakatlarda

³ <https://president.uz/oz/lists/view/2228> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Rasmiy veb-sayti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2019.

⁴ www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun. 09.12.2014.

investitsiyalar, asosan, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bo'lib asosan shu shaklda amalga oshiriladi.


Investitsiya tushunchasiga yagona va to'liq tarif berish anchagina qiyin hisoblanadi. Iqtisodiy fanlarda va amaliy faoliyatning turli jabhalarida investitsiyalarning mazmuni hamda ularning o'ziga hos xususiyatlari mavjud deb uchragan. Iqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda yangi texnika va texnologiyalarga, binolarga shu bilan birga moddiy va nomoddiy zaxiralar hajmining ortishi uchun qilinadigan xarajatlardan tashkil topadi va umumiy xarajatlarning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Investitsiyalar - aynan aniq bir belgilangan davrda iste'mol qilinmagan va kelajakda aniq iste'mol qilinadigan iqtisodiyotdagi kapital qo'yilmalarning ko'payishini ta'minlashga ko'maklashuvchi yalpi ichki mahsulotning bir qismi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish nazariyasi va makroiqtisodiyotda esa investitsiyalar yangi kapitalni yaratish, shakllantirish hamda mavjudlarini ko'paytirish jarayoni hisoblanadi. Shuningdek investitsiyalar YaIMning oshishini ta'minlovchi asosiy komponenti hisoblanadi. Buni YaIM xarajatlar usulida hisoblash formulasi orqali ham ko'rishimiz mumkin:

$$YaIM = G + C + I + X_n$$

YaIMga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2017 yilda 26,9 %ni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi (1991 yil 18,8 %, 2000 yilda 22,9 %, 2005 yilda 19,9 %, 2010 yilda 24,6 % va 2015 yilda 24,3 %ni tashkil etgan).



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning YaIMdagi ulushi, %da⁵

Investitsiyalarni boshqarish ko‘p holatlarni inobatga olib amalga oshiriladi. O‘z navbatida, hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarishda quyidagi asosiy vazifalarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq:

- samarali investitsion faoliyatni inobatga olgan holda, hududning yuqori sur‘atli iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash;


- hududning kelajakdagi rivojlanish xususiyatlarini hisobga olib u uchun strategik investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, hayotga tadbiq etish, muvofiqlashtirish, rejalashtirish, zarur investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish;

- hudud miqiyosida byudjet daromadlarini oshirish, iqtisodiy o‘shishga erishish va natijada aholi farovonligini ko‘tarish;

- hududda investitsion faoliyat tavakkalchiligi borasida axborot berib borishdan iborat bo‘ladi.

Jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning hajmidagi ulushi bo‘yicha hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20 %i o‘zlashtirildi.

⁵ www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



2 – rasm. 2018-yil yanvar – sentyabr oylarida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida hududlarning ulushi⁶

Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ham katta hajmdagi investitsiyalar o‘zlashtirilib, Respublika bo‘yicha jami investitsiyalar hajmidagi ulushi mos ravishda 15 va 10 %ni tashkil etdi. Xorazm hamda Jizzax viloyatlarida investitsiyalarning Respublikadagi ulushi 2,8 va 3,0 %ni tashkil etgan bo‘lsa, Sirdaryoda bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng kami bo‘ldi – 2%.

Biz yuqorida investitsiya jarayonlarini boshqarishning asosiy funksiyalariga to‘xtalib o‘tib, ushbu funksiyalar turli nuqtai-nazardan tahlil qilib chiqdik. O‘z navbatida hududlar miqyosida investitsiyalarni boshqarishning funksiyalari bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadiki, har bir hududda investitsiyalarni samarali boshqaruv jarayoni ushbu hududning iqtisodiy o‘sishiga ijobiy ta’sir etadi. Demak, hududlarning investitsion faoliyatini strategik boshqaruvining muhim funksiyasi bu – hudud investitsion strategiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Hududlarning investitsion strategiyasini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, u hudud investitsiya bozori konyukturasini bashoratlashga asoslanadi va investitsiya faoliyati shartlarini amalga oshiradi. Bu jarayonni murakkabligi shundaki, bu davrda hudud investitsiya strategiyalarni shakllantirish, investitsion resurslarni izlab topish, muqobil investitsiya variantlarini baholash bilan birga amalga oshiriladi va u hudud

⁶ www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

firmalarining imidjini oshiradi va uni rivojlanishi belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday investitsion strategiya tezda o'zgarmaydi, u ushbu hududdagi firmalarning iqtisodiy o'sishining yangi imkoniyatlari va tashqi shartlarini inobatga olgan holda davriy tartibga solishlarni talab etadi. Hududda investitsion strategiyani shakllantirish shart-sharoitlari korxonalar va firmalarning iqtisodiy rivojlanishining strategik asosi bo'lib xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, hudud investitsiya strategiyasi firmalarning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan bosh omil bo'lib hisoblanadi va u investitsiyalarni samarali boshqarishga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish, boshqarish hamda hududlar kesimida to'g'ri yo'naltirish asosida quyidagi muhim yondashuvlar mavjud:

- investitsiyalarni jalb qilishda faqat ma'lum bir hududlar hamda ma'lum bir yo'nalishlar bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa hududlarga ham xorijiy investorlarni jalb qilish lozim. Jumladan investitsiyalarni Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy kabi hududlarga faqatgina to'g'kon, neft-gaz sohasiga yo'naltirmasdan turizim sohasini rivojlantirishga ya'ni turistlarni jalb qilish maqsadida Toshkent City kabi yirik lohiyalarni jalb qilish lozim.

- har bir hududda turizim sohasini rivojlantirish sohasiga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun hududning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda imtiyozlar yaratish. Ya'ni Toshkent shahridagiga nisbatan yanada qulayroq imkoniyatlar hamda imtiyozlar yaratish zarur;

- investitsion faoliyatni tanlash jarayoni sifatida ko'rib, investitsion resurslarni jalb qilish va asoslash hamda investitsiyalash mexanizmini investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida foydalanish zarur.

- investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish obyektning investitsion jozibadorligini baholash bilan amalga oshiriladi;

- turli xil tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishning usullari tanlanayotganda investitsiyalash jarayonida ishtirok etayotgan investorning manfaatlari hamda mamlakatning manfaatlarning mos kelishini inobatga olish lozim;

- hukumat tomonidan loyihalarni investitsiyalashda aholi va davlat olinadigan natijalardan manfaatdor boʻlishi shu bilan birga ijtimoiy muammolarni hisobga olish talab etiladi.

Ushbu yondashuvlar natijasida investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish konsepsiyasi haqidagi fikr va mulohazalarni umumlartirgan holda, shuni aytish lozimki har bir konseptual yondashuv mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi va uni yanada rivojlanishi uchun zamin yaratishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. N.G. Mankiw Macroeconomics 7th edition 2009 Worth Publishers pp. 62-64.
 2. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.
 3. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
- www.prezident.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Rasmiy veb-sayti.

POMIDOR ZANG KANASI VA UNGA QARSHI UYG‘UNLASHGAN KURASH TIZIMI

To‘lakova Azizaxon Sherzodbek qizi,

Erkinova Muattaroy Sherzodbek qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston ichki bozorida yuqori talab ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan oziq-ovqat maxsulotlari orasida pomidor mevasining o‘rni beqiyosdir. Ushbu talabni qondirishdagi eng dolzarb masala esa pomidor ekinidan yuqori xosil olish va uni turli zararkunadalardan ximoya qilishdir.

Kalit so‘z: Pomidor, kana, imago, lichinka, nimfa, kushanda, zararkunanda.

ABSTRACT

Among the food products with a high demand in the domestic market of Uzbekistan, the place of tomatoes is incomparable. The most urgent issue in meeting this demand is obtaining a high yield from the tomato crop and protecting it from various pests.

Key words: Tomato, mite, imago, larva, nymph, caterpillar, pest.

Kirish: Pomidor zang kanasi kanalar (Acariformes) turkumining to‘rt oyoqli kanalar (tetrophodili) to‘ng‘ich oilasiga mansub so‘ruvchi zararkunanda hisoblanadi. Pomidor zang kanasi juda mayda ,oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan bo‘g‘imoyoqli jonivor bo‘lib , nimfasi 100 Mk (mikron) , yetuk zoti esa 135-160 Mk keladi. Pomidor zang kanasi pomidor o‘simligidan tashqari kartoshka va baqlajon o‘simligining ham ashaddiy kushandasi bo‘lib, ekinlarning bargi, novdasi xatto mevasiga jiddiy zarar yetkazadi. Ushbu zararkunanda pomidor o‘simligining ochiq va yopiq turdagi ekinzorlarida uchraydi. Yuqori reproduktiv samaradorlikka ega bo‘lgan bu hasharot qulay sharoit tug‘ilsa , yil bo‘yi rivojlanadi.

Biologiyasi: Zang kanasi pomidor, kartoshka va baqlajonni kuchli zararlaydi. Pomidor zang kanasi yil davomida ham rivojlanishi mumkin . Zararlangan o‘simliklarning bargi ,shoxi va poyasi quriydi. Kana asosan issiqxonalarda qishlab chiqadi. Qulay sharoit tug‘ilsa, yil bo‘yi rivojlanadi. Ochiq maydondagi ekinlarga ko‘chat bilan o‘tadi .Bunda ochiq yerdagi ekinlardan kuzgi issiqxonalarga o‘tib rivojini davom ettiradi. Ko‘p qismi yozda qayerda rivojlangan bo‘lsa o‘sha yerda qishlab qoladi . Bunda yerning ustki qatlamida , xas-cho‘plar orasida nimfa holatida qishlaydi. Zararkunanda uchun eng maqbul sharoit – bu xavo xaroratining 27-28⁰ C, tuproqning namligi esa 30-40% bo‘lishidir. Ushbu sharoitlarda kana rivojlanishining bir bo‘g‘ini 6 kunda ado etiladi . Bitta urg‘ochi kana 50 tagacha tuxum qo‘yadi va 40 kundan ortiq yashaydi. Bir mavsumda kana 15 dan 25 tagacha bo‘g‘in berishi mumkin, shulardan 10-15 tasi iyun-avgustga o‘tadi .

Zarari: O‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha pomidor zang kanasi asosan pomidor va kartoshkada bemalol va tez rivojlanadi. Undan keying o‘rinlarni qora va qizil ituzum, qo‘ypechak va baqlajon egallaydi. Qolgan ekinlarda ekinlarda zang kana rivojlana olmasligi tasdiqlangan. Kana o‘simlik barglarining ham ustki, ham ostki tarafini bosishi mumkin. Dastlab o‘simlikning pastki barglari, novdalari zararlana boshlaydi. U asta–sekin yuqoriga tarqab ketadi. Zararlangan novda qo‘ng‘ir tusga ega bo‘lib silliqlashadi, barglarida esa sariq dog‘lar paydo bo‘lib, umumiy tusi qo‘ng‘ir bo‘la boshlaydi. Zararlangan gul va mayda meva nishonalari xamda barglari qurib to‘kilib ketadi.Yirik mevalarning yuzida to‘r singari rasm paydo bo‘lib, tirishib yoriladi. Bunday mevaning sifati va ko‘rinishi yomonlashadi, qisman chiriy boshlaydi. Qattiq zararlangan o‘simlik hosili 100 % nobud bo‘ladi. Ayniqsa iyul-avgust oylarida pomidor va kechki kartoshka ko‘p talofat ko‘radi.

Qarshi kurash usullari:Zararkunandalarga qarshi agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash choralari ilmiy asoslangan xolda olib boriladi. Agrotexnik usul yordamida zararkunandani ko‘payib ketishining oldini olish, ba’zan esa butunlay qirib tashlash mumkin. Ushbu kurash usulini muvaffaqiyatli qo‘llash yo‘li bilan zararkunandalar uchun noqulay sharoit yaratish zarur. Bunday kurash choralariga qator

oralariga ishlov berish, almashlab ekish, o‘g‘itlash va sug‘orish ishlarini vaqtida amalga oshirish kabi tadbirlar kiradi. Yaxob suvi berish bilan ham yaxshi natijalarga erishiladi. O‘simlikga mineral va organik o‘g‘itlarni to‘g‘ri tanlab, ilmiy asosda berish o‘simlikning zang kana va boshqa zararkunandalarga chidamliligini oshiradi. Kaliyli va fosforli o‘g‘itlar o‘simliklarning mexanik to‘qimalarini mustahkamlab qoplovchi to‘qimasini qalinlashtiradi. Natijada zang kanasi yoki boshqa kanalarning xartumi o‘simlik shirasini so‘rish uchun qisqalik qiladi.

Biologik usul. Zang kanasi va boshqa kanalarning tabiiy kushandarlari ko‘p bo‘lib, ular o‘z vaqtida qo‘llanilganda kanalarning sonini ma‘lum darajada cheklab turadi. Bularga xammaxo‘r entomofag - oltinko‘z, kanaxo‘r trips va boshqalar kiradi. O‘zbekiston biolaboratoriyalarida oltinko‘z ko‘paytiriladi. Oltinko‘zni zang kanasiga qarshi kurashda qo‘llash yaxshi samara beradi.

Kimyoviy kurash usuli. Pomidor ekini zang kanasi bilan yoppasiga zararlangan vaqtda ularga qarshi qiruvchi chora tadbir- kimyoviy kurash choralari olib boriladi. Zang kanasiga qarshi kurashda akaritsidlardan Nissoran 10% n.k. -gektariga 0,1 kg, neoron 50% k.e — gektariga 1 litr, oltingugurt 80 % n.k - gektariga 10 kg, oltingugurtning ohakli qaynatmasi va boshqa pestitsidlar qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Sh. Sheraliyev, B.E. Murodov . “Entomologiya va fitopatologiya” Toshkent—“Yangi nashr”—2008
2. A.Sheraliyev, “Umumiy va qishloq xo‘jaligi fitopatologiyasi” . Toshkent. “TALQIN” - 2008.
3. X.X. Kimsanboyev, B.A.Sulaymonov, A.R.Anorboyev, A.A.Rustamov, “Entomologiya va fitopatologiya” , Toshkent , “NISO POLIGRAF” – 2017
4. Arslanov M.T., Komilov K.S., Aliyev SH.K., Raximov M.M “O‘simliklarni karantin zararkunanda va kasalliklari Toshkent-2021
5. SH.T,Xo‘jayev. O‘simliklarni Zararkunandalardan “Uyg‘unlashgan Ximoya Qilishning Zamonaviy Usul va Vositalari” Toshkent-2015
6. M.T.Arslonov. A.U.Sagdullayev. Sh.K.Aliyev. O.T.Xujayev. X.Z.Ablullayeva. “O‘simliklar karantini zararkunandalari tarqalishining oldini olish.Toshkent-2016

**ВЛИЯНИЕ ОРГАНИЧЕСКИХ И АЗОТНЫХ УДОБРЕНИЙ РАЗНЫХ
НОРМ НА ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ КАРТОФЕЛЯ В
УСЛОВИЯХ СВЕТЛО-СЕРЫХ ПОЧВ**

**Кадыров Мухриддин Сайфиддин ўғли, Умурова Интизор Шухрат қизи,
Нажмиддинова Гулнора Саиджон қизи**

¹Термезский государственный университет, Магистрант кафедры Экология и
тўпроқшунослик. г. Термез, Узбекистан:

E-mail: qmuxriddin250@gmail.com

²Термезский государственный университет, студент кафедры Экология и
тўпроқшунослик

³Термезский государственный университет, студент кафедры Экология и
тўпроқшунослик

**OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLAR SHAROITIDA HAR XIL MEYORDAGI
ORGANIK VA AZOTLI O‘G‘ITLAR KARTOSHKANING EKOLOGIK
HOLATIGA TA’SIRI**

**Qodirov Muxriddin Sayfiddin o‘g‘li, Umurova Intizor Shuhrat qizi,
Najmiddinova Gulnora Saidjon qizi**

¹Termiz Davlat universiteti Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasida magistranti

²Termiz Davlat universiteti Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasida talabasi

³Termiz Davlat universiteti Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasida talabasi

**THE EFFECT OF ORGANIC AND NITROGEN FERTILIZERS OF
DIFFERENT RATE ON THE ECOLOGICAL STATUS OF POTATOES IN
LIGHT GRAY SOILS**

Qodirov Muxriddin Sayfiddin o‘g‘li, Umurova Intizor Shuhrat qizi,

Najmiddinova Gulnora Saidjon qizi

¹Master’s student of the Department of Ecology and Soil Science of Termiz State University

²Student of Department of Ecology and Soil Science of Termiz State University

³Student of Department of Ecology and Soil Science of Termiz State University

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda kartoshka yetishtirishda o‘g‘itlar meyorini qo‘llash, kartoshka hosildorligini yanada oshirish, va yuqori sifatli kartoshka yetishtirish hamda kartoshka ekologik holatiga o‘g‘itlarning ijobiy ta’sirlari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tuproq, och tusli bo‘z tuproqlar, azotli o‘g‘itlar, organik o‘g‘itlar, kartoshka hosildorligi.

Аннотация: В этой статье представлена информация о текущем применении стандартов удобрений при выращивании картофеля, дальнейшем увеличении урожайности картофеля и положительном влиянии удобрений на выращивание высококачественного картофеля

Ключевые слова: Почва, светло-серые почвы, азотные удобрения, органические удобрения, урожайность картофеля.

Annotation: This article discusses the current application of fertilizer standards in potato cultivation, further increasing potato yields, and the positive effects of fertilizers on high quality potato cultivation and potato crop.

Key words: Soil, light gray soils, nitrogen fertilizers, organic fertilizers, potato yield

Tuproq unumdorligi eng muxim va asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki qishloq xo‘jalik ekinlarining jumladan kartoshkaning hosildorligi har jixatdan tuproq unumdorligiga bogliq bo‘ladi.

Tuproq unumdorligini asosan gumus moddasi belgilaydi. Gumus miqdori qancha ko‘p bo‘lsa va uning sifati yaxshi bo‘lsa tuproq unumdorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Lekin oxirgi paytlarda gumus miqdori yildan yilga kamayib bormoqda. Bu tendensiya uzoq vaqtlardan beri davom etmoqda. Bu esa oldingi yillarga nisbatan gumus miqdorini keskin kamayib ketishiga olib keldi. Gumus miqdorini ko‘paytirishda va u orqali tuproq unumdorligini oshirishda organik o‘g‘itlarning roli biqiyosdir. Organik o‘g‘itlar nafaqat kartoshka oziqlanishi, o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’sir qiladi, balki tuproq unumdorligini xam belgilaydi. Lekin organik o‘g‘itlardan samarali foydalanish uchun ularni ilmiy jixatdan o‘rganish kerak bo‘ladi va bunda ularning qo‘llanish dozalari, muddatlari, ratsional foydalanish uchun kerakli fanlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. kartoshka o‘sishi va rivojlanishida, hosildorligini oshirishda tuproq unumdorligi, tuproq sharoitlari, oziq moddalari asosiy ko‘rsatgichlaridan biridir. Ularning hammasiga bir paytda ta’sir qiluvchi omil bo‘lib, organik o‘g‘itlar hisoblanadi.

Akademik D.N.Pryanishnikov aytishicha azotli o‘g‘itlarni ishlab chiqarish qanchalik yuqori bo‘lmasin go‘ng yani organik o‘g‘itlar qishloq xo‘jaligida asosiy o‘g‘itlardan biri sifatida o‘zining ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Bu tushunarli chunki go‘ng va boshqa organik o‘g‘itlar nafaqat oziq moddalar, manbai balki tuproqda gumus zahirasini to‘ldirib turadigan asosiy zveno hamdir. Tuproq unumdorligini oshirishda uning organik moddasini ahamiyatini F.A.Skryabin (1970) ham qayd etgan. Uning fikricha go‘ng o‘simlik uchun oziq ratsionini yaxshi balanslashtirishga yordam beradi. Organik o‘g‘itlarni qo‘llamaslik tuproqni erta yoki kech unumdorligini yo‘qotishiga olib keladi. Hozirgi paytda organik o‘g‘itlar dehqonchilikda muhim rol o‘ynaydi. Uning ahamiyati shundan iboratki, ular azot, fosfor, kaliy va boshqa oziq elementlarning manbasi hisoblanadi, gumus miqdorini oshiradi, tuproqning fizik-kimyoviy, mikrobiologik xossalarini yaxshilaydi. MDH davlatlarida o‘tkazilgan o‘zoq muddatli tadqiqot natijalarini ko‘rsatishicha (D.N.Pryanishnikov 1929; 1952; F.A.Skryabin 1939; 1953; 1976; I.G.Mamchenkov 1951; 1957; 1965; B.P.Machegin 1940; 1957; I.A.Jarikov 1947;1950 va boshqalar) intensiv dehqonchilikda tuproqda organik o‘g‘itlarni qo‘llamasdan turib defesitsiz gumus balansiga erishib bo‘lmaydi.

Bo‘z tuproqlar haqidagi ma’lumotlarni N.Teyx tomonidan 1881-yillarda Toshkent atrofida o‘tkazilgan tajribalari natijasida o‘rgandi A.Meddendorf esa 1882-yilda Farg‘ona vodiysi tuproqlarini o‘rgangan va uni A. Meddendorf sariq tuproqlar deb atagan.

Bo‘z tuproqlarni dastavval N.A.Dimo tomonidan och tuproqlar deb aytgan keyinchalik esa 1908-yillarda S.S Neustruev “bo‘z tuproqlar” deb atagan. Bo‘z tuproqlar asosan biologik xilma xilligi hamda o‘simliklarning qoplamiga ko‘ra xilma xil hisoblanadi.

Bo‘z tuproqlar morfologik belgilariga hamda tarkibi va strukturasi ko‘ra bir qancha guruhlarga bo‘linadi

- 1.och tuslu bo‘z tuproqlar
- 2.Tipik(oddiy) bo‘z tuproqlar
- 3.To‘q tusli bo‘z tuproqlar
- 4.Cho‘l zonasi tuproqlari
- 5.Taqir tuproqlar kabi turlarga bo‘linadi

Och tusli bo‘z tuproqlar

Och tusli bo‘z tuproqlar: asosan Chimkent, Mirzacho‘l, Toshkent, Qarshi hamda Surxondaryo hududlarida tarqalgan. Och tusli bo‘z tuproqlar o‘zining iqlimi reliefi hamda biologik qoplamiga ko‘ra tipik bo‘z tuproqlardan tubdan farq qiladi. Och tusli bo‘z tuproqlarning morfologik belgilari rangining ochligi hamda gumus qatlamining kamligi, va sho‘rlanishga moyilligi bilan ajralib turadi. bu tuproqlarning tarkibida oziq elementlari ham juda kam bo‘ladi azot-0,03-0,16% fosfor-0,14-0,15% bo‘lsa kaliy esa 1,65-1,90% da uchraydi. Och tusli bo‘z tuproqlar Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Sho‘rchi tumanlarida uchraydi

Och tusli bo‘z tuproqlarga kartoshka, pomidor, sabzi, bug‘doy, arpa, va turli xildagi sabzavot ekinlari ekilib hosil olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi har xil tuproq tiplarida o‘tkazilgan tadqiqotlarni ko‘rsatishicha mineral va organik o‘g‘itlarni muntazam qo‘llash gumus miqdorini oshiradi. Ushbu sharoitda defesitsiz gumus balansiga erishish uchun har bir gektar

sugʻoriladigan yerga 18 t goʻng qoʻllash kerak (D.S.Sattarov, A.E.Ergashov 1989). Och tusli boʻz tuproqlarda almashlab ekishda 32 yil mobaynida goʻng va mineral oʻgʻitlarni qoʻllash natijasiga gumus va yalpi azot miqdori ortishi kuzatiladi (D.A.Akimaliyev, V.M.Zoloyev 1975). Boʻz tusli tuproqlarda kartoshka ekilganda goʻngni qoʻllash tuproqda azot miqdorini oshiradi (T.P.Piraxunov, B.D.Ismatov, 1995)

Kartoshka tugunakli oʻsimlik boʻlib organik hamda azotli oʻgʻitlarga ancha talabchan oʻsimlik hisoblanadi kartoshka yetishtirilganda oʻzi bilan har bir tonna kartoshka hosili oʻzi bilan tuproqdan 6-6,5 kg azot, 2-2,5 kg fosfor, hamda 8-9 kg sof holatdagi fosforni olib chiqib ketadi. Shuning uchun kartoshka yetishtirish uchun unga yetarli darajadagi oʻgʻitlarning meʼyorini qoʻllash kerak boʻladi.

Och tusli boʻz tuproqlarda kartoshka yetishtirishda azotli hamda fosforli oʻgʻitlarni alohida alohida berilmaydi chunki alohida berilganda kartoshka hosildorligiga salbiy taʼsir koʻrsatiladi. Kartoshkani asosan bedapoyalardan boʻshagan yaʼni organik oʻgʻitlar koʻp toʻplangan maydonlarga eksa yana samaraliroq boʻladi.

Azotli oʻgʻitlar kartoshka ekishdan oldinroq solinadi va oʻsuv davridan (yoppasiga gullash davrigacha) qoʻshimcha oziq sifatida 50% beriladi. Fosforli oʻgʻitlar esa 60-70% kuzgi shudgorlanish ostidan solinadi qolgan qismi esa organik oʻgʻitlarga asosan goʻnga qoʻshilib har gektariga 40 - 50 kg dan beriladi. Kartoshka ekilganda tuproq iqlim sharoitiga qarab azotli oʻgʻitlar solinadi och tusli boʻz tuproqlarga kartoshka ekilganda azot gektariga 70-100 kg gacha beriladi. Azotli oʻgʻitlar ayniqsa organik oʻgʻitlar bilan aralashtirib berilganda yanada samara beradi. Kartoshka ekilganda azotli oʻgʻitlar bilan organik oʻgʻitlar aralashtirib berilganda har gektaridan 60-70 s, 30 tonnagacha goʻng solinsa 90-100 s gacha, NP esa 120 kg dan solinsa 115 s gacha hosil olish mumkin bundan tashari 15 tonna goʻng, 60 kg azot hamda 90 kg P₂O₅ solinganda 110 sentnergacha kartoshka olish mumkin.

Och tusli boʻz tuproqlarning mexanik tarkibi yengil boʻlganligi sababli kartoshka hosildorligi bir muncha yuqori boʻladi. Och tusli boʻz tuproqlarga kartoshka ekilganda 35 tonnagacha goʻng 100-110 sentner kartoshka olish mumkin, azotli oʻgʻitlar 130 kg

dan solinsa 120-125 kg gacha hosil yetishtirish mumkin bundan tashqari 20 tonna go‘ng hamda 70 kg azot 100 kg P₂O₅ solinsa 120-130 sentnergacha hosil yetishtirish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev O., Toshmatov Z., O‘zbekiston ekologiyasi bugun va ertaga. T. Fan, 1992 y.
2. Zokirov X.X “Agrokimyo” Universitet nashriyoti 1998-y
3. Ostonoqulov T.E Xamzayev A.X Ishimov C.X “Janubiy kartoshkachilik”T.2014-y
4. Namozov X.Q Turdimetov SH.M “O‘zbekiston tuproqlari va ularning ivolutsiyasi” T.2016-y
5. Zokirov X.X “Surxondaryo tabiati va ekologiyasi”
6. Murodov V Q“Organik o‘g‘itlarning o‘tloq tuproqlar unumdorligi hamda g‘o‘za oziqlanishi va hosildorligiga ta’siri” maqolasi

BIOLOGIYA FANI DARSLARIDA STANDART VA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH VA O‘QUVCHILARNING BILIM, MALAKA VA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

Abduqodirova Shohista Abdumalik qizi

2-kurs magistr

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Biologiya darslarida standart testlardan tashqari nostandart testlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish, ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish. Zoolgiya darslarida nostandart testlarning rasmi, juftlab yozish kabi turlaridan foydalanish.

Kalit so‘zlar: Biologiya, zoologiya darslari, standart test, nostandart test, bilim, malaka ,ko‘nikma, rasmi topshiriqlar, juftlab yozish, adaptiv test, integrativ test, mezonli-mo‘ljil olish testlar.

Turli fanlardan tuziladigan test savollari avvalo testlar muallifining ilmiy dunyoqarashini, bilim saviyasi darajasini va ruhiyatini o‘zida ifodalaydi. Testlar muallifining dunyoqarashi qanchalik keng va bilim saviyasi darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning tuzgan test savollari ham ilmiy jihatdan mukammal va uslubiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuning uchun testlar tuzish va ulardan uslubiy maqsadda foydalanishdan avval o‘qituvchi yetarli talab darajasida ilmiy va uslubiy ma’lumotlarga ega bo‘lishi, testlarning mohiyati, vazifasi va ahamiyatini yaxshi tushunishi lozim.

Biologiyada test topshiriqlarining yalpi joriy etishdan avval, tanlangan maqsadli guruhda sinovdan o‘tkazish, olingan natijalar va baholashniig obektivligi tahlil qilinishi lozim. Bunda olingan natijalar va testlarning maqsadga muvofiqligi test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezon bo‘yicha baholanadi. Mezon

o'rganilayotgan biologik ob'ektning xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettirib, u talabalar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko'ra:

- 1) Reproduktiv daraja;
- 2) Produktiv daraja;
- 3) Qisman-izlanish daraja;
- 4) Ijodiy (kreativ) darajada bo'lishi mumkin.

Reproduktiv darajadagi test topshiriqlari talabalar tomonidan yodda saqlangan biologik bilim, ko'nikma va malakalami tanish odatiy vaziyatda axborotlarni qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi. Bu darajada tuzilgan testlar talabalar tomonidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq baholay olishlari kerak.

Standart testlar mazmunini bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig'i savoli va to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa, nostandart testlar o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo'ljal dush testlari.

Integrativ testlar integral mazmuni shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, talabalarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabani egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi.

Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidall adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, talabani tanlashiga ko'ra aralash,

topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo‘lishi mumkin.

Buning uchun pedagog-o‘qituvchi bitta mavzu ,bob, bo‘lim kurs matni bo‘yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

Mezonli-mo‘ljall olish testlari talabalarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o‘qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta‘lim- tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Mezonli-mo‘ljall olish test sinovlari orqali talabalarning bilimlaridagi bo‘shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlanadi

Yuqorida qayd etilgan nostandart test topshiriqlarini biologiya ta‘limi jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish talabalarning o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o‘rinni egallaydi.

Biologiya darslarida standart testlar har bir mavzuni oxirida hamda nazorat ishlarida savol va 4 ta variantli testlar olinadi. Bunda o‘quvchilar olgan bilimlariga tayangan holda to‘g‘ri javoblarini belgilaydilar.

Nostandart testlardan har bir dars oxirida o‘quvchilarning bilimini oshirish, mavzuni mustahkamlash uchun turli xil ko‘rinishda olinadi. Nostandart testlardan turli xil jadvallar, rasmlar orqali , juftlab yozish kabi bir qancha turlaridan foydalaniladi.

Biologiyaning botanika bo‘limida o‘simliklarni o‘rganish uchun nostandart testlarning rasmi , jadvalga solish , juftlab yozish o‘simliklarni sistemaga solish kabi turlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, mustahkamlash mumkin.

Biologiyaning hayvonlarga bag‘shlangan zoologiya bo‘limida rasmlar orqali hayvonlarning qismlarini o‘rganish, juftlab yozish kabi nostandart testlaridan foydalanib dars o‘tish orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini, hayvonlarga mexrini oshirishga yordam beradi.

O‘quvchilarning ushbu, o‘quv maqsadiga erishganlik darajasini aniqlash, nazorat qilish va baholashda ular tomonidan o‘quv materialidagi flkrlami umumlashtirish, asosiy g‘oyani qayta ishlash, misollar keltirish, o‘z fikrini bayon etish va uni himoya qilish talab etiladi. Yuqorida qayd etilganidek, ushbu darajalarni standart o‘quv va test topshiriqlari vositasida aniqlab bo‘lmaydi, ularni faqat ko‘p javobli nostandart test topshiriqlari yordamida aniqlash tavsiya etiladi.

O‘quvchilarning Blum taksonomiyasi bo‘yicha bilimlami amalda qo‘llash o‘quv maqsadiga erishiiganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari ichida nazariy a va amaliyot birligi muhim o‘rin tutadi, shuni hisobga olgan holda o‘quv maqsadlaridan talabalaming o‘ziashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash imkoniyatini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

J.Tolipova. MJ.Maxmudova, E.A.Soliyev. BIOLOGIYADAN
NOSTANDARTTESTLAR (2-qism)uslubiy ko‘rsatma NAMANGAN-2018

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI

Salixova Zulfizar Muzaffar qiz

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasining magistranti

Innovatsion motivlar pedagogning bilimlar tizimini boyitish, kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni tizimli amalga oshirish orqali o‘z faoliyatini takomillashtirish ehtiyojida namoyon bo‘ladi. Innovatsion malakalarga gnostik malakalar, pedagogik loyixalash malakalari, axborot malakalari kiradi. Innovatsion bilimlarga quyidagilar kiradi: pedagogik innovatika soxasida tushunchalarni izoxlovchi atamalarni egallash; zamonaviy pedagogika fani va ilgor pedagogik tajriba yutuqlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish; ta’limda pedagogik innovatsiya moxiyati va innovatsion jarayonlari, ularning kechishi konuniyatlarini tushunish, bu jarayonlarni boshkarish zaruriyatini anglash; pedagog innovatsion faoliyati metodologik asoslari va tuzilmasi xakida; psixologik-pedagogik tadkikot metodlari va mazmuni va maktabgacha ta’lim tashkilot shart-sharoitida tajriba-eksperimental tashkili xakida; pedagogik faoliyatda axborotni olish va ishlatish usullari xakida; innovatsion malakalaga gnostik malakalar, pedagogik loyixalashtirish malakalari, axborot malakalari kiradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti innovatsion madaniyatining barcha tuzilmaviy tarkibiy kislmlari ko‘pgina tarbiyachilarda yetarli darajada berilmaganligi kuyidagilarda asoslanad:

-kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalardan foydalanishga yetarli bulmagan motivatsiya;

-tushunchalarni izoxlovchi atamalarning egallanishi kuyi darajasi;

-pedagogik innovatsiyalar moxiyati, innovatsion faoliyat tuzilmasi va psixologik-pedagogik tadkikotning nazariy asoslarini yaxlit tushunishning mavjud emasligi;

-gnostik va kommunikativ malakalar, pedagogik loyixalashtirish malakalari shakllanganligining yetarli bulmagan darajasi. Tarbiyachilarda innovatsion madaniyatni shakllantirishga nisbatan bir qator asoslar shunda ifodalanadiki, innovatsiyalarning kullanilishi kasbiy amaliyotning asosiy kismi xisoblanadi. Pedagoglarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishga kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va qo‘llash tajribasiga ega bo‘lishlari zarur. Innovatsion madaniyatni shakllantirish jarayonini ta’minlash uchun shakllantiruvchi kulam modeli ishlab chikilgan. Ko‘pgina tadqiqotlarda shakllantiruvchi kulam deganda ko‘pgina ob’ektlar tushuniladi, ularning o‘rtasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida barcha innovatsion madaniyat tarkibiy qismlarini shakllantirish maqsadida munosabatlar o‘rnatilgan. Shakllantiruvchi ko‘lam tortta darajasidan har biri (maktabgacha ta’lim tashkiloti innovatsion muxiti, nazariy-metodologik tayyorgarlik, nazariy- amaliy tayyorgarlik, innovatsion amaliy tayyorgarlik) boshka darajalar bilan mazmuniy va operatsional o‘zaro bogliklikda bulgan. Darajalardan xar birida pedagoglarda barcha innovatsion madaniyatning bosqichma-bosqich shakllanishini ta’minlovchi tadbirlar yigindisini qo‘llash orqali bir qator o‘ziga xos masalalar hal etildi. Shakllantiruvchi ko‘lam doirasida o‘tkazilgan o‘qitish innovatsion motivlar, bilimlar va malakalarni shakllantirish va faollashtirish orqali pedagoglarning kasbiy amaliyoti motivatsion, intellektual va faoliyatli soxalarini rivojlantirishga karatilgan edi. Faol ukitish metodlaridan foydalanish orkali pedagoglarning fikrlash va xulk-atvor faolligini ta’minlovchi innovatsion madaniyatni shakllantirish ishlab chikilgan texnologiyalari orkali ukitish amalga oshirildi. (ma’ruzalar, muzokaralar, ish uyinlari, tatsdimotlar, ijodiy pedagogik vazifalarni ual etish va b).

Ishlab chikilgan texnologiyalar tarbiyachini o‘kitish jarayonini turtta izchil boskichlar ko‘rinishida berishga imkon beradi.

Tezkor o‘zgaruvchan mehnat bozorining shart-sharoitlari mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va uning mazmuniga bo‘lgan talablariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Hozirgi davrda kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlovchi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida bilim, ma’lumotlilik darajasi yoki tajribagina emas, balki

ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllangan mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetentligi belgilanmoqda. Shu jumladan, barcha sohalarda bo‘lgani kabi pedagogikadagi zamonaviy yondashuvlar mazmunida ham o‘qituvchining yangi kompetensiyalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi, “o‘z paradigmasini o‘zgartirishi”, metakognitiv va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu o‘zgarishlarni amalga oshirish esa o‘z navbatida pedagog kadrlardan yuqori kasbiy tayyorgarlik va kompetentlikka ega bo‘lishni talab etmoqda. Darhaqiqat, pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta‘minlovchi yangi ta‘limiy strategiyalarni belgilash, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali yo‘llari, shakllarini amaliyotga keng joriy etish hamda kompetentlikning miqdoriy va sifat darajasini tahlil qilish, baholashga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni ishlab chiqishga e‘tibor qaratish ta‘lim sifatini oshirish uchun xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta‘lim amaliyotida keng qo‘llanila boshlangan assessment markazlari oliy ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini baholashning innovatsion metodlaridan biri sifatida baholanmoqda. Assessment markazlari – (assessment centre – mutaxassislarni baholash markazlari) bu diagnostik metodlar majmuyi bo‘lib, guruhviy baholashning samarali shakli sifatida keys, reproduktiv testlar, taqdimot, intervyu, suhbat, ijodiy topshiriqlar asosida mutaxassislarning aniq bir kasbiy faoliyat doirasidagi yutuqlari va kamchiliklarini tizimli o‘rganish va tahlil etish, ularning mazkur faoliyat sohasidagi kompetentlik darajasini baholashga yo‘naltiriladi.

Adabiyotlar:

1. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika -T.: 2018y.
2. Nishonov S. «Komil inson tarbiyasi». T: «Sharq» 2003 y.
3. Babayeva D. R., Jumasheva G. X. Maktabgacha ta‘limni boshqarishning ilmiy asoslari.-T.: 2021yil

BERDAQ IJODINING BOY VA MAZMUNLI XOTIRASI

Xoliqova Gullola Yoqub qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 4-kurs talabasi

Turobova Moxichexra Xolbek qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 2-kurs talabasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Toshkent shahrida tashkil etilgan Adiblar xiyoboniga 2020-yil 20-may kuni tashrifi davomida xiyobonning butun xalqimiz, ayniqsa yoshlar uchun tom ma’noda adabiyot, ma’naviyat va tarbiya maskaniga aylantirish, har bir adib ijodini chuqur o‘rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishga doir vazifalar ijrosini amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 502-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq hayoti va faoliyati, ijod mahoratini o‘rganish va keng miqyosda targ‘ib etish maqsadga muvofiq.

Qoraqalpoq diyori o‘zining dunyoda o‘xshashi yo‘q betakror, boy va yuksak san’ati bilan barchamizni hayratga solib kelgan. Qoraqalpoq adabiyotining o‘z yo‘nalishi, uslubi va fikriga ega xalq shoiri Berdaq haqida so‘z ketganda Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li XIX asrning birinchi choragida 1827-yil 9-noyabrda Qoraqalpoq Qo‘ng‘irot beyligiga qarashli Amudaryo Orol dengizining Quyliko‘l ovulida dehqon oilasida tug‘ilgan. Berdaq o‘z davrining ziyoli, o‘ziga xos teran fikrli, o‘z zamandoshlaridan ko‘ra yangicha fikrli va yuksak mavqega ega shaxs bo‘lgan.

Boshlang‘ich ta’limni avval ovul maktabida, so‘ngra esa madrasada tahsil olgan. Berdaq o‘ziga ustoz deb bilgan Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo‘ja kabi shoirlarni asarlarini chuqur mutola qilgan, ulardan o‘rgangan. U

tarixni va xalq, og‘zaki ijodini yaxshi bilgan. Berdaqning lirik she‘rlarida, dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18-19-asrlardagi ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Xususan Qoraqalpog‘istonning shahar va tumanlarida, ma‘naviyat va marifat maskanlarida Berdaqxonlik tadbirlari o‘tkazish har yillik an‘anaga aylangan. Berdaqning she‘r va dostonlaridan yosh avlod vakillari tomonidan namunalar o‘qiladi. Berdaq siymosi haqiqiy ma‘noda nainki qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning g‘urur va iftixori timsoliga aylangan. Berdaq ijodining xarakterli belgilari xalq og‘ir va mashaqqatli hayotining haqqoniy tasviri, nohaqliklarni fosh qilmoq, baxtli kelajak to‘g‘risida orzu-umidlardan iborat. Mavzularning kengligi va rang-barangligi, tilining boyligi va obrazlilik, she‘r shakllarining mukammalligi, eng muhimi chuqur g‘oyaviy mazmun, xalqchilik va demokratizm, haqqoniyat va gumanizm, fuqarolik jasorati-mana shularning barchasi Berdaq asarlarining abadiyligini ta‘minlovchi omillardir. Berdaq ijodiy merosining ahamiyati qoraqalpoq xalqi milliy madaniyati chegaralaridan tashqariga ham chiqib ketadi. Uning asarlaridagi adolatparvarlik, gumanizm g‘oyalari, ijtimoiy huquqsizlikka qarshi, zulm va zo‘ravonlikka qarshi kurash g‘oyalari barcha taraqqiyparvar kishilar qalbiga hamohangdir. O‘z xalqining jonkuyar g‘amxo‘ri bo‘lgan vatanparvar shoir ayni zamonda tom ma‘nodagi internationalist ham edi. Uning dushmanlari Xiva xonlari, qoraqalpoq soliq yig‘uvchilari va eshonlardir. Uning do‘stlari, qaysi xalqqa, uruqqa mansub bo‘lganidan, kimligidan qat‘iy nazar, mazlum kambag‘allardir. Uning muhtaramlari Aristotel, Platon, Navoiy, Fuzuliy, Firdavsiy, Bedil, Maxtumquli, Andalib, Kunxo‘ja, Ajiniyoz. Qoraqalpoq shoiri Otashning aytishiga ko‘ra, Berdaq vafot etganida marhumni faqatgina qoraqalpoqlar emas, balki o‘zbeklar, qozoqlar, tatarlar va ruslar ham so‘nggi manzilga kuzatib borganlar.

O‘z shoirona xayollarida Berdaq xalq taqdirini kim hal qilajagi to‘g‘risida ko‘p o‘ylanar edi. Ollohmi? Bunga umid bog‘lamoq mushkul. Goho adolatli podshoh to‘g‘risida fikr tug‘iladi. Ammo bu fikrni ham darhol rad etmoqqa to‘g‘ri keladi. Chunki Dunyo dunyo bo‘lgandan, podshoh odil bo‘lgan emas. Odamga bemehr jallo beomon, elni ko‘p yig‘latar otaliq va xon (Ko‘rindi). Shaxzodlar xonu beklar hech

adolatli bo‘lmadi (Qolmadi). Bu dunyoning vafosi yo‘q (Qolmadi). Shoirning ideali zulmkorlarga qarshi kurashga bosh bo‘la oluvchi xalqning chekkan mashaqqatlari uchun qasoskor, xalqqa ozodlik va baxt-saodat keltira oluvchi xalq qahramonlaridir. So‘zimning oxirida Qoraqalpoq xalqining buyuk adiblaridan biri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘lining ijodi va hayot yolini chuqur o‘rganmog‘imiz, yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlarini yanada jonlantirish lozim. Berdaq hayoti va ijodini targ‘ib qilishda innovatsiyalardan keng foydalanib Berdaqning sherlarini zamonaviy tarzda kuylanishini, asarlaridan sahnalashtrilgan qisqa video lavxalarni tayyorlash hamda kino filmlar yaratish orqali ijodkorning faoliyatini yoritish orqali ham xalqimiz qalbini, ham adabiyotimiz zarvaraqlarini yanada boyitish kerak deb o‘ylayman.

Xulosa o‘rnida shuni takidlaymiz Berdaq ijodini o‘rganish bu avvalo yoshlarimizni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga, kasbiga sadoqat, vatanga muhabbat, xalq xizmatida bo‘lish kabi oliyjanab insoniylikni targ‘ib qiluvchi yuksak insoniylikni tarannum qiladigan asarlar bitgan shoir bu Berdaq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Doimo shoir ijodiga xurmat va ehtromda bo‘lish avvalo insoniylikni ulug‘lash shoirning bosh maqsadi bo‘lganligi uning asarlarida namoyon bo‘ladi, shuning uchun ham shoir ijodi doimo barhayot bo‘lib o‘z mazmun mohiyatini yo‘qotmasdan bizgacha yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi xalqlari adabiyoti (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, 2007) o‘quv qo‘llanmasidan.
2. B. Qurbonboyev Berdaq va o‘zbek adabiyoti, T., 1986.
3. Berdaq milliy madaniyatimizning buyuk namoyondasi nomli metodik qo‘llanma. Nukus 2017-yil.

HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH TURLARI HAMDA ULARNING SHARHLASH JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI

Parxatov Mardonbek

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Huquq normalarini mazmunini aniq tushunib olish, to‘g‘ri talqin etish, huquqbuzarliklar oldini olish uchun albatta ularni sharhlash lozim. Sharhlash orqali huquq normalarining o‘ziga xos xususiyatlari, jihatlari aniqlanadi. Huquq normalarini sharhlashda asosiy maqsad uning mazmunini to‘liq tushunish va to‘g‘ri tatbiq etilishi hisoblanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad fuqarolar huquqlarini himoya qilish va davlat organlarini faoliyati shaffofligini ta’minlashdir.

Huquq normalari sharhlashda turlarga ikki jihat asosida ajratiladi: hajmiga hamda subyektlariga ko‘ra sharhlash⁷. E.A.Berezina huquqni sharhlashni an’anaviy turlari bilan bir qatorda, sharhlash maqsadi, obykti, huquqiy tartibga solish mexanizmiga ko‘ra turlarga bo‘lish lozimligini qayd etib o‘tgan⁸.

Olimlar tomonidan huquq normalarini hajmi bo‘yicha sharhlash uch turga: tom ma’noda (aynan yoki adekvat), cheklangan va kengaytirilgan turlarga bo‘linishi qayd etilgan.

1.Huquq normalarini tom ma’noda sharhlash deganda, tatbiq etilayotgan huquq yaratuvchi idoraning irodasi bilan uning huquqiy normada so‘zda ifodalangan irodasi bir bo‘lganda qo‘llanadigan izohlash tushuniladi. N.N.Matuzov fikricha, huquqio tom ma’noda sharhlash huquqiy normaning og‘zaki ifodasi va semantik mazmuni bir-biriga to‘g‘ri keladigan, boshqacha qilib aytganda, qonunning matni va uning ruhi doirasi teng bo‘lgan holatda amalga oshadi⁹.

⁷ Алексеев.С.С. Теория права и государства. - М., 1999. -С.131

⁸ Березина. И.А. Толкование договора как вид юридического толкования. Автореф..дис. ... канд.юрид.наук. - Екатеринбург, 2001. -С.7.

⁹ Матузов, Н.Н. Теория государства и права: Курс лекций / Н.Н.Матузов, А.В.Малько – М.: Юристъ,

Ushbu sharhlar turi yuridik adabiyotlarda aynan yoki adekvat sharhlar deb ham qayd etiladi. Soʻzni tom maʼnoda sharhlariga misol qilib, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasini koʻrsatish mumkin. Unda shunday deyilgan: “Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolikorlatiladi. Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega boʻlganligidan qatʼiy nazar, hamma uchun tengdir.

2.Cheklangan sharhlar. Bunda huquq normasining soʻzda ifodalangan va rasmiylashtirilgan maʼnosi uning mantiqiy maʼnosi va mazmunidan keng boʻlgan hollarda qoʻllaniladi. Ayrim hollarda huquq normasining mazmuniuning matndagi ifodasidan torroq boʻlishi mumkin. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida: “ Oʻzbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs Oʻzbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas “ deb qayd etilgan. Bu yerda Oʻzbekiston xalqi nomidan faoliyat olib boradigan subyektlar doirasi Respublika Oliy Majlis va Prezidenti ish olib borishi mumkin deb cheklab qoʻyilgan. Shu cheklashni asoslash uchun ushbu normada turli xil tashkilotlar, mansabdor shaxslar va davlat organlari Oʻzbekiston xalqi nomidan ish olib borishi mumkin emasligi qayd etilgan.

3.Kengaytirilgan sharhlar. Bunda huquq normasi mohiyati va mazmuni, unda koʻzda tutilganidan kengroq holatda sharhlanadi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida “Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga boʻysunadilar”, deyilgan. Bunda qoʻllanilgan “sudya” iborasining haqiqiy maʼnosi keng tushuniladi. Qonun chiqaruvchi idora “sudya” iborasi orqali faqat sudyalarni emas, shu bilan birga xalq maslahatchilarini ham mustaqilligini va faqat qonunga boʻysunishini nazarda tutgan¹⁰.

Huquq normalarini subyektlariga koʻra sharhlar rasmiy va norasmiy turlarga ajratiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan

2001 – C. 357.

¹⁰ Oʻz.R. IIV Akademiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. 526-b.

sharhlash rasmiy sharhlash hisoblanadi. Professor Sh.Saydullayev fikricha, sharhlashning bunday turi yuridik ahamiyatga ega bo‘ladi va tegishli huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Mazkur sharhlash, o‘z navbatida, huquqni amalga oshiruvchilarni huquq normalarini bir xil ma’nodan tushunish va aynan qo‘llashga yo‘naltiradi¹¹.

Huquq normalarini rasmiy sharhlash o‘z navbatida normativ va kazual sharhlashga bo‘linadi¹². Normativ sharhlashda, uning natijalari huquqni qo‘llashda majburiy xarakterga ega hisoblanadi. Normativ sharhlash yangi huquqiy normalarni vujudga keltirmaydi, balki harakatdagi huquqiy normalarning mazmunini tushuntiradi. Normativ sharhlash natijalari huquqni qo‘llash jarayonida umumiy qoida sifatida joriy etiladi, shu bilan birgalikda huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining keng doirasiga daxldor hisoblanadi.

Huquqiy normalarni sharhlash subyektga ko‘ra ikki turga: rasmiy va norasmiy turlarga bo‘linadi. Yuqorida huquq normalarini rasmiy sharhlashni atroflicha tahlil qildik. Undan keyin norasmiy sharhlashga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Norasmiy sharhlashda sharhlash jarayonida vakolatli davlat organlari emas, aksincha sharhlash maxsus vakolat berilmagan organlar yoki shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, sharhlash jarayoni oqibati majburiy xarakterga ega emas.

A.S.Pigolkin fikricha, Norasmiy sharhlash qonun ustuvorligi mazmunini ochib berish uchun rasmiy vakolatlariga ega bo‘lmagan subyektlar tomonidan beriladi: ommaviy tashkilotlar, ilmiy va o‘quv muassasalari, amaliyotchilar va boshqalar. Uning muhim xususiyati shundaki, u qonuniy kuchga ega emas va hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi¹³.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish joizki kelajakda yurtimizda huquq normalarini sharhlash faoliyatini yanada takomillashtirish lozim. Birinchidan, sharhlovchi subyektlarning huquq normalarini sharhlashda yuridik va lingvistik bilimlarning uyg‘unligini ta’minlash; ikkinchidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini takomillashtirish va OAV bilan hamkorligini kuchaytirish; uchinchidan huquq normalarini sharhlash faoliyati bo‘yicha yangi mexanizmlarni joriy etish va xorijiy tajribani o‘rganish maqsadga muvofiq.

¹¹ Saydullayev Sh. Huquqni sharhlash. . –T., : TDYU, 2019. 13-b

¹² Коркунов, Н.М. Общая теории права: Курс лекций / Н.М. Коркунов // М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН). - 2010. – С. 223.

¹³ А.С. Пиголкин .Толкование норм права и правотворчество: проблемы соотношения.// Закон: создание и толкование/ – М,1998. – С. 74-75.

TRANSLATION AND BILINGUALISM IN TEACHING RUSSIAN

Adjeminova Elvina Rifatovna,

lecturer, Ferghana State University

E-mail: nochkaelvi@gmail.com

Abstract: the article reveals the role of translation in the process of mastering a non-native language, in the process of bilingualism. Translation is considered as a special kind of speech activity. The article shows the connection of the linguistic theory of translation, reveals the essence of translation. The phenomenon of interference, the interference of the native language into the system of the non-native one, is considered, while it is very important to take into account the interaction of all its components of participants, channels and situations in which certain forms of messages and their genres are allowed.

Key words: translation, bilingualism, interference, speech activity, theory of translation.

At present, great importance is given to the study of the Russian language in Uzbekistan. Favorable conditions are being created in the country for the development of Uzbek-Russian and Russian-Uzbek language communication.

At the same time, the process of turning a student into an active participant in the learning process, which is based on a conscious need for knowledge, is one of the main requirements of modern pedagogical technologies. Good and high-quality assimilation of the material of any subject largely depends on the level of active thinking of students. And this, in turn, depends on whether they receive knowledge ready-made or not.

Students' mistakes are explained by the fact that students do not consciously master grammatical concepts and, therefore, do not know how to apply them in speech practice.

The purpose of language learning is the application of knowledge in different situations and at different levels of cognitive activity. As we know, a scientifically based methodology for teaching the Russian language for a national school can only be built by comparing two languages, with a comparative characteristic of both languages: Russian and native. In addition, the psychology of learning a second language should be taken into account. The assimilation of the native language directly depends on the development of thinking. [Popov, 2021]. Further, the system of the native language is formed within the framework of the native language system and helps to learn a new non-native language.

When mastering the native language of the content, thoughts develop in parallel with the possibility of its expression. The reason is that when mastering a non-native language, the understanding of the phenomenon of the reality of reality and the possibility of their expression in a non-native language do not correspond to each other.

Thus, the native language learned from childhood unconsciously controls the speech activity of each person. When we begin to analyze the speech of a second language learner, then, oddly enough, we are faced with the phenomenon of interference, that is, interference of the native language into the non-native language system, which is based on comparison [Fedorov, 2002]. Students who study a foreign language (in our case, the Russian language) while studying rely on the system of their native language and at the same time make phonetic, lexical and grammatical errors due to the fact that they do not distinguish between the differences between the phenomena of their native and studied languages.

In addition to the usual visual aids, it is necessary to use special language visualization, which is carried out by means of comparison, the studied and native languages. This fact is established by psychology in the study of linguistic facts.

We must take into account interlingual correspondences and discrepancies, because each language is unique.

Many linguistic facts in the practice of teaching Russian as a second native language require a special interpretation of the comparison and generalization taking

into account them. For example, for an Uzbek student, it is important to understand the reasons that underlie the distinction between the use of verbs: came - “he is here”, and came - “he is not here”, departed - he is not here, and departed - “he is here again”. The number of syntactic models is, in principle, limited. But the many offers are endless.

To build sentences, generative models are used, and this means a finite set of grammatical rules, a limited number of generation rules built in accordance with the generative rules are not always adequate to natural language sentences. For an Uzbek student, there is no question of what he needs to say. He is faced with the task of how, how to say it, that is, how to express an idea that is framed in his native language using the means of the Russian language. [Azizov, 1993]. At the very beginning of learning another language, a person always mentally translates words or whole sentences of this new language into his native language.

It is proved that poor command of speech causes insufficient differentiation of perception, weakness in memorizing new studied material. Accordingly, in order to develop abstract thinking, it is necessary to develop speech .. In methodological terms, this principle means that language acquisition is inextricably linked with the comprehension of certain aspects of the surrounding reality. Thus, the successful use of the native language in teaching the Russian language directly depends on the level of linguistic description of both languages in comparative terms.

This comparison shows that in Russian and in the native language it is the same, and what is not the same, that is, is different. Thus, it facilitates the process of the necessary unknown, mental translation from the native language into Russian. The use of the facts of the native language with the corresponding facts of the Russian language can play a special role in showing interest in the Russian language as a specific linguistic entity and academic subject. Let’s look at this with an example. In the process of mastering the practical course of the Russian language, students are faced with such categories that are absent in their native language.

By comparing grammatical constructions with their equivalent in their native language, students are convinced that these categories do not exist in their native

language. As we know, translation is a special type of speech activity that attracts the attention of various specialists: literary critics, ethnographers and linguists. And linguistics, as we know, has the most direct and direct relation to translation

The development and revival of interest in translation activities were largely facilitated by advances in the field of machine translation, which led to the study of the linguistic aspects of translation. The linguistic theory of translation is closely related to one of the important sections of linguistics - comparative linguistics, that is, the linguistics of comparison. Comparative linguistics largely solves the practical problems of learning a foreign language. Comparative linguistics pursues primarily a practical goal - to facilitate the student's mastery of a second language.

At the same time, a comparative analysis of two languages has a direct outlet not only to the methodology of studying foreign languages, but also to the theory of translation. The essence of the translation process becomes clear to a large extent when referring to reality, to a real situation, to the realities of life. Translation, which is carried out by a person, is the generation of a text in the target language, which is equivalent to the text in the source language, according to given correspondences with an obligatory reference to reality. At the same time, the division of translation activity into one's own translation, carried out according to given rules without referring to reality reflected in the experience or perception of the translator, and interpretation, including the involvement of extralinguistic data, cannot be considered fruitful for the linguistic study of the translation process. For a translation that is carried out by a person. characterized by an organic and inseparable unity of proper linguistic and extralinguistic aspects.

We can conclude that when considering the process of translation as a bilingual communicative act, it must be borne in mind that in order to characterize it, it is extremely important to take into account the interaction of all its components of participants, channels and situations in which certain forms of messages and their genres are allowed.

Bibliographic list:

1. Azizov A.A. Comparative grammar of Russian and Uzbek languages. Morphology. - Tashkent: Y'kituvchi, 1993. – 239 p.
2. Popov D.V. Methodological concepts of the lexical aspect of teaching Russian as a non-native language // Teaching Russian as a foreign language in the modern educational space. - Ulyanovsk: UIGTU, 2021. - S. 90-93.
3. Fedorov A.V. Fundamentals of the general theory of translation. - M.: Philology TRI, 2002. - 416 p.

TRITIKALE NAVLARI URUG‘LARINING UNIB CHIQISHI DAVRIDA QURG‘OQCHILIKKA CHIDAMLILIGINI BAHOLASH

G‘aybullayeva Mohinabonu Hayrullayevna

Niyozaliyeva Muslima Ikromjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tritikale ekinining 11 ta navlari laboratoriya sharoitida qurg‘oqchilikka chidamliligi baholangan bo‘lib, 2 ta yuqori chidamli navlar tanlab olingan va seleksiya ishlariga tadbir etilgan.

Kalit so‘zlar: Tritikale, nav, qurg‘oqchilik, chidamlilik.

TRITICALE VARIETIES DURING THE GERMINATION PERIOD EVALUATION OF DROUGHT TOLERANCE

ABSTRACT

In this article, 11 varieties of triticale were evaluated for drought tolerance in the laboratory, and 2 highly resistant varieties were selected and applied to selection work.

Keywords: Triticale, variety, drought, tolerance.

Kirish: Respublikamizning janubiy qurg‘oqchil mintaqa dehqonchiligida ekinlarning qurg‘oqchilikka chidamlilik muammosi so‘ngi yillarda iqlim o‘zgarishi qurg‘oqchilik ehtimolini oshirib, qurg‘oqchilik sharoitlariga chidamli va bardosh beruvchi yangi ekin navlarini zudlik bilan o‘zlashtirishni talab qiluvchi omilga aylanmoqda. Bu borada an‘anaviy donli ekinlar yetishtirish agrotexnikasiga mos bo‘lgan yangi boshqoli ekin tritikale bug‘doy va javdarning qimmatli fazilatlarini o‘zida mujassam etganligi sababli uni qurg‘oqchilikka chidamli ekin sifatida

foydalanish iqtisodiy samarali bo‘lmoqda. Tritikale germoplazmasidagi mavjud xilma-xillikni chuqurroq o‘rganish asosida yangi genotiplarni tanlab olishda intensiv foydalanish mumkin.

Tritikalening qurg‘oqchilikka chidamli, hosildorligi yuqori navlarini olish mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi va butun dunyo uchun juda muhimdir. Toboro rivojlanib borayotgan yangi O‘zbekiston ilm fani oldida g‘allachilik sohasidagi muammolarni iqtisodiyotdagi ta‘sirini kamaytirishning maqbul yechimi yangi turdosh chidamliligi amaldagi ekindan ustunroq bo‘lgan ekinlarni yetishtirish orqali yuqori rentabellikka erishish mumkin. Tritikale yangi va hali yetarlicha o‘rganilmagan boshqoli don ekinidir. Tritikale non pishirish un, kraxmal, solod, muvozanatli va to‘yimli chorva ozuqasi, ajoyib don pichanlari, bioyoqilg‘i ishlab chiqarish uchun istiqbolli ekin - bularning barchasi ekin samaradorligining to‘liq ro‘yxati emas. Tritikale, shuningdek, bug‘doy va javdarning asl turlarida mavjud bo‘lmagan xususiyatlarni ko‘rsatadi.

Oqsil va individual aminokislotalarning ko‘pligi, kasalliklarga chidamliligi sababli keng tarqalgan yem-xashak ekini hisoblanadi. Tritikale genetik seleksiyaning eng katta yutuqlaridan biri. Tritikale barglarining suvni saqlash qobiliyati boshqa donli o‘simliklarnikiga qaraganda ancha yuqori. Boshqa turdosh boshqoli don ekinlariga nisbatan tritikalening navlari qurg‘oqchil zonalarda yetishtirish uchun yuqori imkoniyatlarga ega. Qurg‘oqchilikka chidamli navlarni tanlashda seleksiya va genetik ishdagi muhim bosqich bu genotiplarni genetik, fiziologik, morfologik va biokimyoviy xususiyatlariga ko‘ra har tomonlama baholashdir. Shu maqsadda tritikalening 11 ta navlarini Qurg‘oqchilikka chidamlilikni fiziologik baholash ishlarini olib bordik.

Tajriba metodologiyasi: Urug‘larning unib chiqishi sterillangan Petri idishlarida, filtr qog‘ozi oldindan solingan holda, nazorat uchun ikki stakan va bitta nav uchun har bir tajriba uchun uch stakan miqdorida amalga oshirildi. Nihol uchun termostat shkafi, silindrlar, pipetkalar va turli xil idishlar ishlatilgan.

Natijalar: Qurg‘oqchilikni taqlid qilish sharoitida tritikale urug‘ining unib chiqishi tahlili, Havoning doimiy yuqori harorati va kam yog‘ingarchilik bilan uzoq muddatli ob-havo sharoiti tuproqdagi suv zaxiralarini kamaytiradi, bu ayniqsa boshhoqli ekinlar uchun xavflidir. Bu unib chiqish paytida urug‘larning nobud bo‘lishiga, shuningdek, ildizning o‘sishi va rivojlanishining sekinlashishiga va keyinchalik butun o‘simlikning qurib qolishiga olib keladi. O‘zbeistonning janubiy qismida tuproq va havo qurg‘oqchilik sharoitlari juda keng tarqalgan bo‘lib, bu ekin urug‘larning unib chiqishi davrida qurg‘oqchilikka chidamli tritikale navlarini etishtirish vazifasini dolzarb qiladi. Biz o‘simliklarni urug‘larning unib chiqishi davrida qurg‘oqchilikka chidamliligini tahlil qildik. Urug‘larning suv tanqisligida unib chiqish qobiliyati muhim biologik xususiyatdir. Bir tomondan, u oz miqdorda suv bilan irsiy jihatdan aniqlangan unib chiqish qobiliyatini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, unib chiqish uchun yetarli miqdorda suvning tez so‘rilishini ta‘minlaydigan yuqori so‘rish kuchini aks ettiradi. Ushbu uslub o‘simlik rivojlanishining dastlabki bosqichida navlarning nisbiy qarshiligini ob‘ektiv tavsiflash imkonini beradi, shuningdek, o‘sadigan urug‘larning berilgan stress sharoitlariga qarshilik darajasi haqida fikr beradi. Namunalarning urug‘lari sterillangan Petri idishlariga har bir idishga 50 ta urug‘ miqdorida joylashtirildi. Ikki nazorat stakaniga 250 birlik nisbatdan 10 ml distillangan suv qo‘shildi va unga nistatin qo‘shildi. Tajriba uchun (16 atmosfera bosimini yaratish uchun) 10 ml 17,6% saxaroza eritmasi uchta stakanga quyildi. Tayyorlangan idishlar 5 kun davomida 21C haroratli termostatik shkafga joylashtirildi. Nazorat urug‘larining unib chiqish darajasi 96% dan ortiq bo‘ldi. Eksperimental variantlarning unib chiqishi nazoratning ulushi sifatida aniqlandi va olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, namunalar unib chiqish foiziga ko‘ra taqsimlandi: 1 - guruh - 0-20% (beqaror); 2-guruh - 21-40% (zaif chidamli); 3-guruh - 41-60% (o‘rtacha barqaror); 4-guruh - 61-80% (chidamli); 5-guruh - 81-100% (yuqori chidamli).

Ish “Osmotik eritmalarda tritikalening nisbiy qurg‘oqchilikka chidamliligini urug‘ning unib chiqishi va nihol o‘sishi bilan aniqlash” (Yo‘riqnoma – L., 1987.10

b.) VIR usuli bo'yicha olib borildi. Qurg'oqchilikni taqlid qiluvchi sharoitlarda urug'larning unib chiqishiga ko'ra, barcha sinovdan o'tgan namunalari 4 guruhga bo'lingan: zaif chidamli-2 ta nav namunalari, o'rtacha chidamli -3 ta nav namunalari, chidamli-4 ta va yuqori chidamli -2 ta nav namunalari borligi aniqlandi. Sardor va To'yimli navlari qurg'oqchilikka yuqori chidamli ekanligi aniqlandi. Saxaroza eritmasida (16 atm.) qurg'oqchilikka yuqori chidamli bo'lgan, rivojlangan ildizlarga ega, 100% unuvchanlik darajasiga ega bo'lgan tritikalening Sardor va To'yimli navlari ekanligi aniqlandi. Ushbu navlar qurg'oqchilikka chidamli genotiplarni yaratish uchun donor navlar sifatida seleksiya jarayonida foydalanish uchun tavsiya etildi. Valentin va GulDu navlari zaif chidamli guruhga tegishli bo'lib, urug'larning unib chiqish darajasi 41% dan oshmadi.

Xulosa

Xulosa o'rinda Nazorat urug'larining unib chiqish darajasi 96% dan ortiq bo'ldi. Eksperimental variantlarning unib chiqishi nazoratning ulushi sifatida aniqlandi va olingan ma'lumotlarga ko'ra, namunalari unib chiqish foiziga ko'ra taqsimlandi: 1-guruh - 0-20% (beqaror); 2-guruh - 21-40% (zaif chidamli); 3-guruh - 41-60% (o'rtacha barqaror); 4-guruh - 61-80% (chidamli); 5-guruh - 81-100% (yuqori chidamli). Ish "Osmotik eritmalarda tritikalening nisbiy qurg'oqchilikka chidamliligini urug'ning unib chiqishi va nihol o'sishi bilan aniqlash" (Yo'riqnoma –L., 1987. – 10 b.) VIR usuli bo'yicha olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.O. Oripov, N. X Xalilov "O'simlikshunoslik" O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti Toshkent – 2007
2. www.ziyo.uz.com kutubxonasi
3. D.T. Abdulkarimov "Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi" Toshkent -2010y bet 85-101
4. Грабовес А.И., Фоменко М.А. Создание и внедрение сортов

- пшенисы и тритикале с широкой экологической адаптацией // Научно-произв. журнал «Зернобобовые и крупяные культуры», 2013. №2(6) – С.41-4
5. Azizov B.M., Israilov I.A., Xudayqulov J.B. “O‘simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlari”. – T.: “ToshDAU nashriyoti”. 2014. - B.105-221.
 6. Amanov A. G‘alla эkinlari. – T.: “Tafakkur qanoti”. 2019. – B.39-154.
 7. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. O‘simlikshunoslik. T.: Fan va texnologiya. 2018. – B.3-407.
 8. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва. Агропромиздат. 1985. - С.7-255

CITRUS LIMON L. O‘SIMLIGINI IN VITRO SHAROITIDA MIKROKLONAL KO‘PAYTIRISHDA FITOGARMONLAR TA‘SIRI

Turg‘unov Baxtiyor Xusanboy o‘g‘li,

Abdullayev Bobur O‘ktambek o‘g‘li

Ilmiy raxbar: b.f.d. Prof. Tashmuxeimedova Shoxista Sobirovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

turgunovbaxtiyor997@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sitrus o‘simliklardan biri bo‘lgan *Citrus limon* o‘simligining morfo-fiziologik tavsifi, kimyoviy tarkibi va *in vitro* sharoitida mikroklonal ko‘paytirishda fitogarmionlar ta‘sir mexanizmlari haqida batafsil ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Mikroklonal, sinergizm, kofaktor, *in vitro* ildiz otish, *in vitro*, limon, fitogormon, auksin, gibberellin, sitokinin, etilen, abssezin kislota.

Kirish

Rutaceace a‘zosi bo‘lgan *Citrus limon* L. (limon) doim yashil va xushbo‘y kichik daraxtdir. Uning mevalari inson oziqlanishi uchun C vitaminining muhim manbai hisoblanadi. Ularda uchuvchi moylar, limonen, a-terpinen, a-pinen, b-pinen, sitral kumarinlar, bioflavonoidlar, vitaminlar mavjud. Ular antiseptik, antirevmatik, antibakterial va antioksidant sifatida ham ishlaydi. Sitrusni *in vitro* mikroklonal ko‘paytirish orqali virusli va boshqa infeksiyali kasalliklardan yaxshilash mumkin. Mikroko‘paytirishda fitogarmionlar ham alohida ahamiyatga ega: gibberellinlar poya va mevaning o‘shishini, auksinlar ildiz o‘shishini, sitokininlar hujayraning bo‘linish jarayonini kuchaytiradi.

Asosiy qism: Fitogormionlar turli xil mexanizmlar asosida o‘simlik to‘qimalarida harakat qiladi:

Sinergizm: ma'lum bir to'qimada va ma'lum bir konsentratsiyadagi fitogormon borligi bilan boshqa fitogarmonlarga javob borligi kuzatiladi.

Qarama-qarshilik: bitta fitogormonning konsentratsiyasi boshqa o'simlik gormonining ekspresiyasini oldini oladi.

Taqiqlash: fitogormon konsentratsiyasi gormonal funktsiyani sekinlashtiradigan yoki pasaytiradigan tartibga soluvchi moddalar sifatida faoliyat yuritadi.

Kofaktorlar: fitogormon katalitik ta'sir ko'rsatib, tartibga soluvchi moddalar vazifasini bajaradi.

Fitogarmonlarning vazifalarini ko'rib o'tdik endi ayrim fitogarmonlar bilan tanishib chiqamiz.

a) Auksin hujayraning o'sishini va bo'linishini tezlashtiradi. Auksin rivojlanayotgan urug'da hosil bo'lsa meva rivojlanishini stimullaydi. Agar auksin urug'lanish amalga oshmagan gullash paytida qo'llanilsa, urug'siz meva rivojlanadi. Urug'siz pomidorlar shu usulda yetishtiriladi. Ammo auksin mevaning rivojlanishida ahamiyatga ega yagona gormon hisoblanmaydi. Geteroauksin yuksak va tuban o'simlik to'qimalarida mavjud bo'lib, auksinga nisbatan bir necha marta kuchli.

b) Gibberellinlar - bu o'simliklarda gipokotil uzayishi, urug'larning unib chiqishi, gullashi va hokazolarni boshqarish bilan bog'liq turli funksiyalarni bajaradigan diterpen tabiatiga mansub fitogormonlar guruhi, aksariyat morfogenetik jarayonlarni boshqarishda gibberellinlar auksinlar bilan bir xil harakat qiladi va sitokininlar va absizin kislota (ASA) antagonistlari hisoblanadi.

c) Sitokininlar o'simliklarda ko'plab fiziologik jarayonlarda qatnashadi, hujayralar bo'linishini, o'q ildiz morfogenezi, xloroplastning pishib yetishini, hujayralarning chiziqli o'sishini, qo'shimcha kurtaklarning hosil bo'lishini va qarishini tartibga soladi. Auksinlarning sitokininlarga nisbati hujayralar bo'linishi va o'simlik to'qimalarining differentsiatsiyasida asosiy omil hisoblanadi.

d) Etilen - suvda eruvchan gaz, amalda u ko'plab mevalarning pishishini tezlashtirish uchun keng qo'llaniladi (sabzavot etishtirishda, mevalarda).

e) Abszidin kislota (ASA), fitogormon angiosperm va gimnospermlarda uchraydi. Yuksak o'simliklarda ASA barcha organlarda uchraydi. Uyqusiz holatda ASA (o'simlik o'sishi stimulyatori) ga boy bo'lgan eski yaproqlar, yetuk mevalar, urug'lar va kurtaklarga, ularning oz qismi faol o'sayotgan to'qimalarda (barglar, ko'chatlar) mavjud.

Tadqiqotda "Verna 51" va "Fino 49" limon navlarining yetuk to'qimalaridan tasodifiy organogenezi, shuningdek ularning endogen sitokininlar va etilen ishlab chiqarish bilan aloqasi o'rganiladi. Bunda kurtaklari butunlay olib tashlangan nodal eksplantlar in vitro dan olingan har ikkala limon navining kurtak kulturalari regeneratsiya muhitida yetishtirildi va regeneratsiya tezligi va regeneratsiya qilingan eksplantlar qayd etildi. Shuningdek, regeneratsiyadan so'ng endogen sitokinin tarkibi, har ikkala navning eksplantlari chiqaradigan etilen ham tahlil qilindi. Madaniy muhitida 8 hafta o'tgach, "Fino 49" eksplantlari "Verna 51" ga qaraganda ko'proq regenerativ bo'ldi. "Verna 51" da sitokininlarning endogen tarkibi global darajada yuqori bo'lgan, "Fino 49" da izopenteniladenin va izopenteniladenozin darajasi yuqori. Bundan tashqari, "Verna 51" eksplantlarida "Fino 49" ga qaraganda yuqori zeatin konsentratsiyasi va bir xil N6 - benziladenin va N6 -benziladenozin konsentratsiyasi mavjud. Shuningdek "Verna 51" da eksplantlar tomonidan chiqarilgan etilen darajasi yuqoriroq edi. Ushbu natijalarga ko'ra, C. limonining yetuk eksplantlari organogenezida endogen sitokininlar miqdori eksplant tomonidan etilen ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi .

Yana bir taqiqotda fevral-mart oylarida to'plangan qattiq tugunli ildiz qismlari (2-3 tugunli) maxsus ekish uchun eng mos bo'lgan, kurtaklarning sinishi ekilgandan keyin 10-15 kunda sodir bo'ladi. Eksplantlarning taxminan 85-90% MS +9 μ M BAPda javob berdi. 1-jadvaldagi har bir tugundan tiklangan 3-4 kurtaklar - MS muhitida sitokinin (BAP, Kn) konsentratsiyasining sitrus limonining tugun kurtaklari segmentlaridan kurtaklar parchalanishiga ta'siri kuzatiladi (kuzatish 4 haftadan keyin qayd etilgan).

MS muhitida sitokinin (BAP, Kn) konsentratsiyasining *citrus limon*ning tugun kurtaklari segmentlaridan kurtaklar parchalanishiga ta'siri.

Sitokinin konsentratsiyasi	Nisbati% da	Har bir eksplantidagi kurtaklar soni ± SD	Rasmga tushirish uzunligi (sm) +
BAP			
9.0	95	3.40±0.54	1.62±0.39
18.0	90	1.00±0.00	0.72±0.20
23.0	85	1.00±0.00	0.62±0.16
Kn			
9.3	0	0	0
18.6	35	1.00±0.00	0.64±0.27
23.2	40	1.00±0.00	0.84±0.47

Hisoblangan F:

BAP

Replikatsiya 1.0001ns 4,7536*

Davolash 96.0005** 46.552**

Kn

Replikatsiya 1.7014ns 2.883ns

Davolash 17.0141** 14.397**

ns - ahamiyatsiz

* - muhim (p<0,05)

** - juda muhim (p<0.01)

BAP ning yuqori konsentratsiyasida (18 va 23 μM) har bir tugunda hosil boʻlgan kurtaklar soni kamaydi. Kn unchalik samarali emasligi isbotlangan (1-jadval). BAP konsentratsiyasining oshishi kurtaklar soni va kurtaklar uzunligining pasayishiga olib keldi. Kn dan foydalangan holda shunga oʻxshash oʻsish tugunlar sonini doimiy

ravishda ushlab turdi, ammo o'simta uzunligining ortishiga olib keldi. ANOVA tahlillari shuni ko'rsatdiki, ikkala davolash ham kurtaklar soni va kurtaklar uzunligi uchun statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega.

Ko'p yillik ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Sitrusni in vitro mikroko'paytirish orqali virusli va boshqa infeksiyali kasalliklardan yaxshilash mumkin. C.limon kulturalari ammoniy sulfatning past konsentratsiyasi bilan o'zgartirilgan MS muhitida yaxshiroq o'sdi. BAP kurtaklarni faollashtirish va tugunli eksplantlardan bir nechta kurtaklar hosil qilish uchun kerak. BAP ning sitokin sifatida Kn dan ustunligi ko'plab yog'ochli tizimlarda qayd etilgan. BAP boshqalarga qaraganda barqarorroq, arzonroq sitokinidir va avtoklavlanishi mumkin bo'lgan yagona moddadir. Sitokin meristemalarni faollashtirish orqali kurtaklarning parchalanishini keltirib chiqaradi va kurtaklar ko'payishiga olib keladi. Qo'ltiq osti kurtaklarining o'sishi kurtakdagi sitokin darajasi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova R.A. Qishloq xo'jalik o'simliklari biokimyosi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: ToshDAU, 2000. – 95 b
2. Alimova R.A., Sagdiyev M.T. O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 320 b.
3. James E.Bidlach, Snelly H. Jansky. Stern's introductory Plant biology. – USA: McGraw-Hill, 2008, 622 p.
4. R. G. Butenko, E. A. Sheveluxa In vitroda yuqori o'simliklarning madaniy hujayralari biologiyasi va ularga asoslangan biotexnologiya. Moskva: FBK-Press Moskva, 1960. 152b.
5. Numonjonov M.G., Parpiyev A.T., Bozorboyev Sh.A., Vakhobova Sh.A. Alkaloids in some medicinal plants (*CAPPARIS L*, *HYPERICUM L*, *ACHILLEA L*,) their structure and significance. science and education scientific journal issn 2181-0842 volume 1, issue 4. July 2020

6. Tojiboyev, M. U., & Tuychiyeva, D. S. (2019). Qovoq o‘simligining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari. *Молодой ученый*, (43), 298-301.
7. Parpiyeva, M., Tuychiyeva, D., & Numonjonov, M. (2020). EFFECTS OF HALOXYFOP-RMETHYLE AND INDOXACARB PESTICIDES ON THE STRUCTURE OF THE INTERNAL ORGANS OF RATS. *Norwegian Journal of Development of the International Science*, (45-2).
8. No‘monjonov Muhiddin Gulomjon O‘G‘Li, P. A. T., & O‘G‘Li, B. S. A. (2020). ODDIY BO‘YMODARON O‘SIMLIGINING MORFO-FIZIOLOGIK TAVSIFI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI. *Science and Education*, 1(4).
9. Doroshchenok O.V. Citrus L jinsining ikki turining mikroklonal ko‘payishi // *Biologiya va ekologiyada fundamental va amaliy tadqiqotlar: mintaqa materiallari. int bilan. stud ishtiroki. ilmiy. konf. Perm, 2016 yil, 31-33-b.* Арзуманов В.А., Маматов К.Ш. Результаты исследование устойчивости сортов винограда к мучнистой росе // *Илмий-амалий конференция маърузалар матни. – Тошкент: 2013.* 125-127б.
10. Jayanthi M, Sarika N, Sujatha G, Mathur R. K, Rao C S and Mandal P K. 2013 Evaluation of SSRs (microsatellites) for detecting genetic variability in oil palm (*Elaeis guineensis*) clone. *Current Horticulture* 1(1):3–6.
11. Саимназаров Ю.Б, Абдураманова С. In vitro шароитида гилоснинг кучсиз ўсувчи Gisela-5 пайвандтагини турли хил озуқа мухитларида културага киритиш ва қайта културалаш // *Агро илм* 4(67)-сон – Тошкент 2020. 36-38 б.
12. Peres-Jiménez, M., Celdrán-Sánchez, V. & Pérez-Tornero, O. Limonda tasodifiy surgun regeneratsiyasida endogen sitokinlar va etilenning roli (Citrus limon). *In Vitro Cell.Dev.Biol.-Plant* (2022).
13. Akad.M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Tayanch doktorant Ibadullaev I. H. maqolasi

ELEKTRON RAQAMLI IMZOSIZ DAVLAT XIZMATLARIDAN FOYDALANISH MUMKIN

Umarov Hikmatillo Ahadovich

Boysun tuman adliya bo‘limi

Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi.

Annotatsiya: Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi rivojlantirilmoqda. Aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga e‘tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: mobil-ID tizimi, Face-ID, Tasdiqlangan foydalanuvchi, davlat xizmatlari, elektron hukumat.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi rivojlantirilmoqda. Bu jarayonda eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillar bekor qilinib, innovatsion mexanizmlar joriy etilayotir. Shu maqsadda joriy yil 30 avgustda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarni identifikatsiyalashning Mobil-ID tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror elektron shaklda foydalanish mumkin bo‘lgan davlat xizmatlari bo‘yicha aholimizning idorama-idora sarson bo‘lib yurishining oldini olishga xizmat qiladi hamda turli ovoragarchiliklarga va xizmatdan foydalanish uchun tashkilotlarda uzundan-uzoq navbat kutib turishiga chek qo‘yadi.

Aholiga tushunarli bo‘lishi uchun Mobil-ID tizimi shaxsni uning mobil telefon raqami orqali identifikatsiyalashni nazarda tutadi. Shaxsni identifikatsiyalashning Mobil-ID tizimi foydalanuvchilarga elektron rakamli imzoni qo‘llamagan holda barcha davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi (bundan kreditlash sohasida ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar mustasno).

Shaxsni Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyalash fuqaroning xohishiga ko‘ra davlat xizmatlari markazi yoki notarial idora tomonidan yoxud Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining (YaIDXP) mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.

Bunda fuqaro bevosita davlat xizmatlari markazi yoki notarial idoraga murojaat qilganda shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida fuqaroning yuzi raqamli formatda rasmga tushiriladi. Elektron shaklda qo‘l barmog‘i izi olinadi va mobil telefon raqami YaIDXPdagi shaxsiy kabinetga bog‘lanadi.

Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyadan o‘tish uchun foydalanuvchi tomonidan YaIDXPning mobil ilovasidan foydalanilganda masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) usuli yoki ID-kartadagi elektron raqamli imzo qo‘llaniladi hamda mobil telefon raqami YaIDXPdagi shaxsiy kabinetga bepul bog‘lanadi. Bunda foydalanuvchi masofadan turib Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o‘tish uchun YaIDXPning mobil ilovasidan foydalanadi hamda elektron shakldagi so‘rovnomani to‘ldiradi.

YaIDXPning mobil ilovasi orqali foydalanuvchini Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o‘tkazishda taqdim etilayotgan mobil telefon raqami aynan murojaat qilayotgan foydalanuvchi nomiga rasmiylashtirilgan bo‘lishi zarur. Bevosita davlat xizmatlari markazi yoki notarial idora orqali fuqarolarni Mobil-ID tizimiga identifikatsiya qilish 2022 yil 31 dekabrgacha bepul, 2023 yil 1 yanvardan boshlab bazaviy hisoblash miqdorining 2 foizi miqdorida bir martalik to‘lov undirgan holda amalga oshiriladi.

Foydalanuvchilar Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o‘tish uchun Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 177-son qaroriga muvofiq biriktirilgan JShShIRga hamda O‘zbekiston Respublikasidagi mobil aloqa operatorlari tomonidan berilgan mobil telefon raqamga (hisob balansi faol bo‘lgan holda) ega bo‘lishi zarur. Foydalanuvchi bir nechta mobil telefon raqamlariga ega bo‘lganda uning tanloviga asosan faqat bir mobil telefon raqami Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o‘tkaziladi.

Foydalanuvchilar Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o‘tgandan keyin “Tasdiqlangan foydalanuvchi” maqomini oladi va barcha elektron davlat xizmatlaridan foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o‘tishni ishonchnoma asosida yoki vakil orqali amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Yana bir muhim joyi – Mobil-ID tizimi orqali identifikatsiyalash yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Mobil-ID tizimidan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi. OneID tizimi orqali davlat organlari va tashkilotlarining portal va axborot tizimlariga kirishda foydalanuvchilarning shaxsini tasdiqlash (autentifikatsiya qilish), Mobil-ID tizimidan foydalanayotgan foydalanuvchining haqiqiylikni tasdiqlash (verifikatsiya qilish), elektron davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha foydalanuvchilar tomonidan berilgan arizalarni tasdiqlash, foydalanuvchi o'zining shaxsiga doir ma'lumotlarni davlat organlari va tashkilotlari “Elektron hukumat” tizimi orqali olganda bu haqida xabarnomalar qabul qilish, foydalanuvchi o'zining shaxsiga doir ma'lumotlarini davlat organlari va tashkilotlari, xo'jalik birlashmalari, nodavlat tashkilotlar “Elektron hukumat” tizimi orqali olishi uchun ruxsat berish, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Mobil-ID tizimi orqali xizmatlardan foydalanishda foydalanuvchining Mobil-ID tizimida identifikatsiyadan o'tgan mobil telefon raqamiga bir martalik unikal kodli SMS-xabar yuboriladi va ushbu kod tizimga kiritilganda xizmatdan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu orqali tizim foydalanuvchilarining xavfsizligi ta'minlanadi va unga oid ma'lumotlardan foydalanishga roziligi tasdiqlanadi.

Qoida tariqasida Mobil-ID tizimidagi identifikatsiyaning muddati cheklanmaydi. Faqat shaxs (foydalanuvchi) istalgan vaqtda va o'z xohishiga ko'ra davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXPning mobil ilovasi orqali Mobil-ID tizimidagi identifikatsiyani bekor qilishi mumkin.

Qisqa qilib aytganda, Mobil-ID tizimi aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va aholiga qulayliklar yaratadi. Davlat xizmatlarini rivojlantirish sohasidagi xalqaro reytinglarda esa O'zbekiston Respublikasining o'rini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2022 yildagi “Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-113-son Farmoni.

INSON ORGANIZMIDAGI BUYRAKNI ZARARLAYDIGAN ODATLAR

Xatamova Nasiba Baxromjon qizi

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 2-kurs talabasi

Email: xn.tekna04@gmail.com

ANNOTATSIYA

Inson organizmidagi buyrak qonni filtrlaydi, moddalar almashishi natijasida hosil boʻladigan zararli mahsulotlarni organizmdan tashqariga chiqaradi. Inson organizmida kislota-ishqor muvozonatini saqlaydi, suyuqlik elektrolitlar muvozanatini tartibga soladi, qon bosimi va qon hajmini togʻrilaydi, gormon va enzimlar ishlab chiqadi. Kundalik hayotimizdagi qaysi odatlarimiz buyraklarimizni zararlashini va buning natijasida buyraklarimizda qanday kasalliklar kelib chiqishi toʻgʻrisida fikir mulohaza yuritamiz.

АННОТАЦИЯ

Почка в организме человека фильтрует кровь, выводит из организма вредные продукты в результате обмена веществ. Поддерживает кислотно-щелочной баланс в организме человека, регулирует водно-электролитный баланс, корректирует артериальное давление и объем крови, вырабатывает гормоны и ферменты. Мы подумаем о том, какие привычки в нашей повседневной жизни повреждают наши почки и какие заболевания возникают в наших почках в результате.

ABSTRACT

The kidney in the human body filters blood, removes harmful products from the body as a result of exchange of substances. It maintains the acid-base balance in the human body, regulates fluid electrolyte balance, corrects blood pressure and blood volume, produces hormones and enzymes. We think about what habits in our daily life damage our kidneys and what diseases occur in our kidneys as a result.

Kalit soʻzlar: Degidratatsiya, nefrolitiaz, B6 vitamin, kaliy.

Key words: dehydration, nephrolithiasis, vitamin B6, potassium.

Ключевые слова: обезвоживание, нефролитиаз, витамин B6, калий.

Shifokorlarning taʼkidlashiga qaraganda 10-15% odam buyrakda tosh borligidan aziyat chekadi, ayniqsa 40-60 yoshdagilarda mazkur kasallikka chalinish ehtimoli yuqori boʻladi. Biz zararli odatlarimiz natijasida organizmimizni buyrakning siydiktosh kasalligi, siydik yoʻllarida tuzlar toʻplanib qolishi, gidronefroz, nefroptoz, buyrak sili hamda siydik nayi va buyrakning boshqa kasalliklarini orttirib olishimiz mumkin. Hozir esa zararli odatlar va toʻgʻri ovqat ratsioniga amal qilmaslik qanday holatlarni keltirib chiqishini koʻrib chiqamiz.

Tuz, buyrak yetishmovchiligini kelib chiqishiga sabab boʻladigan eng birinchi mahsulotdir lekin normada elektrolit, suv, qon bosimni normallashtirish uchun kerak boʻladi, koʻp miqdorda isteʼmol qilishlik esa aksincha taʼsir qiladi. Inson organizmini kunlik tuz ehtiyoji 6gr atrofida xolos. Degidratatsiya-bu organizmdan juda koʻp suv yoʻqotish holati hisoblanib, suvsizlikda buyrak vazifasini bajarishni toʻxtatadi. Buyraklar oʻz vazifasini bajarishi uchun suvga ehtiyoji bor. Buning uchun har bir kilogram vaznimiz uchun 30ml suv ichishimiz kerak degani, yaʼni oʻrtacha 70kg atrofidagi kishi 2litr, 10 stakan suv ichishi kerak degani. Kerakli miqdorda suv ichilmasa, siydik rangi toʻqlashadi, odatda och sariq rangda boʻlishi kerak, ichayotgan suyuqligingizni buyraklaringiz uchun yetarli boʻlayotganini aniqlashni eng soda usuli ham siydik rangini baholash orqalidir. Juda ham oqarib ketmasligiga ham eʼtibor berish kerak boʻladi.

Qon tomirlar torayishi va qattiqlashishiga sabab boʻlib buyraklardagi qon aylanishini izdan chiqishiga sabab boʻladi. Sigareta tutuni tarkibidagi minglab kanserogen moddalar qonga soʻrilgach tozalanishi buyraklar va siydik orqali roʻy beradi, rak kasalligini kelib chiqishida ham asosiy omil hisoblanadi. Spirtli ichimliklar qonda siydik kislotasini miqdorini haddan ziyod koʻpaytirib yuboradi, siydik tosh kasalligiga sabab boʻlishi mumkin.

Asossiz dori ichishlar, ayniqsa og‘riq qoldiruvchi dorilar buyraklarga juda katta zarar beradi, uzoq vaqt ichishlik natijasida va yoshni o‘tishi bilan qon bosimni nazorat qilish qobiliyatini izdan chiqaradi. Bundan tashqari qandli diabet va qon bosimini davolovchi dorilar ham tog‘ri tartibda olib borilmasa buyrak ish faoliyatini izdan chiqarib, buyrak yetishmovchiligigacha sabab bo‘ladi.

Vitamin B6 yetishmasligi. Maryland universitetida o‘tqazilgan tekshiruvda vitamin B6 yetishmasligi buyraklarda tosh hosil bo‘lish xavfini yuzaga keltirar ekan. Bu vitaminni tabiiy ravishda pista (semichka), xandon pista, no‘hat, baliq va sabzavotlardan qabul qilishimiz mumkin. Hozirgi kunda katta yoshli odamlarning juda ko‘p qismida buyrakda tuz, tosh to‘planishi kabi kasalliklar bilan og‘rish holatlari kuzatiladi. Biz tanishib chiqmoqchi bo‘lganimiz ham aynan buyrakda tosh hosil bo‘lishi ya‘ni nefrolitiaz haqida. Ushbu buyrak tosh kasalligi-tuzlardan hosil bo‘lgan, qattiq kristallsimon toshlar paydo bo‘lishi hisoblanadi.

Kattaligi (bir necha mmdan 10 smgacha) va shakli jihatidan ajraladi. Ba‘zi hollarda siydik qopiga tushib, siydik yo‘liga tiqilishi mumkin. Bu kasallikning sabablari nasliy moyillik yoki qonda *Ca* va siydik kislota miqdorining ko‘payishi, moddalar almashinuvi buzilishi, suyuqlikni kam qabul qilish yoki suyuqlik tez chiqishi, moddalar almashinuvi buzilishi, buyrak infeksiyalari kabilardir. Nefrolitiaz bilan og‘riga bemorda qorin pastida, yoki yon tomonida o‘tkir og‘riqlar, og‘riqli siydik ajralishi, ko‘ngil aynish, qayt qilish, siydik xiralashishi yoki siydik bilan qum ajralishi, qon ketish kabi belgilar kuzatilishi mumkin.

Bu holatda ultratovush (UTT) yoki rentgen tekshiruvlariga asoslanib tashxis qo‘yiladi. Toshning o‘lchami siydik nayidan chiqarilish darajasida bo‘lsa, uni erituvchi dorilar, giyohlar va parhez yordamida davolanadi. Parhez tosh tarkibiga qarab turlicha bo‘ladi. Litotriptor yordamida toshni maydalab, siydik yo‘llaridan chiqarib yuborish tobora ko‘p qo‘llanilmoqda. Zaruriy hollarda jarrohlik usulida tosh buyrakdan olib tashlanadi. Har bir kasallik o‘zidan sezilarli sezilarsiz qandaydir asorat qoldirishi turgan gap shuning uchun ibn Sino bobomiz aytganlaridek “Kasallikni davolagandan oldini olgan yaxshi”. Kasallik bilan og‘rimaslik uchun to‘g‘ri ovqatlanish ratsioniga

amal qilish, zararli odatlardan voz kechish, ko‘proq suyuqlik shu o‘rinda, tabiiy nastoykalarni ichib yurishni odat qilish, shifokor ko‘rigiga 1 yilda ikki marta ko‘rinish tavsiya etiladi. Ona tabiatimiz ne‘matlari bo‘lgan bir necha xil tabiiy mahsulotlardan o‘ziga hos muolajalar qilish orqali buyraklarimizni toshlardan halos etishimiz mumkin.

Kaliy tuzlari buyraklarda siydik ajralishini ko‘paytiradi. Kaliy esa poliz maxsulotlarida va mevalarda ko‘p. Masalan, yaxshi tayyorlangan sabzi shirasidan 200 gr, selderey 400 gr, petrushka 20 gr, limon 30 gr, aralashtirib bir kunda 1 marta 50 gr dan ovqatdan 1 soat oldin ichilsa, buyrakdagi toshni eritib tushirib yuborishga yordam beradi. Ushbu muolajalar bajariladigan paytda har kuni issiq vanna qabul qilish kerak. Vannadan so‘ng hamisha bel sohasini issiq saqlash kerak.

Limonli choy, uzum bargi qaynatmasi, yalpiz damlamasi ham buyrakda tomirlarni qisqartirishni yaxshilaydi, tosh yoki tuzlarni siljishiga yordam qiladi. Marvaridgul gullari, qayin barglari, archa mevalari, ukrop mevasi, petrushka mevasi, qora marjon gullari, qora zira mevalari, gul yaproq o‘ti, qirq bo‘g‘in o‘ti, yer tuti barglari ham buyrak faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Tarvuz siydik yo‘llari va buyraklardagi tuz yoki toshlarni eritadi. Har kuni (3 kg dan 1 kunda 3 marta 1 kg dan) tarvuz iste‘mol qilinadi. Po‘chog‘i qaynatilib, suzib ichiladi va har kuni 3-4 marta vanna qilish va yengil jismoniy mexnat qilinadi. Buyrak va siydik yo‘llarini tozalashni kuz faslida qilgan ma‘qul.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, so‘g‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish ya‘ni insonning kun tartibiga rioya etishi, faol harakat asosida organizmini chiniqtirishi, sport bilan shug‘ullanishi, to‘la va sifatli ovqatlanishi, gigiyenik qoidalarga amal qilishi, zararli odatlardan o‘zini tuta bilishi orqali nafaqat ayrish sistemasi bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar, balki ummuman boshqa kasalliklar bilan ham og‘rimaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.H.Abdullayev, H.Yo.Karimov, B.O'.Irisqulov, “Patalogik fiziologiya” “Yangi asr avlodi” NMM, 2008 y.
2. M.A. Jo‘rayeva “Dorivor o‘simliklar atlası” NOSHIR nashriyoti 2019-yil
3. <https://andrology.uz/site/maqola?id=81>
4. <https://zamin.uz/uz//45829-buyraklardan-toshlar-va-tuzlarni-chiqarib-yuborishning-usullari.html>

JAMIYATIMIZDA MULOQOT VA MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA BERDAQ IJODIGA NAZAR

Rismuxammedova Guljan Amanovna

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
2-pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti tyutori

Xusanov Mansur Mo‘min o‘g‘li

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
2-pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti talabasi

Email: man4o.uz@gmail.com

Annotatsiya: Biz ushbu maqolamizda insonning muloqot va madaniyatni yuksaltirishda Berdaq asarlari bilan o‘zaro bog‘liqlig masalasi haqidagi fikrlarimizni bayon qilamiz.

Kalit so‘zlar: Muloqot, madaniyat, antroposentrik yondashuv, lingvokulturologiya, maqollar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: Ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo‘ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz. Hisobot uchun emas, natija uchun ishlash kerak deya ta’kidlaydi. Jamiyatimizda muloqot va madaniyatni yuksaltirishda so‘z boyligi insonning ijtimoiy mohiyatini yuzaga chiqaradi. Inson jamiyatda yashaydi va tabiiyki, u mazkur jamiyatning boshqa a’zolari bilan muloqot qilishi lozim bo‘ladi. So‘z insonlarni bir-biri bilan bog‘laydi, ularni muloqot vositasida birlashtiradi. Muloqotsiz jamiyat bo‘lmaydi, jamiyatsiz ijtimoiy inson, madaniy va ongli inson *homo sapiens* bo‘lmaydi. So‘z tilda mujassamlashib, insonni hayvonot dunyosidan ajratadi. Hech qaysi bir fan, hech qaysi bir ilm so‘zsiz mavjud bo‘lmaydi. Hech bo‘lmaganda, bilim va tajribalarni shakllantirish, ularni qayd qilib kelgusi avlodga qoldirish uchun

ham soʻzlar kerak boʻladi. Xullas, muloqot insoniyat borligining tamali, sinchini tashkil qiladi.

Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashuvini, uning jamiyat bilan aloqasini muloqotsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Muloqot ham oʻziga xos ehtiyoj. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega boʻladi, nutq vositasida anglanadi. Nutq taʼsiri ostida qarashlar, eʼtiqodlar, maʼnaviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va feʼl-atvor shakllanadi. Har bir millatning oʻziga xos muloqot shakli va qarashlari mavjud. Ana shu qarashlar, eʼtiqodlar, anʼana va urf-odatlar uning tilida namoyon boʻladi. Til va madaniyat, til va tafakkur oʻrtasidagi aloqa masalasi oʻz dolzarbligini yoʻqotmaydigan masalalardan hisoblanadi. Shu oʻrinda muloqat masalasida adabiyotga murojat qilmaslikni imkoni yoʻq chunkiy adabiyot bu insonni muloqat madaniyatini yuksaltruvchi omil hisoblanadi. Jamiyatda muloqat deganda adiblar shoirlar ijodiga nazar solsak muloqatni adabiy tarzda kitoblarga nasriy va sheʼriy tarzda muhurlaganini koʻramiz. Berdaq ham shunday shoirlardan biri Berdaq.

Berdag oʻz asarlarida faqatgina insonni ulugʻlab, uning ijobiy sifatlari qanday boʻlishini tasvirlabgina qolmadi. U oʻz asarlarida tugal maʼnodagi ijobiy qahramonlar siymolarini ham yaratdi. Bu qahramonlarida mukammal insonga xos sifatlarni mujassamlashtirishga harakat qildi. U inson nomiga isnod keltiruvchi nomunosib shaxslarning qilmishlarini ayovsiz tanqid ostiga oldi.

Har bir millatning oʻziga xos koʻrish tarzi bor, oʻziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, oʻziga xos tafakkur tamoyili bor. Shuning uchun ham milliy ong, milliy tafakkur, milliy tuygʻu degan oddiy tushunchalar, ming yillardir, odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi. Til, eng avvalo, dunyoni koʻrish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Maʼlum jamiyat tomonidan toʻplangan hayot tajribalari, bilimlar, madaniyat olamni idrok etishning oʻziga xos shaklini yuzaga keltiradi. Ular shu til jamoasining dunyoni qanday koʻrishi, qanday qabul qilishi idrok intizomini koʻrsatadi. Xalqning dunyoni milliy koʻrish tarzi va idrok intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi. Berdaq

“Bizlarga yordam ber” degan asarida odamlarga, xalqqa, islomning boshqa tomonlarini ham ko‘rsatgan. Ma’lumki o‘z vaqtida Umar Hayyom ham shunday asarlari uchun uni mullalar va islomiylar tinch qo‘yishmagan edi. Umar Hayyom din va uning urf-odatlarining ijtimoiy mohiyatini fosh etib, din hukmron doiralar, ruhoniylarqo‘lida qul qilish quroli ekanini ta’kidlaydi. Bu haqda u shunday deydi:

Masjidu, butxona qullik demakdir,

Qo‘ng‘iroq- tarona qullik demakdir.

Mehrobu kaliso, tasbehu salib,

Barchasi nixona qullik demakdir.

Chunki Berdaq ham Navoiy kabi har bir odam o‘zi uchun tabiat tomonidan belgilanganyuksak vazifa va martabani anglagan holda ish tutishi kerak deydi. Uning yurish-turishi, xatti-harakati, maqsad va niyatlari insoniylikning baland darajasiga munosib bo‘lishi shart. Shoir aytadiki, inson qadr-qimmatini, shaxsiy fazilatlarini har narsadan ustun qo‘yar ekan, inson zotiga mansublikning o‘zi kishini ulug‘ qilishni alohida ta’kidlaydi. Bundan tashqari Berdaq Navoiyning falsafiy qarashlarini yaxshi o‘rgangan va o‘z falsafiy qarashlarida o‘xshashlik borligini bilgan edi. Berdaq bu boradagi jamiyatda madaniyat va madaniyatni yuksalturuvchi asarlar muollifi sifatida jamiyatga oid qarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar haqida gapiradigan bo‘lsak, avvalo u qanday muhitda tug‘ilganini, qanday muhitda yashaganini yana bir bor yodga olsak xato qilmagan bo‘lamiz. Berdaq shoir, baxshi bo‘lishiga qaramay o‘z she’rlarida, qo‘shiqlarida, falsafiy g‘oyalarni ilgari surdi. Chunki uning falsafiy qarashlarini o‘sha she’r, qo‘shiqlarida ko‘ramiz. Bunda qanday falsafa yotadi degan savolga esa, uning she’rlarini o‘qigan inson biladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах: Сангзор, 2006;
2. Токарев Г.В. Лингвокультурология. Тула: Издательство ТГПУ им. Л.Н. Толстого, 2009. -С. 6.
3. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс. Тошкент, 2019. -Б. 13.
4. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. -Б. 10.
5. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2015. №3. -Б. 6.
6. www.ziyo.uz
7. www.ziynet

THE ROLE COMPUTER AIDED DESIGN (CAD) IN MEDICINE

Yusufjonov Otabek G‘ayratjon o‘g‘li,

assistant of “Applied Mechanics” department, Fergana Polytechnic Institute.

Ruzaliyev Xojiakbar Shermaxammad o‘g‘li,

assistant of “Applied Mechanics” department, Fergana Polytechnic Institute.

Annotation. Advances in bioinformatics, mathematical methods in biomedical science, and advances in computer and communications systems and networks are leading to the emergence of high-performance medical technologies and general medicine now and in the future. There are several standards for working with medical imaging today.

Keywords: computer aided design, computer aided manufacturing, medicine, diagnostic methods.

РОЛЬ КОМПЬЮТЕРНОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ (САПР) В МЕДИЦИНЕ

Аннотация. Достижения в области биоинформатики, математических методов в биомедицинских науках, а также достижения в области компьютерных и коммуникационных систем и сетей ведут к появлению высокоэффективных медицинских технологий и общей медицины сейчас и в будущем. На сегодняшний день существует несколько стандартов работы с медицинской визуализацией.

Ключевые слова: автоматизированное проектирование, автоматизированное производство, медицина, методы диагностики.

Progress in the development of bioinformatics, mathematical methods in biomedicine, the development of computer and telecommunication systems and networks determine the appearance of present and future high medical technologies and medicine in general. To date, a number of standards for working with medical images have already been created. By analogy with CAD / CAM (computer aided design and computer aided manufacturing) systems for technical applications, CAD

(computer-aided diagnosis) systems are also being developed for medical purposes. Some of them are already successfully functioning, but so far, such systems are just "assistants" to the diagnostician who makes the decision. Algorithms of CAD-systems of medical images, as a rule, include image segmentation, selection of objects of interest ("masses"), their analysis, parametric description of selected objects, and their classification. Classification of objects of interest can be carried out using the methods of neural networks, support vectors, discriminant analysis, etc. CAD systems significantly increase the efficiency of radiation diagnostic methods. However, the practical application of radionuclide diagnostic methods demonstrates the continuing lack of information in algorithms and programs that provide visualization and analysis of medical images. This is especially noticeable when using radionuclides that do not have a high specificity of accumulation in pathological foci. These include the method of osteoscintigraphy.

Planar whole-body scintigraphy with phosphate complexes labeled with ^{99m}Tc is widely used in the diagnosis of skeletal metastatic disease. By binding to hydroapatite crystals, phosphate complexes reveal tumor-associated osteoneogenesis and make it possible to detect a metastatic lesion of the skeleton long before the appearance of pronounced local demineralization and bone destruction, which is recorded during X-ray examination. At the same time, various pathological processes in the skeleton, as well as metastases, are manifested by polymorphic foci of hyperfixation (HF) of the radiopharmaceutical (RP). Despite the fact that bone scintigraphy is the method of choice in the early diagnosis of skeletal metastases of tumors prone to skeletal damage, the interpretation of scans in cancer patients presents significant difficulties. Early diagnosis of metastatic lesions of the skeleton has a very significant impact on the choice of tactics for the treatment of patients with malignant neoplasms. In this regard, it is necessary to search for approaches to optimize the analysis of scintigraphy results. The use of CAD analysis could significantly increase the specificity of bone scintigraphy. However, works on the use of CAD systems in skeletal scintigraphy are rare and are performed only abroad.

When using the Mimics program, slice files are processed in a semi-automatic mode. The program allows you to select the desired areas on the images of tomograms in accordance with their color (grayscale). Each color on the tomogram corresponds to a certain value of the density of a human tissue or organ. Therefore, by choosing a density interval, it is possible to isolate the required human tissue or organ. If you use a CAD-computer-aided design system such as SolidWorks, then the images of cross-sections are loaded into the program one by one, and the operator manually traces the desired contours and creates flat sketches. The resulting set of sketches is used to create a three-dimensional solid model of the object under study. Both in the first and in the second case, building a model is impossible without eliminating artifacts, roughness and uneven terrain. If we consider these two methods from the point of view of the suitability of the constructed geometric model for numerical calculations and finite element modeling, then the second method is more preferable, since when it is used, the output is a three-dimensional geometric model of the object under study, which consists of a volume, its surfaces bounding, lines and points. Only in this configuration, a three-dimensional computer geometric model is convenient for further processing, editing, setting boundary conditions, and creating a computational grid. In the case when the Mimics program is used to create the geometry of an object, either a set of computational grid nodes or a set of surfaces bounding the object are obtained. Both of these options turn out to be inconvenient both for setting the boundary conditions and for creating a finite element mesh. Modeling in any finite element software package is carried out according to the standard scheme. The algorithm for solving the problem by the finite element method consists of choosing a mathematical model, when the need to select the appropriate finite element is implied or it is required to set differential equations that describe the process under study, creating or importing a geometric model, entering material properties, boundary and initial conditions and parameters, splitting the model into finite -element grid, solutions and processing of the obtained results.

REFERENCES

1. Косых, Н. Э., Смагин, С. И., Гостюшкин, В. В., Савин, С. З., & Литвинов, К. А. (2011). Система автоматизированного компьютерного анализа медицинских изображений. *Информационные технологии и вычислительные системы*, (3), 51-56.
2. Тонконогий, В. М., Савельева, Е. В., Рязанцев, В. М., & Бец, А. В. (2013). Применение CAD/CAM технологий в медицине. *Праці Одеського політехнічного університету*, (1), 150-155.
3. Иванов, Д. В., Лепилин, А. В., Смирнов, Д. А., & Доль, А. В. (2013). Возможности различных CAD-комплексов при построении математической модели костной ткани. *Саратовский научно-медицинский журнал*, 9(3), 403-405.
4. Mamadjonov, A. M., & Ruzaliyev, X. S. O. G. L. (2021). SIEMENS NX 12.0 DASTURI YORDAMIDA RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN DASTGOHLAR UCHUN TEXNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASH. *Scientific progress*, 1(6), 397-401.
5. Mamadjonov, A. M., & Ruzaliyev, X. S. O. G. L. (2021). RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN DASTGOHLAR UCHUN DETALLARGA ISHLOV BERISH DASTURINI ISHLAB CHIQISH. *Scientific progress*, 2(1), 11-17.
6. Юсуфжонов, Отабек Ғайратжон Ўғли, Рўзалиев, Хожиакбар Шермамад Ўғли, & Турғунбеков, Ахмадбек Махмудбек Ўғли (2022). ОБЗОР И АНАЛИЗ РЕГЕНИРАЦИИ АСФАЛЬТОБЕТОНА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (4), 528-540.
7. Ruzaliyev, Khojiakbar Shermakhamad Ugli (2022). ANALYSIS OF RESEARCH ON THE TREATMENT OF DETAILS ON THE INNER CYLINDRICAL SURFACE LAYER. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (4), 281-290.

8. Yusufjonov Otabek, Ro'Zaliyev Xojiakbar, & Turgunbeqov Axmadbek (2022). EXPERIMENTAL STUDIES OF THE TECHNOLOGICAL PROCESS OF PROCESSING CONCAVE SURFACES OF COMPLEX SHAPES. *Universum: технические науки*, (5-10 (98)), 48-50.
9. Ruzaliyev, X. S. (2022). Analysis of the Methods of Covering the Working Surfaces of the Parts with Vacuum Ion-Plasmas and the Change of Surface Layers. *Eurasian Scientific Herald*, 9, 27-32.
10. Сардорбек Маъруфович Юсупов, Жасурбек Ғайратжон Ўғли Ғайратов, Асилбек Ғайратжон Ўғли Назаров, Отабек Ғайратжон Ўғли Юсуфжонов КОМПАЗИЦИОН МАТЕРИАЛЛАРНИ БОРЛАШ // *Scientific progress*. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kompazitsion-materiallarni-borlash> (дата обращения: 13.10.2022).
11. О. Ғ. Юсуфжонов, Ж. Ғ. Ғайратов ШТАМПЛАШ ЖАРАЁНИДА ИШЧИ ЮЗАЛАРНИ ЕЙИЛИШГА БАРДОШЛИЛИГИНИ ОШИРИШДА МОЙЛАШНИ АҲАМИЯТИ // *Scientific progress*. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shtamplash-zharayonida-ishchi-yuzalarni-eyilishga-bardoshlilikini-oshirishda-moylashni-a-amiyati> (дата обращения: 13.10.2022).
12. Djurayev, A., & Yuldashev, K. (2020). Dynamics of the Screw Conveyor for Transportation and Cleaning of Fiber Material. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 8557-8566.
13. Юсупов, С. М., Ғайратов, Ж. Ғ. Ў., Назаров, А. Ғ. Ў., & Юсуфжонов, О. Ғ. Ў. (2021). КОМПАЗИЦИОН МАТЕРИАЛЛАРНИ БОРЛАШ. *Scientific progress*, 1(4).
14. Otabek G'ayatjon O'G'Li Yusufjonov SHТАМПЛАРНИ ТА'МИРЛАШ USULLARI ТАҲЛИЛИ // *Scientific progress*. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shtamplarni-ta-mirlash-usullari-tahlili> (дата обращения: 13.10.2022).

ZOOLOGIYA FANI DARSLARIDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH VA O‘QUVCHILARNING BILIM, MALAKA VA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Abduqodirova Shohista Abdumalik qizi -2 kurs magistr

Jizzax davlat pedagogika unversiteti

Annotatsiya: Zoologiya darslarida nostandart testlardan tashqari nostandart testlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish, ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish. Zoologiya darslarida nostandart testlarning rasmi, juftlab yozish kabi turlaridan foydalanish.

